

373/072.
R-228.

A.K.RAXIMOV, B.B.ABDRAIMOVA

PEDAGOGIK AMALIYOTNI O'TKAZISH METODIKASI



343(042)
R - Jk

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RSTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT VILOYATI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

A.K.RAXIMOV, B.B.ABDRAIMOVA

PEDAGOGIK AMALIYOTNI O'TKAZISH METODIKASI

*Biologija o'qitish metodikasi ta'lim yo'nalaishi
talabalar uchun o'quv qo'llamma*

-13158-

13158
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RSTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

MUNDARIJA

SO'Z BOSHI 5

KIRISH 6

**I BOB, TALABALARNI PEDAGOGIK FAOLIYATGA
TAVYORLASHDA PEDAGOGIK AMALIYOTNING** 8**AMALIYATI**.....1.1. Pedagogik amaliyot haqida umumiylar tushunchalar 8
1.2. Pedagogik amaliyotning maqsad va vazifalari, xujjalashirish, amaliyotchining ish rejası 91.3. Amaliyotchilarning huquq va burchlari 17
1.4. Mutaxassisliklar bo'yicha metodistning vazifalari 20**II BOB, AMALIYOTCHILARNING MUSTAQIL
ISHLARINING TARKIBI VA UNI TASHKIL QILISH 24**

1.1. Pedagogik amaliyotchilarning tabiiy – ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish 24

2.1. Biologiya fani bo'yicha mavzuli taqvim rejasini ishlab chiqish 26

2.3. Amaliyotchilarning mustaqil darslarini tashkil etish metodikasi 51

2.4. Biologiya fanidan o'quv materialllarini mustaqil holatda o'rganish 71

2.5. Biologiya bo'yicha mashg'ulotlarni tahlil qilish metodikasini o'zlashtirish 72

2.6. Amaliyotchilarning biologiya faniidan o'tkaziladiigan mashg'ulotlarning metodik tahlili 82

2.7. Biologiya fani bo'yicha anjumanlar tashkil etish va o'tkazish 86

2.8. Umumiy o'rta ta'limga maktablari biologiya konusini o'rganish 90

2.9. Analoyotchilar tomonidan o'quv faoliyatini tashkil qilishda biologiya xonasining imkoniyatlaridan foydalanish 95

Taqribchilar:
G.S.Ergasheva – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Biologiya kafedrasи dosenti, p.f.d (DSc);
L.N.Egamberdiyeva – Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti Biologiya kafedrasи dosenti, b.f.n.

O'zbekiston Respublikasi Oly va o'rta maxsus ta'limga vazirligining 2021-yil 23 noyabr-dagi 500-soni buyrug'iiga asosan o'quv qo'llanna sifatida nashr etishga ruxsat etildi.

uslubiy ishlari 110

3.3. Maktab joylashgan tuman hududida va maktablar o'quvchilarini istiqomat qiluvchi hududda ekologik monitoringni tashkil qilish va o'tkazish metodikasi 114

IV Bob. BIOLOGIYA KURSI BO'YICHA

O'QUVCHILARNING BILIM VA KO'NIKMALARINI NAZORAT QILISH TIZIMI 121

4.1. Pisa tadqiqotlari haqida umumiy ma'lumotlar 121

4.2. Testlar va nazorat testlari 123

4.3. Biologiyadan o'quvchilar bilimini

baholashning me'yorlari 129

4.4. Biologiya bo'yicha makkabda bitiruv imtihoni

Ilovalar 131

Foydalanimigan adabiyotlar ro'yxati 139

155

SO'Z BOSHI

O'zbekistonda mustaqil rivojlanishning dastlabki kunlaridan ta'lim sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratildi, normativ-huquqiy va moddiy-technik baza tubdan yangilandi, yuqori malakali pedagogik kadrlar tayyorlash bo'yicha tizimli ishlash tashkil qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlaganidek, "...avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimi va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalash zarus, matematika, kimyo-biologiya, geologiya kabi yo'nalishlarda fundamental va amaliy tadqiqotlar faoliyatini, olimlargacha shart-sharoitlar yaratib beriladi". Yangi sharoitlarda o'qituvchi pedagogik faoliyatining zamонавиyo yo'nalганлikлari, baholash va o'zini o'zi baholash, o'zini o'zi boshqarish mezonlari zaruratga aylandi. Ta'lim tizimlari, texnologiyalari, metod va vositalari, ta'lim jarayoni sifati va samaradorligini baholash pedagogikada uning mazmunini tavsiflashning yaruda aniq, ixcham tildan foydalanimishni qat'iy talab qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 2 martdagি PF-5953-son "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategyyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to'g'risida"gi, 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oly ta'lim tizimmini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tashdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, raqobatbardosh kadr tayyorlash, illo'or pedagogik va innovation texnologiyalarga asoslangan darslik va o'quv adabiyotlar chop etish asosiy vazifalar qilib belgilangan. Shu nuqtai nazardan bo'lajak biologiya o'qituvchilarini tayyorlashda pedagogik amaliyotni o'tkazish metodikasini takomillashtirish dolzarb hisoblanadi.

O'quv qo'llanna haqidagi fikr va mulohazalarini mualliflar minnatdorchilik bilan qabul qiladi.

Mualliflar

KIRISH

Pedagogik amaliyot bo'lajak biologiya o'qituvchilarini kasbiy tayyorlash tizimining asosiy va muhim bo'g'indir. Pedagogik amaliyot talabaning nazarriy ta'limi va bo'lajak mustaqil faoliyatini bog'laydigan hamda kasbiy ko'nikma va malakalarni shakkantirishni ta'minlovchi jarayon bo'lib, dastlabki tajriba maktab hisoblanadi.

Ayniqsa, agar so'nggi 10–15 yil davomida ushbu masala bo'yicha yozilgan maxsus o'quv–qo'llammalarning son miqdori nisbatan kamligi hisobga olinsa, bizning fikrimizcha, biologiya yo'nalishi tala-

balarning amaliyot darslari tarkibini takomillashtirish va pedagogik

amaliyotni tashkil qilish bo'yicha keltirib o'tilgan bo'shligi ushbu

tavsiya qilinayotgan o'quv–qo'llamma ma'lum darajada to'ldiradi

deb hisoblaymiz. Bunda fikrimizcha, pedagogik amaliyot biolo-

giyani o'qitish metodikasi bo'yicha o'quv mashg'ulotlarining uzviy

davomi sifatida olib qaralsa, u holda umumiy o'rta ta'lim maktab-

larida amaliyotning birinchi bosqichida seminarlarga tayorlanish

va ularni o'tkazish tavsiya qilinadi va bu holatda talabalar malaka-

viy ish mavzularini tanlab olishadi va uni yozib, himoya qilishlari

qayd qilinadi. Amaliyotchilarning bevosita amaliyot davrida ish olib

boshishlari bosqichi niyatidan ijodiy tavsiiga ega bo'lib, talabalarga

yeterlicha darajada mustaqil ishlash imkoniyati beriladi, ularning

o'quv va tarbiyaviy jarayonlarda amaliy faoliyatlarini bitiruv mala-

kaviy ishlarini bajarish bilan uzviy bog'liqlikda tashkil qilish talab

qilinadi.

Qayd qilib o'tish kerakki, ushbu o'quv qo'llamma tarkibida qattiy ko'rsatmalar emas, balki ko'proq *tavsiyalar* mazmuniga ega holatlar keltirilgan bo'lib, shu sababli ushbu tavsiya qilinayotgan o'quv qo'llannaga ma'lum bir aniq shart-sharoitdan kelib chiqib, nisbatan ijodiy yondoshish talab qilinadi.

Bizning fikrimizcha, pedagogik amaliyotning boshlanishida talabalar o'tkazilishi belgilangan amaliyotning maqsadi, tarkibi, usulublari, shakllari va uni o'tkazish vositalarini sinchiklab o'rganib chiqishlari kerak. Bu masalalar ushbu o'quv qo'llamaning I bobida bayon qilingan. Ushbu keltirilgan ma'lumotlarni o'rganish orqali, amaliyotchilar o'zlarini oldida qanday vazifalarni bajarish kerakligi belgilanganligini his qilishi talab qilinadi.

Ushbu o'quv qo'llammanning II bobida pedagogik amaliyotning birinchi bosqichida amaliyotchilar tomonidan bajarilishi talab qili-nuvi aniq ishlarining tarkibi bo'yicha tavsiya–ko'rsatmalar kelti-rilgan bo'lib, shu sababli ushbu bobda keltirilgan ma'lumotlar nis-batan etaricha darajada batafsil holatda bayon qilingan.

O'quv qo'llammanning III bobida bevosita faol holatda amaliyot ishlari bilan bog'liq ma'lumotlar keltirilgan, ya'ni amaliyotchilar tomonidan amalga oshiriluvchi pedagogik amaliyot faoliyatining o'ziga oid holatlari bayon qilingan.

I BOB. TALABALARNI PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHDA PEDAGOGIK AMALIYOTNING AHAMIYATI.

Pedagogik amaliyot talabalarga biologiya o'qituvchisingning metodik faoliyatini o'rganish imkonini beradi, shuningdek umumiy o'rta ta'lif maktablarida ko'p qirrali o'quv-tarbiya jarayonining mazmun-mohiyatini anglab yetish imkonini beradi.

1.1. Pedagogik amaliyot haqida umumiy tushuncha

Pedagogik amaliyot – bu talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda umumiy o'rta ta'lif maktab sharoitida olib boriluvchi o'quv mashg'ulotlari hisoblanadi. Uning asosiy vazifalari quyidagilardan tashkil topgan:

1. Talabalarda o'quv materialini bayon qilishda, o'quvchilar bilish faoliyatini tashkil qilish, o'quvchilarning biologik obyektlar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish, ma'ruza, laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarga tayyorlarlik ko'rish va ularni tashkil qilishda biologiya o'qituvchisiga xos bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish;
2. Talabalarda mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish davomida ma'naviy tarbiya vazifalarini belgilash va ularni amalga oshirishni o'rgatish;
3. Talabalarni sinf rahbari sifatida o'quvchilar bilan tarbiyaviy ishlarni olib borishga o'rgatish, ya'ni nafaqat mashg'ulotlarni amalga oshirish, balki darsdan tashqari vaqtida, maktabdan tashqarida tarbiyaviy ishlar bilan shug'llanishiga o'rgatish amalga oshiriladi. Talabalar biologiya fani bo'yicha o'qituvchilarning sinfdi va sinfdan chiqishlarini talab qilish va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish;
4. O'quv va tarbiyaviy ishlarda pedagogik tajribani tahlil qilishni o'rgatish – qotib qolgan (*dogmatik*) aqidalar asosida emas, balki ijodiy yondoshuv tavsivida bo'lishi talab qilinadi.

1.2. Pedagogik amaliyotning maqsad va vazifalari, xujjalashtirish, amaliyotching ish rejasи.

Bo'la'jaj biologiya o'qituvchisi egallaydigan kasbi bo'yicha kamol topishida har xil o'zaro ta'sir ko'rsatuvchi omillar ishirok etadi. Ular orasida o'qituvchi shaxsini bevosita shakllanishiga qaratilgan ta'lif-tarbiya ishlarini bajarishda yuqori kurslarda o'tkaziladigan malakaviy pedagogik amaliyot muhim rol o'ynaydi. Bu amaliyot talabalarning pedagogika olyi ta'lif muassasalarida oladigan kasbiy pedagogik tayyorlarligining tugalluvchi bosqichidir.

Malakaviy pedagogik amaliyotchi pedagogik amaliyotning asosiy ishtiroychisidir. U pedagogik amaliyot to'g'risidagi mayjud yo'riqnomalar va dasturda ko'rsatilgan barcha ishlarni bajaradi, har bir dars, darsdan va sinfdan tashqari ishlarga, sinf rahbari sifatida tarbiyaviy tadbirlarga o'z vaqtida puxta tayyorlarlik ko'rib, ularni yuqori saviyada o'tkazishga harakat qiladi. Mazkur vazifalarni bajarishda nazarivani amaliyot bilan bog'lanishiga va o'quvchilar faolligini oshishiga erishmoq kerak. Pedagogik amaliyotchidan pedagogik amaliyot ishchi o'quv dasturini yaxshi bilish talab qilinadi.

Pedagogik amaliyotning umumiy davomiyligi 15 haftani tashkil qilib, pedagogik amaliyot ikki bosqichda o'tkaziladi. Birinchi bosqich 3 – kursda 4 hafta (may oyida) va bitiruvchi 4-kurs talabalari bilan o'quv yilining fevral – aprel oyлari davomida amalga oshiriladi (ma'lumotlar 2019-2022 o'quv yillar asosida tayyorlangan).

Pedagogik amaliyotni tashkil qilishning asosiy tamoyili – butun 15 hafta ishchi tavsiغا ega bo'lib, butun tayyorlarlik va sinov-imtiyon olish tadbirleri esa, amaliyot ishlari boshlanishigacha va uni amalga oshirish tugallanganidan keyin bajariladi. Faqat ushbu sharoitlardagina amaliyot ishlarini amalga oshirishda belgilangan vazifalarni maksimal darajada hal qilish va bunda ishlarni bajarishning maksimal darajada samaradorligini ta'minlash mumkin.

Amaliyot bosqlangunga qadar bir hafta davomida biologiyani o'qitish metodikasi va pedagogika kafedrasi o'qituvchilari tomonidan oliv ta'lif muassasasi doirasida pedagogik amaliyotning barcha masalalari bo'yicha majmuaviy tarzda mashg'ulotlar olib boriladi (ya'ni, ma'ruzalar o'qidi, maxsus kurslar va seminarlar tashkil qilinadi). Bunda talabalarning keltirilgan o'quv fan sohasi bo'yicha

amaliyot davomida bajarishi talab qiltingan ishlariiga aniqlik kiritiladi, aniq vazifalar belgilab olinadi. Shundan keyin, talabalar faqat biolog-metodistlar rahbarligida ish olib borishadi, ya'ni sinf rahbari bilan birgalikda talabalar umumiyo o'rta ta'lim maktablarida amaliyoti o'tashga borishadi. Boshqa o'qituvchilar ham amaliyotchilar bilan birgalikda amaliyot ishlari davomida mashg'ulotlarga qatnashishlari mumkin, biroq ularning bajaruvchi vazifasi soz holatda *maslahat berish* mazmuniغا ega hisoblanadi.

Institutimizning Tabiiy fanlar fakulteti biologiya o'qitish metodikasi fani o'qituvchilar, pedagogika o'qituvchilar va shuningdek, fakultet rahbariyati bilan kelishilgan holatda, pedagogik amaliyot bosqlanishiga qadar birinchi hafta davomida talabalar bilan asosiy tayyororganlik ishlari amalga oshiriladi, ya'ni bunda aynan quyidagi ishlar bajariladi:

a) Talabalarning ma'lum bir aniq umumiyo o'rta ta'lim maktablariga biriktirilishi;

b) Sinf rahbarlarning tayinlanishi;

v) Pedagogik amaliyot rabbarlari barcha amaliyotchi-talabalar bilan anjuman o'tkazishi talab qilinib, bunda ularga pedagogik amaliyotning vazifalari va talabari, shuningdek ish jadvali haqida batafsil ma'lumotlar beriladi;

g) Sinf rahbarlari tomonidan talabalar sinflari shakkantiriladi, talabalar ish olib boruvchi sinflarga aniqlik kiritiladi, bu holat o'quv yilning ushbu davri davomida umumiyo o'rta ta'lim maktablarida biologiya fani bo'yicha o'qituvchisi materiallarga tayyororganlik ko'rishni bosqlash imkonini beradi;

d) Amaliyotchi-talabalar sinflari amaliyot rabbari bilan birgalikda makktablarga chiqishadi, maktab ma'muriyati, biologiya o'qituvchisi bilan tanishishi, shuningdek o'z sinflarida o'quvchilar bilan ham tanishishlari mumkin.

Bu tayyorgartlik ishlarining juda katta va keng ko'lamli rejası bo'lib, uni amalga oshirish uchun olyi ta'llim muassasasi o'qituvchilar va talabalarani aniq harakat qilishlari talab qilinadi. Yuqorida keltirilgan rejani bajarishga yordamlashish uchun barcha bajarilishi talab qilingan ishlar turlarini biz ushbu qo'llamaning II bobida batafsil holatda keltiramiz.

Pedagogik amaliyotning 1-bosqichining maqsadi va vazifalari –

pedagogik amaliyot davomida talabalar o'tkazadigan darslar, darsdan va sinfdan tashqari ishlar ulardan chuqur bilim va tegishli metodik o'quv va ko'nikmalarni talab qiladi. Talaba amaliyotni ta'lim muassasasida bajaradigan ta'lim-tarbiya yo'naltishidagi har bir ishga tayyorlanishda mutaxassislik fanlari, metodika, pedagogika asoslari ni oly ta'lim muassasasi darsliklari bo'yicha takrorlaydi va bularga qo'shimcha qilib, tegishli ilmiy-ommabop hamda metodik adabiyot bilan tanishadi. Bularning hammasi talabalarini oly ta'lim muassasa o'tilgan o'quv fanlarini yanada chuoqroq o'zlashtirib olishlariga imkon beradi. Shu jihatdan pedagogik amaliyotni oly ta'lim muassasasidagi o'quv jarayonining davomi deb hisoblash mumkin. Ushbu bosqichda amaliyotchilarning vazifalari quyidagilardan iborat:

a) pedagogik amaliyotga bag'ishlangan kirish va yakunlovchi konferensiyalarda, ta'lim muassasasi metodik kengashlarida qatnashishi;

b) pedagogik amaliyotchilar mutaxassislik bo'yicha ta'lim muassasasi o'qituvchilarining ish tajribasi bilan tanishadi;

b) amaliyotchi pedagogik amaliyot davomida o'quv muassasaling ichki tartib-qoidalalariga qat'iy rioya qilishi, o'quv muassasa ma'muriyati va metodist rahbarlarning buyruqlariga bo'yusunadi;

v) biologiya faniga oid adabiyotlarni puxta o'rganishi, har bir o'tkaziladigan mavzuga puxta tayyoragarlik ko'radi;

g) amaliyot jarayonida umumiyo o'rta ta'lim muassasasida o'quv rahbari va biologiya o'qituvchisi bilan birgalikda muhokama qilinishi; ishlarnmalarini loyihalash, ularning amaliyot rabbari va biologiya o'qituvchisi bilan birgalikda muhokama qilinishi, biologik tajriba va laboratoriya ishlariiga tayyoragarlik ko'rish, biologiya bo'yicha rejalahshtirilgan mashg'ulotlarda foydalaniuvchi o'qitishning texnik vositalarini ishga tayyorlash;

e) dastlabki sinov mashg'ulotlarini o'tkazish va uni tahlil qilish, muhokamalarda ishtirot etish, umumiyo o'rta ta'lim maktabida biologiya o'qituvchisi va amaliyot rabbari, shuningdek jamooadagi talabalar tomonidan keltirilgan tuzatishlar bilan birgalikda dars mashg'ulotlarga o'zgartirish kiritish; o'quv jarayonida tarbiyaviy

holatlarga e'tibor berish;

1) sinfdan tashqari mashg'ulotlar va tadbirlarga tayyorgarlik ko'rish va ularni amalga oshirish;

2) biologiya bo'yicha turli xildagi sinfdan tashqari tadbirlarni (o'quv va tarbiyaviy tavsifga ega) o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish va ularni amalga oshirish;

3) pedagogika bo'yicha topshiriqlarni bajarish (sinf rahbari, metodist o'qituvchi rahbarligi ostida).

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan barcha vazifalar bo'yicha talabalarning faoliyatini tashkil qilish maqsadida, amaliyot davrini rejalashtirib olish talab etiladi, har hafta uchun aniq rejalarni ishlab chiqish, shuningdek har kunlik rejalarni ishlab chiqish zarur hisoblanadi.

Amaliyotning 1–haftasi uchun zaruriy bajariladigan vazifalar:

1. Biologiya fani bo'yicha sinov–imtihonini topshirish;

2. Biologiya fanidan o'quv va tarqatma materiallarni tayyorlash bo'yicha seminar ishlarida ishtirot etish;

3. Biologiya fani bo'yicha birinchi mashg'ulotni o'tkazish metodikasini ishlab chiqish: ya'ni, ushbu dars mashg'ulotining rejasidars ishlannalmalarni loyihalash, amaliyot rahbari va maktab biologiya o'qituvchisi bilan birlgalikda uni muhokama qilish;

4. Taqdimot materialini tayyorlash, darsni o'tkazishda ko'rgazma vositalarni tayyorlash;

5. Biologik laboratoriya mashg'ulotlari uchun barcha talab qilingan zaruriy vosita va anjomlarni tayyor holatga keltirish;

6. Umumiy o'rta ta'lim maktabiga birkittirilgan sinflarda biologiya darslarida ishtirot etish va darslarni tahlil qilish.

Amaliyotning birinchi haftasining yakunida har bir amaliyotchi maktab dasturi tarkibida biologiya o'quv fanining mavzularini bilihi, biologiya bo'yicha mustaqil dars olib borishga aniqlik kiritib olishi talab qilinadi.

Shuningdek amaliyotching o'ziga birkittirilgan sinflarda sinfdan tashqari mashg'ulotlarni amalga oshirishi talab qilinishi va bu jarayonning qanday taqvim muddatlarida bajarilishiha aniqlik kiritib olishi talab qilinadi. Shu sababli, amaliyotning birinchi haftasining oxirida amaliyotchi metodist rahbar va biologiya o'qituvchisi, shuningdek amaliyotchiga biriktirilgan sinf rahbari ko'rsatmalarini tashish maqsadida, uning pedagogik jamoasi, o'quvchilar, biologiya o'qituvchi va shuningdek boshqa fan o'qituvchilar, sinf rah-

rejasini tuzib chiqishi talab qilinadi.

Amaliyotchi talabaning shaxsiy ish rejası shakllantirishda quyidagilarga e'tibor berishi talab qilinadi:

1. Maktabda ish kunning davomiyligi 6 soatni tashkil qiladi va amaliyotga ajratilgan ish kunlarini 6 kun;

2. Amaliyot davomida o'tkaziladigan barcha turdag'i tadbirlar jumladan, umumiy o'rta ta'lim maktablari bilan umumiy tanishib chiqish, uning an'analarini, ichki tartib-qoidalarini, o'quv xonalari va uning ko'rgazmali qurollar bilan jizozlanishi, sinf rahbarining tarbiyaviy ishlar rejası bilan tanishib chiqish amalga oshiriladi;

3. Ilg'or pedagogik tajribalrar bilan tanishib chiqish maqsadida, biologiya o'quv fani va shuningdek boshqa o'quv fanlari bo'yicha o'qituvchilarning o'tayotgan darslarida qatnashishi va darslarni metodik jihatdan tahlil qilish;

4. Amaliyotchiga birkittirilgan sinflarda o'quv–tarbiyaviy ishlar ning tarkibi bilan tanishib chiqish;

5. O'quvchilar tomonidan darsda va darsdan tashqari bajariladigan topshiriqlarning holatini tekshirish, o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilar bilan qo'shimcha mashg'ulotlar o'tkazilishini kuzatish;

6. Umumiy o'rta ta'lim maktabida biologik to'garaklarda ishtirot etish;

7. Tarbiyaviy soatlarda tarbiyaviy masalalarga oid mavzularni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish uni amalga oshirishda ishtirot etish;

8. Biologiya bo'yicha mavzuga oid kechalarini, konferensiya darslarini tashkil qilish va ekskursiyalarini tashkil qilish;

9. Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarini va yuqori sinf o'quvchilarini uchun biologiya fanining zamонавиy va dolzarb masalalari mavzularida ma'ruza matnlarni tayyorlash faol qatnashish.

Amaliyot davri uchun tuzib chiqilgan amaliyotchi talabanining shaxsiy ish rejası ularga birkittirilgan sinf rahbari va biologiya o'qituvchisi bilan kelishilganidan keyin, amaliyotning birinchi haftasidan kechiktirmasdan metodistlar tomonidan tashdiqlanadi.

Shunday qilib, amaliyotchi talabaning shaxsiy ish rejası ayrim holda *taqvim reja* ham deb nomlanadi, pedagogik amaliyot dasturiga muvofiq tuziladi, ya'ni tashkiliy, o'quv va tarbiyaviy ishlar bilan tanishish maqsadida, uning pedagogik jamoasi, o'quvchilar, biologiya o'qituvchi va shuningdek boshqa fan o'qituvchilar, sinf rah-

bari bilan tanishish, biologiya fani bo'yicha o'kazilayotgan darslar da ishtirok etish, maktab jamoasidagi boshqa amaliyotchilarining mashg'ulotlari qatnashish, hujjatlashtirish ishlari – jumladan, sinf jurnalini yuritish, birkirtilgan sinf o'quvchilarning tibbiy xaritalari va umumiyy ma'lumotlari bilan tanishish, biologiyani o'qitishning moddiy bazasi, ya'ni biologiya xonasining imkoniyatlari – texnik vostitalar bilan jhhozlanish darajasi bilan tanishish, amaliyotchining o'quv ishlarni rejalashtirishi, amaliyotchi-talaba amaliyot davrida o'tishi belgilangan aniq mavzular bo'yicha mashg'ulotlarga tayyor-garlik ko'rish, sinf bilan ishlashda tarbiyaviy ishlar rejası, sinfdan tashqarida bajariluvchi ishlarda ishtirok etish kabilalar nazarda utiladi. Bunda amaliyotchi-talabaning maktabda amalga oshiriluvchi tadbirlarda ishtirok etishi ham rejalashtiriladi, jumladan – anjumanlar, seminarlar, yig'ilishlarda ishtirok etish va ishtirok etilgan mashg'ulotlar va tarbiyaviy tadbirlarni uslubiy jihatdan tahlil qilish amalga oshirilishi belgilangan.

Amaliyotchi talabaning shaxsiy ish rejasining shakli (sxemasi) namunasini keltiramiz:

Amaliyotchi

*(Talabaning familya, ismi-sharifi)
umumiyy o'rta ta'lim maktabda amaliyot davrida*

ning
Amaliyotchi talabaning shaxsiy ish rejasini
umumiyy o'rta ta'lim maktabda amaliyot davrida

1. Titul varag'i.
2. Umumiyy o'rta ta'lim muassasasi biriktirilgan sinf o'quvchi-

3. Dars jadvali.
4. Oq'ng'iroqlar jadvali.
5. Talabaning amaliyot kundaligi.
6. Amaliyotchi talabaning shaxsiy ish rejası.
7. Dars tahlillari daftari.
8. Fan bo'yicha taqvim - mavzuli reja.
9. Dars ishlannmasini loyihalash daftari va dars ishlannmali (10-15 ta).
10. Ochiq dars ishlannmasi foto suratlari bilan (1-2 ta).
11. Mavzular bo'yicha darsning texnologik xaritasi.
12. Murabbiylilik soatları ishlannmali.
13. Tarbiyaviy tadbirlar rejası va ishlannmali.
14. Tayyorlangan didaktik materiallar (tartqatma materiallar, testlar va h.k.)
15. Murabbiylilik uchun birkirtilgan sinfdan 2 ta o'quvchiga psixologik tavsiifoma.
16. Amaliyot davomida amaliyotchi - talaba tomonidan amalga oshirilgan ishlar xisoboti
17. Ta'lim muassasasi tomonidan talabaga berilgan tavsiifoma (direktor imzosi va muhri bilan).

AMALIYOTCHI TALABANING SHAXSIY ISH REJASI				
Nr	Biologiya bo'yicha o'quv ishlari	Biologiya bo'yicha darsdan tashqari ishlari	Tarbiyaviy ishlari	Umumiyy maktab doirasida amalga oshiriluvchi tadbirlar
		1	2	3

Amaliyotchining hujjatlarini rasmiy lashtirish haqida biroz batafsil to'xtalib o'tamiz.

Pedagogik amaliyot davrida va pedagogik amaliyot yakunidan so'ng, talabalar o'z rahbariga o'quvchilar bilan o'quv va tarbiyaviy ishlarni o'tkazishni rejalashtirish va uni amalga oshirish ishlari, kafedra va shuningdek, metodist o'qituvchilari tomonidan belgilangan topshiriqlarni bajarishga oid hujjatlarni taqdim etishlari talab

qilinadi. Ushbu o'rinda qayd qilib o'tish kerakki, bunda hujjatlar ni rasmiy lashtirilish, amaliyot davrida bajarilgan ishlarning sifatini belgilab beradi. Bunda faqat, bajarilgan ishlarning mazmuni va mohiyatini belgilab beradi va metodist rahbarning baholash imkoniyati ni ta'minlab beradi.

Albatta, amaliyotchilar hujjatlarni rasmiy lashtirishda tayyor-garlik ko'rish va uni amalga oshirish bevosita kasbiy faoliyatlarida muhim ahamiyatga ega pedagogik faoliyatiga doir hujjatlarni rasmiy lashtirish ko'nikmalarini o'zlashtirish imkoniyatini berishiga e'tibor qaratishlari talab qilinadi. Albatta, hujjatlarni rasmiy lashtirish *minimum* qiyamatda bajarilishi kerak, biroq no'l qiyamatda emas! Hujjatlarni rasmiy lashtirish joriy va hisobotga oid turda bo'lishi mumkin. Joriy hujjatlarni rasmiy lashtirish – o'z tarkibiga amaliyot-chining har kunlik va har haftalik bajargan ishlari bilan bog'iq holatlarni o'z ichiga oladi. Bunda asosan quyidagilar e'tiborga olinadi:

1. Titul varag'i.
2. Umumiyy o'rta ta'lim muassasasi biriktirilgan sinf o'quvchi-larinin ro'yxati.
3. Dars jadvali.
4. Oq'ng'iroqlar jadvali.
5. Talabaning amaliyot kundaligi.
6. Amaliyotchi talabaning shaxsiy ish rejası.
7. Dars tahlillari daftari.
8. Fan bo'yicha taqvim - mavzuli reja.
9. Dars ishlannmasini loyihalash daftari va dars ishlannmali (10-15 ta).
10. Ochiq dars ishlannmasi foto suratlari bilan (1-2 ta).
11. Mavzular bo'yicha darsning texnologik xaritasi.
12. Murabbiylilik soatları ishlannmali.
13. Tarbiyaviy tadbirlar rejası va ishlannmali.
14. Tayyorlangan didaktik materiallar (tartqatma materiallar, testlar va h.k.)
15. Murabbiylilik uchun birkirtilgan sinfdan 2 ta o'quvchiga psixologik tavsiifoma.
16. Amaliyot davomida amaliyotchi - talaba tomonidan amalga oshirilgan ishlar xisoboti
17. Ta'lim muassasasi tomonidan talabaga berilgan tavsiifoma (direktor imzosi va muhri bilan).

Amaliyotchining kundaligi. Kundalikda amaliyotchi-talabaning maktabda butun amaliyot o'tkazilishi davri davomida bajargan ishlari o'z aksini topishi talab qilinadi. Bundan tashqari, kundalikda biriktirilgan sinf o'quvchilari haqidagi ma'lumotlar, mashg'ulotlar jadvali (dars jadvali), sinfdan tashqari mashg'ulotlar va ma'nnaviy tadbirilar, sinfning va alohida o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlari (metodik, psixologik, pedagogik kuzatishlar amaliyotchining o'zining pedagogik faoliyatni haqidagi fikrlari-mulohazalar, turli xil masalalar bo'yicha takliflar va hakozo) kabi ma'lumotlar qayd qilinadi.

Shunday qilib, amaliyotchining kundaligida uning biologiya o'qituvchisi sifatida ko'rsatuvchi faoliyati o'z aksini topadi (jumladan, uning bilimi, uslubiy va pedagogik ko'nikmali irodalanadi), shuningdek o'quvchilarning faoliyati va bu faoliyatning amaliyotchi tomonidan tashkil qilinishi, mashg'ulotlar bo'yicha qayd qilishlar (ijobiy va salbiy holatlar, kamchiliklar) aks etiriladi.

Pedagogik amaliyotni baholash.

Amaliyotchi-talabaning pedagogik amaliyot davomida bajargan ishlarini hisobga olgan holda,

pedagogik amaliyotdagagi faoliyatini baholash katta ahamiyatga ega. Bunda pedagogik amaliyot yakunlari bo'yicha baholash davomida eng avvalo, bo'lajak biologiya o'qituvchilarning nazariv va amaliy jihatdan biologiya fan sohasi bo'yicha mustaqil pedagogik amaliyot olib borishiga qadar tayyorgarlik darajasi hisobga olimadi, shuningdek pedagogik amaliyot ko'nikmali va malakalarini o'zlashtirish darajasi, jumladan – amaliyotchining kelgusidagi bo'lajak o'z kasbiqa nisbatan munosabati, ta'lim muassasida bilim olayotgan o'quvchilarga munosabati, amaliyotchining metodik seminarlarda ishtirok etishi, uning o'quvchilar bilan amalg'a oshiriluvchi o'quv-tarbiyaviy ishlarga munosabati, amaliyotchi tomonidan amalga oshirilgan mashg'ulotlarning sifat darajasi va hisobot xujjatlarining sifati e'tiborga olinadi.

Amaliyotchi talabaning biologiya fani bo'yicha darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish uchun biologiya fani o'qituvchisi va metodist o'qituvchi tomonidan kelishigan holda baholaydi.

Amaliyotchi - talabaning sinf rahbari sifatidagi tarbiyaviy ishfafoliyati joriy va yakuniy ishlarini hisobga olib sinf rahbari va peda-

gogika o'qituvchisi tomonidan baholanadi.

Yakuniy baholashda. Amaliyotchi – talaba tomonidan bajarilgan o'quv-tarbiyaviy ishlarning samaradorlik darajasi va o'tkazilgan dasr va darsdan tashqari mashg'ulotlarning sifati hisobga olinadi. Bu baholash *pedagogik amaliyot rahbari* tomonidan bajariladi. Bu ishlarning ma'lum darajada amaliyotchi tomonidan bajarilgan barcha qiymatidan iborat bo'лади.

1.3. Amaliyotchilarning huquq va burchlari

Amaliyotchilarning huquq va burchlari o'quvchilarning umumiy huquq va burchlariga muvofiq keladi. Bunda faqat amaliyotchining bevosita maktab o'qituvchisi sifatida faoliyat olib borishi asosida farqlanish kelib chiqadi. Bu holat uning amaliyot rahbari va shuningdek, o'quvchilarga o'zaro munosabatlarida o'z aksini topadi. Qayd qilib o'tish kerakki, bu holatda ularga bo'lgan munosabatda hurmat bilan va ahloq qoidalariga amal qilgan holda (faqat, ismi va familiyasi bo'yicha) muloqotga kirishish talab qilinadi. Amaliyotchi – talaba pedagogik amaliyot davrida o'qituvchi sifatida alohida darajada o'ziga xos shart-sharoitlarda faoliyat olib boradi va uning atrofidagi maktab jamoasi, ularga hamkaslar sifatida muomala qilish tavsiya etiladi.

Amaliyotchining o'quvchilarga bo'lgan munosabatlari ham hurmatga asoslangan holada, aniq va e'tiborli tarzda bo'lishi talab qilinadi.

Amaliyotchi-talabalarning burchlariga aniqlik kiritamiz:

1. Amaliyotchi-talaba nafaqat oly ta'lim muassasasida ichki tartib-qoidalariiga rioya qilishi, balki amaliyot olib boruvchi maktab ichki tartib qoidalariiga ham amal qilishi talab qilinadi: jumladan – maktab ma'muriyati, biologiya o'qituvchisi va amaliyot rahbari tomonidan belgilangan talablarni bajarishi zarur hisoblanadi. Belgilangan tartib-intizomning buzilishi va qayd qilingan talablarning bajarilmasligi vaziyatlarida talaba ishdan (pedagogik amaliyotdan) chetlatilishi mumkin, shuningdek uning kelgusida oly ta'lim muassasasida ta'lim olish masalasi ham qayta qarab chiqilishi belgilanishi talab qilinadi;

2. Maktab va uning ma'muriyati, o'qituvchilar va sinfdagi

OLIV VA DITTA MAXSUS TALIM VAZIRLIGI
TOSHVIENT VILYOYATI CHURCHQ
BAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

o'quvchilar bilan tanishib chiqqandan keyin, talaba amaliyot davrida o'zi bajarishi kerak bo'lган ishlarning amaliyotchining shaxsiy ish rejasini tuzib chiqishi talab qilinadi. Faqat amaliyotchining shaxsiy ish rejasining amaliyot rahbari tomonidan tasdiqlanganidan keyingina, amaliyotchi - talaba tomonidan asosiy burchlarning (majburiyat), ya'ni o'quvchilar bilan mashg'ulotlarni olib borish va boshqa holatlarda isnga kirishishga ruxsat etiladi. Rejaning bajarilishi maiburiy hisoblanib, yakuniy holatda rejaning ma'lum bir qismga oid ulushi emas, balki umumiy bajarilishining sifati baholanaadi;

3. Pedagogik amaliyot davrida talabaning ishlash rejimi haftalik yuklamalar (kuniga 6 soatlik ish kuni asosida) bo'yicha belgilanadi. Kutubxonaga borish, olyi ta'llim muassasasiya borishi, maslahat olish va boshqa jarayonlar uchun ajaratilgan vaqt sinf rahbari bilan kelishilgan holatda amalg'a oshirilishi talab qilinadi;

4. Amaliyotchi mashg'ulotlarni, o'quvchilar uchun darsdan tash-qari tashkilotchiлик faoliyati bo'yicha belgilangan ishlarni sinchiklab o'rganishi, chuqur tayyorgarlik ko'rishi va bajarishi zarrur, shuningdek ichki tartib-qoidalarga rioya qilishi va o'zining mehnatsevarlik nuqtai nazaridan o'rnnak, namuna bo'lishi talab qilinadi;

5. Amaliyotchi – talaba mashg'ulotlarning mavzuli – taqvimiyy reja, tarqatma materiallar va dars ishlammalarini amaliyotchi metodistga taqdim etishi talab qilinadi. Amaliyotchi metodist va makkab o'quv ishlari bo'yicha direktor muovimi tomonidan barcha hujjatlar tасдиqlanadi. Ushbu ko'rinishda ruxsat etishsiz holatda u o'quvchilar bilan ishlash uchun mashg'ulotlarga qo'yilishi mumkin emas;

6. Albatta, amalyotchining shaxsiy ish rejası o'z ichiga talaba tomonidan o'quvchilar va shuningdek, hamkasbleri bilan olib boruvchi barcha turdag'i ishlarini qamrab olmaydi, masalan – umum-maktab doirasidagi o'tkaziluvchi tadbirlarda ishtirok etish, sinf rahbariga ota-onalar majlisini o'tkazishda va o'quvchilar bilan majlis o'tkazishni tashkil qilish va maslahatlar nuqtai nazaridan ko'mak-lashish kabilar rejaiga kiritilmaydi;

7. Maktabda sinf rahbari tomonidan turli xildagi mashg'ulotlar (seminarlar), talabalarning o'qituvchilar bilan uchrashuvlari kabi turli xil tadbirlar o'tkazilishi belgilanishi mumkin. Bunda agar, dasturda talab qilingan bo'lsa, u holda amaliyot rahbari tomonidan o'tkaziluvchi pedagogik amaliyot doirasida bu tadbirlarda talablar

ishtirok etishlari talab qilinadi;

8. Amaliyotchi mashg'ulotlarga va darsdan tashqari o'tkaziluvchi tadbirlarga tayyoragarlik ko'rishda olyi ta'llim muassasasi auditoriya, laboratoriya, kutubxonasi, amaliyot o'tkazilishi belgilangan maktabning kutubxonasi va biologiya xonasidan foydalanish huquqiga ega hisoblanadi, shuningdek nafaqat sinf rahbaridan, balki biologiya o'qituvchisi va olyi ta'llim muassasasining boshqa o'qituvchilaridan maslahat olish huquqiga ega hisoblanadi;
9. Mustasno tariqasida, talaba albatta, kabinet mudiri bilan kelishig'an tartibda, olyi ta'llim muassasasi auditoriya va laboratoriysi da mavjud jihozlardan foydalanish huquqiga ega hisoblanadi;
10. Amaliyotchi oldindan kelishilgan holda, har bir makkab o'qituvchilarining mashg'ulotlarida ishtirok etish huquqiga ega hisoblanadi;
11. Amaliyot davrida talabalarda sinf rahbari yoki biologiya o'qituvchisi bilan o'zaro fikrlarda ziddiyatli holatlar yuzaga kelishi mumkin. Baxsli masalalar fakultet doirasida pedagogik amaliyot o'qituvchilari tomonidan hal qilinadi. Mustasno tariqasida (masalan, pedagogik amaliyot ishi uchun qo'yilgan baholashga rozi bo'lmaslik vaziyatida) bu ko'rinishdagi bahshi masalalar kafedra majlisida yoki fakultet rahbariyati (*dekanat*) majlisida muhokama qilinishi mumkin;
12. Amaliyotchi tomonidan o'tkazuvchi mashg'ulotlar va tadbirlarda o'quvchilarining bilimi va bajargan ishlarni baholash huquqiga ega. Bunda albatta, ehtimolligi mavjud xatolarga ham yo'l qo'yilishi mumkin, shu sababli qatorlarni sinchiklab muhokama qilish talab qilinadi, biroq baholash va uni o'zgartirish faqat amaliyotchi - talaba tomonidan bajariladi;
13. Amaliyotchi – talaba o'zi istiqomat qilish joyida amaliyotni o'tashi (alohida holatlardagi sharoitlarda) huquqiga ega hisoblanadi. Bu holatga ruxsat berishni talabaning arizasiga muvofiq, ushbu alohida darajada qayd qilingan holatni tasdiqlovchi, ilova qilingan xujjalalar asosida amaliyotni tashkil qiluvchi kafedra hal qiladi.

1.4. Mutaxassisliklar bo'yicha metodistning vazifalari

Amaloyotchi metodist amaliyotchi-talabalarga rahbarlik qiladi. Metodist o'qituvchining vazifalari quyidagilar:

1. Pedagogik amaliyotga bag'ishlangan kirish va yakunlovchi konferensiylarida, umumta'lim muassasasi o'tkaziladigan yig'ilishlarda va talaba-amaliyotchilarning metodik kengashlarda qatnashadi.
2. Pedagogik amaliyotchilarni yo'nalish bo'yicha umumta'lim muassasasi o'qituvchilarining ish tajribasi bilan tanishtiradi; shu maqsadda ularning darslarda va darsdan tashqli mashg'ulotlariga pedagogik amaliyotchilarning kirishlarini va ularning muhokamasini tashkil qiladi.
3. Fan o'qituvchisi bilan birlgilikda pedagogik amaliyot davomida pedagogik amaliyotchilar o'tkazadigan darslar, darsdan va sinfdan tashqari mashg'ulotlar mavzusini belgilaydi va uni taqsimlaydi.

4. Darslarga tayyorlanishda pedagogik amaliyotchilarga metodic maslahatlar beradi va bunda ularning har xil shaklda hamda o'quvchilarning faoliyatini faollashtiruvchi xilma-xil innovatsion ta'lim texnologiyalaridan, o'qitishning faol metodlaridan va axborot – kommunikatsion texnologiyalaridan foydalaniib, darslar o'tishga yo'naltiradi; dars jihozlarini hozirlash va ayniqsa etishmaydigan ko'rgazmali qurollarni yasashga o'rgatadi; pedagogik amaliyotchilarning dars uchun tuzgan dars ishlammalarini ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi: fan o'qituvchisi va pedagogik amaliyotchilar bilan birgalikda sinov hamda ochiq darslarini kuzatadi; ularning keng muhokamasini tashkil qiladi va baholaydi.

Bilgiya fani bo'yicha amalga oshiriladigan darsdan va sinfdan tashqli ishlar bo'yicha pedagogik amaliyotchilarga metodik maslahatlar beradi va fan o'qituvchisi hamda pedagogik amaliyotchilar bilan birgalikda bu ishlarni kuzatadi, ularning muhokamasini uyushitradi va baholaydi.

Pedagogik amaliyotchilarning bitiruv malakaviy ish mavzusi bo'yicha kuzatish va tajribalar o'tkazishni tashkil qiladi va ularga rahbarlik qilib boradi.

Pedagogik amaliyotchilar bilan ish olib borishlarida o'quv muassasi o'qituvchilariga ilmiy-metodik jihatdan yordam ko'rsatadi.

Pedagogik amaliyot yakunlari to'g'risida hisobot yozadi va uni oliv ta'lim muassasasida pedagogik amaliyot bo'yicha rahbarga yoki fakultet pedagogik amaliyot rahbariga taqdim qiladi.

Pedagogika kafedrasi o'qituvchisining vazifalari

Amaloyotga bag'ishlangan kirish va yakunlovchi konferensiylar hamda kengashlarda ishtirot qiladi.

1. Pedagogik amaliyotchilar uchun o'quv muassasasi rahbarlariidan bosari va sinf murabiyatlari bilan birlgilikda o'quv muassasasi miqyosida va sinf murabiyatlari sifatida pedagogik amaliyotchilar amalga oshiradiyan tarbiyaviy ishlarni rejalashtiradi.

2. Umumta'lim muassasasi o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinsida va sinf murabiyatlari bilan birlgilikda o'quv muassasasi miqyosida va sinf murabiyatlari sifatida pedagogik amaliyotchilar amalga oshiradiyan tarbiyaviy ishlarni rejalashtiradi.

3. Sinf larda va umumta'lim muassasasi bo'yicha o'tkaziladigan tarbiyaviy ishlarga pedagogik amaliyotchilarni qatnashitiradi va ularning muhokamasini o'tkazadi.

4. Pedagogik amaliyotchilar uchun o'quv muassasasi rahbarlariidan biri – ilg'or va tajribali sinf murabbiyining subbatlarini tashkil qiladi.

5. Pedagogik amaliyotchilarning o'quvchilar bilan tarbiyaviy ishlar olib borishlarini ta'minlaydi. O'z guruhida o'tkaziladigan ma'naviy ishlar rejasini tuzish bo'yicha pedagogik amaliyotchilarga maslahatlar beradi, ularning tarbiyaviy ishlar rejasini va dars ishlammasini tekshiradi, darsdan tashqli mashg'ulotlarni pedagogik amaliyotchilar bilan birlgilikda kuzatadi, ularning muhokamasini tashkil qiladi va baholaydi.

6. O'qituvchilarning individual xususiyatlarini o'rganishda pedagogik amaliyotchi-talabalarga yordam beradi.

7. Pedagogik amaliyotchilarning bosqqa rahbarlari bilan birlgilikda pedagogik amaliyotchilar faoliyatini baholashda qatnashadi.

8. Pedagogik amaliyot davomida pedagogik amaliyotchilar amulga oshirgan ma'naviy ishlar to'g'risida o'z kafedrasiga va olyi ta'lim muassasasi pedagogik amaliyot rahbariga pedagogik amaliyot bo'yicha tegishli ma'lumotlar beradi.

Umumiy o'rta ta'lim maktab direktorining vazifalari:

1. Umumiy o'rta ta'lim maktabida amaliyotchi - talaba o'quvchilar va o'qituvchilar jamoasi bilan o'quv va ma'naviy ishlarni sanarali

tashkil etish va o'tkazilishi uchun zaur sharotiarni yaratadi.

2. Pedagogik amaliyotchilarini umumiy o'rta ta'limga maktabi haqida umumiy ma'lumotlar bilan tanishtiradi. Umumiy o'rta ta'limga maktabi o'quv va ma'naviy ishlarni borishi bilan, maktabning o'quv bazasi (o'quv xonalari, ustaxona, tirk tabiat burchagi, issiqxona, o'quv-tajriba uchastkasi, kutubxona va b.) bilan, maktab kengashlari hamda ota-onalar kengashining ishlari bilan tanishtiradi.

3. Umumiy o'rta ta'limga maktabi bo'yicha pedagogik amaliyot rahbari bilan birga talabalarini sinflarga taqsimlaydi.

4. Pedagogik amaliyotchilarining ayrim darslatini, darsdan tashqari mashg'ulotlarini kuzatadi va ularning muhokamasida qatnashadi.

5. Pedagogik amaliyotning bosqlanishi va oxirida pedagogik amaliyotchilar bilan kengashlar o'tkazadi.

O'quv - ma'naviy ishlar bo'yicha umumiy o'rta ta'limga maktab direktori o'rindbosarlarining vazifalari:

1. Pedagogik amaliyotchilarini umumiy o'rta ta'limga maktabining o'quv - ma'naviy ishlar rejasini bilan tanishtiradi.

2. Pedagogik amaliyotchilar bilan ish olib borishda sinf murabbbiylariga yordam beradi.

3. Pedagogik amaliyotchilar analga oshirayotgan ma'naviy - ma'rifiy ishlarni kuzatadi va ularning muhokamasida qatnashadi.

Fan o'qituvchisining vazifalari:

1. O'ziga biriktirilgan pedagogik amaliyotchilarni ish rejasini bilan va sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'tkazib ko'rsatadi.

2. Metodist bilan birgalikda mutaxassislik fani bo'yicha dars va darsdan hamda sinfdan tashqari mashg'ulotlar mavzularini taqsimlaydi.

3. Dars, darsdan va sinfdan tashqari mashg'ulotlarga tayyorlanishda pedagogik amaliyotchilarga maslahatlar beradi, ularning tuzgan dars ishlammalarini tekshirib, mashg'ulot o'tishga rozilik beradi.

4. Pedagogik amaliyotchilarining mutaxassislik fani bo'yicha dars, darsdan va sinfdan tashqari mashg'ulotlarini kuzatadi, ularning muhokamasini va baholanishida qatnashadi.

5. Pedagogik amaliyotchilarini mutaxassislik fani bo'yicha dars-dun va sinfdan tashqari ishlar bajarishga, ko'rgazmali qurollar tayorlashtirishi va boshqa ta'limga tarbiya xarakterdagi ishlarga jaib qiladi.

6. Pedagogik amaliyotga bag'ishlab o'quv muassasasi direktori qoshida o'tkaziladigan kirish va yakunlovchi kengashlarda, olyi ta'limga muassasasidagi konferensiyalarda qatnashadi.

Sinf murabbbiylarining vazifalari:

1. Pedagogik amaliyotchilarini sinf o'quvchilari, ularning o'zlashtirishi va ahloqlari bilan, asosiy tarbiyaviy vazifalar va o'zining shu chorakka tuzilgan ish rejasini bilan tanishtiradi, ular ular uchun guruh o'quvchilari bilan ochiq tarbiyaviy soat mashg'ulotini o'tkazib beradi.

2. O'quvchilarining individual xususiyatlarni o'rganishda pedagogik amaliyotchilarga yordam ko'rsatadi.

3. Pedagogik amaliyot davomida analga oshirilishi lozim bo'lgan ma'naviy tadbirlarni belgilab olishda pedagogik amaliyotchilarga yordam beradi, ma'naviy ishlar rejasini tuzishda ularga tavsiyalar beradi.

4. Pedagogik amaliyotchilarini sinfdan kundalik tarbiyaviy ishlarga jaib qiladi.

5. Pedagogik amaliyotchilarini analga oshirayotgan tarbiyaviy ishlarni kuzatadi va ularning muhokamasi hamda baholanishida qatnashadi.

6. Pedagogik amaliyotchiga bag'ishlab, umumiy o'rta ta'limga maktab direktori qoshida o'tkaziladigan kirish va yakunlovchi kengashlarda qatnashadi.

II BOB. AMALIYOTCHILARNING MUSTAQIL ISHLARING TARKIBI VA UNI TASHKIL QILISH

Pedagogik amaliyotning bu bosqichida amaliyotchi-talabalar o'zlariga biriktirilgan o'quv sinflarida biologiya fani bo'yicha mustaqil holatda mashhg'ulotlarni amalga oshirishadi.

Biologiya darslariga qanday qilib samarali va sifatli tayyorqarurlig ko'rish mumkin?

Bunda quyidagi maslahatlarni berishimiz mumkin:

1.1. Pedagogik amaliyotchilarning tabiiy – ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish

Jamiyatimiz rivojining hozirgi bosqichi bo'lg'usi mutaxassislar-ning zamon talablariga mos bilim, ko'nikma va malakalarni egal-lashlari barbarida, ularda tayanch va fanga doir kompetentsiyalarni tarkib toptirish, axborotlar globallashuvni davrida keng tabiiy-ilmiy dunyoqarashga ega, xorijagi hamkasblari bilan ijtimoiy hamkorlikka kirisha oladigan, kelgusi faoliyatida innovatsion va axborot texnologiyalardan foydalanish orqali Vatan va fan ravnagiga mu-nosib hissa qo'shadigan barkamol shaxslarni tarbiyalash vazifasini qo'ymoqda.

Mamlakatimizda biologik fanlarning rivoji, fan yangiliklari ni amaliyotga joriy etish orqali qishloq xo'jaligi, dehqonchilik va chovchilikka yangi texnologiyalarning joriy etilishi o'sib kelayot-gan yosh avlodning fan asoslarini chuqur o'zlashtirish, ularni faol aqliy faoliyatga yo'llash orqali har tomonlama rivojlantirishni talab etmoqda.

Yuqorida qayd etilgan vazifalarni bajarish oliv ta'ilim muassasa-salida tashkil etiladigan ta'ilim-tarbiya jarayoniga yuklatilgan bo'lib, mazkuri ta'ilim muassasalarida barcha o'quv kurslarni shu jumladan biologik fanlarni o'qitishda shaxsni har tomonlama barkamol etib voyaga yetkazish, ularning ilmiy dunyoqarashini kengaytirishda ta'ilim mazmuni, o'qitish metodlari, vositalari va shakllarini uyg'unlashtirish orqali ta'ilim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, o'qitishda fanlararo bog'lanishni amalga oshirish zarur. Mazzur muammo yuzasidan tadqiqot olib borish naijasida talabalarda tabiiy-ilmiy

dunyoqarashni rivojlantirish jarayonida metodlarni maqsadga mu-vofiq tanlash muhim o'rinn egallaydi.

Dunyoqarashni rivojlantirishning zaruriy sharti va asosiy vosi-tasi fanlararo bog'lanishni amalga oshirishdir. Fanlararo bog'lanish nazariy material (nazariya, qonun, tushuncha, faktlar) o'zlashtirili-shi natijasida, ko'nikma va natijalar hosl qilinganda va fanga oid muammolar bilan tanishganda analga oshiriladi.

Shaxsni tarbiyalash ishi nihoyatda murakkab jarayon bo'lib, juda qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalg etilgan. Mazzur holat yosh avlod tarbiyasi, uning taskil etilishi mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi. Ushbu vazifalarni amal-ga oshirishni nazarda tutgan holda oliv ta'ilmda o'qitiladigan har bir kursning maqsadi va vazifalarini aniq belgilash, barkamol shaxsni voyaga yetkazishdagi ulushi va o'mini anglash zarur. Shuningdek, har bir kursni o'qitishda foydalananiladigan shakllarda bugungi kun-ning talabi, o'qitish qonuniyatları, prinsiplarini qo'llash, talabalar monidan ilmiy bilishga doir g'oyalar, nazariyalar, qonuniyatlarini amaliyotga tatbiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, davlat va jamiyat rivojining har bir bosqichi shaxs, jamiyat va dav-lating ijtimoiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikavyiy, ma'naviy-ma'rifiy va nuditaniy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda didaktikaning tarixiy va munitiqiy birlikning metodologik principiga muvofiq ta'ilim tizimi oldiga muayyan davlat va ijtimoiy buyurtmalarni qo'yadi. Ushbu davlat va ijtimoiy buyurtmalarni oliv ta'ilmda pedagogik faoliyat ko'rsatayotgan har bir professor-o'qituvchisi angashi va ta'ilim-tarbiya jarayonida ularni amalga oshirish chora-tadbirlarini qo'llashi-zurur.

Shunday qilib, pedagogik amaliyotni tashkil etish va o'tkazish oliv ta'ilim tizimi oldiga quyilgan davlat va ijtimoiy buyurtmalarga muvofiq, ta'ilim-tarbiya jarayonini takomillashtirish uchun quyidagi:
- ma'ruba, laboratoriya va amaliy mashhg'ulotlar, hamda mustaqil ta'ilmi tashkil etishda o'qitishning samarali vositalari va metod-laridan foydalanish;
- ta'ilim mazmuni va pedagogik munosabatlarni insonparvarlash-tirish va demokratlashtirish;

- o'qitishda o'quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlaga hummat, mustaqillik prinsiplari va ona-Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularda ma'naviy va ahloqiy fazilatlarni rivojiantirish yo'llarini belgilash va amalga oshirish;

- o'qitishda o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning mazmuni, vositalari, metodlari va shakllarini aniqlash;

- o'quvchilar ongi va qalbiga milliy istiqlol g'oyasini singdirish mazmuni, vositalari va metodlarini ishlab chiqish;

- ta'lim-tarbiya uzyviliygini ta'minlash, o'qitishda aqliy, ma'naviy-axloqiy, vatanparvarlik, ekologik, estetik, iqtisodiy, jismoniy, gigienik, mehnat va baynalminal tarbiyani amalga oshirish;

- o'quvchilarning bilish faoliyatini maqsadga muvofiq tashkil etish va boshqarish, mazkur faoliyati faollashtirishning samarali vosita va metodlarini, o'quv motivlarini rivojantirish yo'llarini aniqlash, pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalananish;

- o'qitishda amalijiy masalalarga e'tiborni qaratish, o'quvchillarda o'quv, amalijiy va mehnat, ijodiy va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini, atrof muhitga ongli munosabatni tarkib toptirish, ta'limning kasbiy yo'nalishini amalga oshirish;

- o'qitish jarayonida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va mala-kalarini o'zlashtirish darajasini reyting tizimi orqali muntazam nazorat qilish, olingen natijalarga muvofiq o'qitish jarayoniga tegishli o'zgartirishlar kiritish kabi muammolarni hal etish;

- o'quvchilarni fanning nazariy asoslari bilan qurollantirish, barkamol shaxsni shakllantirishning mazmuni, vositalari, metodlari va shakllarini uyg'un tanlash orqali ta'lim samaradorligiga erishish lozim.

Shunday qilib, oly ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayoni yaxlit bo'lib, u ta'lim muassasi oldiga qo'yilgan talablarini amalga oshirishga xizmat qiladi.

2.1. Biologiya fani bo'yicha mavzuli taqvim rejasini ishlab chiqish

O'quv ishlaring samaradorligi va ritm tavsifiga egaligi, mashg'ulotlarning tizimli tavsifga egaligi, biologiya bo'yicha belgilangan dasturlarning bajarilishining sifat darajasi – o'quvchilar-

du egallangan bilimlarning chuqurligi va mustahkamligi – bevosita o'qituvchining o'z ishini rejalshtirishi aniqligiga bog'liq hisoblanadi. Shu sababli, amaliyotchi rejalshtirish ustubiyati va texnikasini o'zlashtirishi, jumladan biologiya bo'yicha mavzuga oid – taqvim rejasini va darslar bo'yicha rejalshtirishni tuzib chiqishni to'liq o'zlashtirishi talab qilinadi.

Rejalshtirishning boshlang'ich xujijatlari maktablarda biologiya bo'yicha o'quv rejasi va o'quv dasturi hisoblanadi. O'quv fanlari bo'yicha zamonaivy o'quv dasturlari shunday holatda tuzib chiqildi, ya'ni bunda ushbu dasturlar taqvim reja sifatida xizmat qiladi, ularning tarkibida mavzuning alohida masalalari bo'yicha o'quv materialining namunaviy taqsimlanishi emas, balki faqat kurs bo'yicha mavzular materiallarning o'rgаниш vaqtı ko'rsatib o'tiladi.

Berigan sinf uchun materiallarning mavzuga oid rejalshtirilishi – bu mashg'ulotlar bo'yicha *tarmoq* sifatidagi masalalarning taqsimlanishi hisoblanib, ushbu ko'rinishda mashg'ulotlar o'zining umumiyligi nuqtai nazaridan quyidagi holatlarni o'z ichiga qamrab oladi: jumladan – yangi materialning bayon qilinishi, uning takrorlanishi, laboratoriya ishlari, tajribalar, ekskursiyalar, uy vazifalari.

Mavzuli-taqvim rejasini tuzish bo'yicha tavsiyalar.

O'qituvchining mavzuli – taqvim rejası – bu fan bo'yicha o'quv jarayonini tashkil qilish imkonini beruvchi asosiy hujat bo'lib, o'quv dasturining qat'iy ketma-ketlikda bajarilishining metodik jihatdan to'g'ri rejalshtirilishini ta'minlab beradi va aralash fan sohalari o'tasidagi o'zaro aloqadorlikni belgilab beradi.

Mavzuli-taqvim rejası quyidagi holatlarda zaruriy hisoblanadi:

- mashg'ulotlarga tayyoragarlik ko'rishda ko'rgazmali qo'llanmalari zaruriyati tug'ilgan sharoitda;

- laboratoriya va amaliyot ishlari, ekskursiyalar va hakozolarni rejalshtirishda;

- dasturning bajarilishi davomida o'quv qismi va predmetga oid tu'rif tavsifiga ega komissiya tomonidan tizimli nazoratning amalga oshirilishida va shuningdek, amaliyotchi – talabalarining bir tekisda yuqulmalari amalga oshirilishida.

Mavzuli-taqvim rejani rasmiylashtirish

Maktab ta'liming zamonaviy rivojlanish bosqichida maktabda mashg'ulotlarda ishtirok etishda mashg'ulotlarni usubiy jihatdan tahsil qilishning quyidagi keltirilgan sxemasidan foydalanimiladi:

Mashg'ulotning metodik tahlili

Ishtirok etish sanasi _____ sinf _____

Fan _____ Mashg'ulotning turi, tipi _____

Mashg'ulot mavzusi _____

Darsga qatnashdi (F.I.SH.) _____

O'qituvchi (F.I.SH.) _____

Mashg'ulot turiga bog'iqliq holatda, 5 balli tizimda baholanadi:

«Mening fikrinchasi»
(Mashg'ulot ishtirokchisining fikrlari)

Ballar
(bosqichlar)

- Materialni aniq va qulay bayon qiladi
- Murakkab masalalarni tushintiradi
- Aсосиyl holatlarni ajratib ko'rsatadi va savollarga javob beradi
- O'quvchilarni chorlash va qo'llab – quvvatlashni biladi
- Auditoriyaning reaksiyasini kuzatib boradi
- Tushintirish davomida o'quvchilarga savollar beradi

7. Materialni bayon qilishda mantiqiy ketma-ketlikka amal qiladi

8. Nuqt madaniyati, diksiya aniqligi, bayon qilishning me'yoriy tempini namoyish qiladi

9. O'zini yuksak eruditisiya egasi sifatida tutadi

10. O'quvchilarda toliqish va zo'r iqishlarni bartaraf qilishni biladi

11. O'rganilayotgan materialdan bo'lajak kasbiy va ijtimoiy faoliyatda foydalananish asosida mo'ljal oladi

12. O'qituvchining mashg'ulotga tayyorlik darajasi

13. Mashg'ulot davomida yordamchi ko'rgazmali materiallardan foydalananish darajasi

14. O'quvchilar bilimini baholasuning obekтивлиги

15. O'quvchilarga nisbatan munosabatlarda bug'rikenglik va hushmuommalilik

16. Chidam va bardoshililik

17. Tatalbchanlik

18. O'quvchilarga hummat bilan munosabatda bo'lish

19. Sinf auditoriyasining tayorligi va faoliigi

20. Mashg'ulot tarkibida tarbiyavyi tafsiga ega turkiy qismlarning mayjudligi

Umumiy ballar yig'indisi

Xulosalar va tavsiyalar

Mashg'ulot ishtirokchisi imzosi

Ilovalar: biologiya bo'yicha mashg'ulotlarni kuzatish va tahlil qilish sxemasi mashg'ulotning tipi va turiga bog'iqliq holatda turli xil-bo'yichi mumkin. Bu yerda nisbatan keng tarqagan – biologiya bo'yicha kombinatsion darsni kuzatish (tahili qilish) sxemasi keltirilgan.

2.6. Amaliyotchilarning biologiya fanidan o'tkaziladigan mashg'ulotlarning metodik tahlili

Shunday qilib, birinchi mashg'ulot! Sizning faoliyatizingizda muhim qadam.

Bunga jiddiy yondoshing! Albatta, hayajonlanish, havotirlanish, uyqusiz tunlar – bularning barchasi tabiiy holat hisoblanadi. ehti-mol, barchasi o'ylanganidek, biroq bari-bir kutilmagan vaziyatlar-dan qochib qutilishning iloji yo'q. Odatda, amaliyotchilar birinchi mashg'ulotda vaqtini noto'g'ri (oqilona bo'lмаган tarzda) taqsimla-shadi, shoshilishadi, ularga huddi ulgurmay qolishadi gandek bo'lib tuyiladi va o'z-o'ziddan mashg'ulotni 10–15 minut oldin tugallab qo'yishlari qayd qilinadi. Bunday vaziyatda bir nechta qo'shimcha mashqlarni tayyorlab qo'yishni maslahat beramiz, jumladan o'quv-chilar bilan jamoaviy tarzda muhokama qilish qiziqarli hisoblangan muammoli savollar, biologik vazifalar va boshoqa tipdag'i masalalar talab qilinadi, ya'ni o'quvchilarni band qilish amalga oshiriladi. Bi-roq, shoshilishhang va mashg'ulotni qat'iy reja bo'yicha amalga oshiring!

Ayrim vaziyatlarda amaliyotchi xatolarga yo'l qo'yadi yoki dos-kaga so'zni noto'g'ri yozib qo'yish holatlari kuzatiladi yoki qanday-dir biologik hodisaming mazmun-mohiyatini noaniq bayon qilishi qayd qilinadi.

Bunday vaziyatda nima qilish kerak?

Eng asosiyisi – hayajonlammaslik kerak! Amaliyotching o'zi yo'l qo'ygan xatoni ko'rishi bilan, tezda uni tuzatishi talab qilinadi. Agar, bu xatoni o'quvchi ko'rsatsa, u holda ham hammasi joyida: dastlab, o'quvchilardan kechirim so'raladi va albatta, ularga minnatdorchilik bildiriladi va yo'l qo'yilgan xato tuzatiladi. Ayrim vaziyatlarda amaliyotchi ham, o'quvchilar ham yo'l qo'yilgan xatoni ilg'amat yoki qolishlari kuzatiladi, shuningdek xatoni ko'rishlari mumkin, biroq o'quvchilar (turli xil fikrashlari asosida) indamay qo'ya qolishlari ham mumkin. Bunday vaziyatda xatoni topish va uni bevosita navbatdagi mashg'ulot davomida tuzatish talab qilinadi, biroq hech qanday vaziyatda bu holatga e'tibor bermay qo'ya qolish kerak emas! Bunda o'zini oqlashga intilish kerak emas: chun-ki odamga xato qilish xos xususiyat hisoblanadi! eng asosiyisi, bu

xutolar tizimli tavsifda odatga aylanib qolmasligi kerak.

Amaliyotchi mashg'ulot davomida endi talaba emas, balki o'zi o'tuyotgan famni yaxshi bituvchi o'qituvchi sifatida faoliyat olib borayotganligini esdan *chiqarmaslik* muhim hisoblanadi, shu sababi o'zining hotirjam tutish va ishonzh bilan harakat qilish talab qilinadi.

Mashg'ulot davomida u yoki bu sabablarga ko'ra, uzilib qolishiga yo'l qo'yimang. Agar, bunday vaziyat yuzaga kelsa, o'zingizni tutib oling, to'xtang va yuzaga kelgan vaziyatdan chiqib ketish haqida fikrlang ehtimol, o'tilayotgan o'quv materialining bir qismini takroran o'tish talab qilinishi mumkin; ehtimol materialni mustahkamlash maqsadida o'quvchilarga savollar berish mumkin, balki juda o'rinli bo'lsa, u holda yo'l qo'yilgan xatoga batafsil to'xtalib o'tish ham mumkin.

Mashg'ulotdan keyin uni muhokama qilish amalga oshiriladi. Birinchi bo'lib amaliyotchi gap boshlaydi: ya'ni, o'zi amalga oshirgan mashg'ulotning maqsadi, rejası haqidá fikrlarini bildiradi va buna-dan uning fikricha nimani amalga oshirishga ulgurganligi va nimaga to'yobga oshirishga ulgura olmaganligi ta'kidlanadi; u o'zi amalga oshirgan mashg'ulotga baho beradi, uning alohida lahzalarini baholaydi; o'zi ko'ra olgan, yo'l qo'yilgan kamchiliklar haqidagi taasurotlarini so'zlab beradi; agar, mashg'ulotni yana qaytadan ikkinchi martu takroran o'tkazish imkonini berilsa, u holda mashg'ulot rejasiga qonday o'zgartirishlar kiritishi mumkinligi haqida to'xtalib o'tadi.

Amaliyotchi tomonidan o'tkazilgan mashg'ulotning o'zi tomonidan tahlil qilinishidan keyin, unga muhokama ishtirokchilari tomonidan savollar beriladi, amaliyotchi ularga javob beradi.

Muhokama yakunida so'nggi xulosalar sinf rabbari tomonidan echiqariladi. U umumiy baholashni amalga oshiradi va quyidagi jihatlariga batafsil to'xtalib o'tadi:

a) Agar, predmetga oid xatoliklar bo'lsa, ularga to'xtalib o'tadi, biologik hodisalar nuqtai nazaridan to'g'ri sharhlarni keltirib o'tadi;

b) Agar, mashg'ulot rejasida yo'l qo'yilgan xatoliklar mavjud bo'lsa, shuningdek mashg'ulotni tashkil qilishda xatoliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa, u holda ularga batafsil holatda to'xtalib o'tadi;

v) Amaliyotching amalga oshirgan harakatlarida kamchiliklar qayd qilinagan bo'lsa, jumladan uning nutqida, biologik tajribalarni

amalga oshirishda, o'quvchilar bilan munosabatlar manyovrida, uy vazifasini berish usulida va boshqa holatlarda kamchiliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa, ushbu kamchiliklar muhokama qilinadi;

g) Shuningdek, mashg'ulotni tahvil qilish metodikasi ishlab chiqiladi;

d) Agar, mashg'ulot davomida o'quvchilarning hulq-atvorida me'yordan chetga chiqish holatlari qayd qilingan bo'lsa, u holda ushbu vaziyatlarga batafs'il to'xtalib o'tiladi.

Amalga oshirilgan mashg'ulotning muhokamasini yakunlari bo'yicha navbatdag'i mashg'ulotlarda hisobga olish yoki tuzatish kiritish kerak bo'lgan tavsiyalar keltiriladi.

Birinchi mashg'ulotning muhokama qilinishi vaziyatdan kelib chiqqan holada, batatsil holada va ko'ngilli tavsiida amalga oshirilishi talab qilinadi, ya'ni bu muhokamaning maqsadi – o'qituvchi bo'lish orzusini shunchaki sindirish emas, balki amaliyotchiga kelgusida o'qituvchi sifatida bo'la jayak kasby faoliyatida yordamlashish dan tashkil topadi.

Biologiya bo'yicha mashg'ulotlarni pedagogik tahvil qilish metodikasini to'liq holatda o'zlashtirishda amaliyotchilarga yordam sifatida, bizning fikrimizcha biologiya bo'yicha mashg'ulotlarning metodik jihatdan tahvil qilinishining oldin keltirilgan namunalar (sxemalari) variantlari o'rinni tutishi mumkin.

Biologiyadan birinchi mashg'ulot amalga oshirilganidan keyin uning tahvil qilinishi va muhokamasi davomida amaliyotchi biologiya o'qituvchisi sifatida biologiyani o'qitishda talab qilinuvchi zaruriy, boshlang'ich ko'nikmalarни o'zlashtirishi qayd qilinadi: ya'ni, u endi mashg'ulotlarni qanday amalga oshirish kerakligi haqida tasavvurlarga ega hisoblanadi, shuningdek mashg'ulotga qanday tayyorgartlik ko'rish, uni qanday o'tkazish kerakligini biladi va ma'lum darajada o'ziga bo'lgan ishonch shakllanadi. Navbatda gi mashg'ulotlarga tayyorgartlik ham birinchisidan kam bo'Imagan darajada jiddiy va sinchiklab yondoshishni talab qiladi: jumladan – kengaytirilgan rejalar, albatta sxemalar, jadvallar bo'lishi, biologiya-da mayjud qonuniyatlardan foydalanish; biologik tajribalarni o'tkazishga mo'ljalangan qurilmalar, didaktik materiallar, ta'lim berish vositalari va boshqalardan foydalanish talab qilinadi.

Amaliyotchi tomonidan ishlab chiqilgan va yozilgan mashg'ulot-

ning dars ishlanmasi sinf rahbari va talaba amaliyot o'tkazayotgan holabalar sinflarida faoliyat olib boruvchi biologiya o'qituvchisi bilan birgalikda muhokama qilinadi. Bu holat mashg'ulotgacha 2-3 kun oldin amalga oshirilishi talab qilinadi, ya'ni bunda amaliyotchi burcha ko'rsatib o'tilgan kamchiliklar va tavsiyalarni hisobga olishiga ulgurishi zarur hisoblanadi. Agar, muhokama amaliyotchining jamodosh kursdoshlari ishtirokida amalga oshirilsa, yanada foydali hisoblanadi.

Mashg'ulotning dars ishlanmasini muhokama qilish davomida amaliyotchi rejalashtirilgan maqsad, vazifalar va o'qitish usulublari ning oldindida turgan biologiyadan mashg'ulotni o'tishda maqsadga muvoqidigini isbotlab berishi talab qilinadi.

Muhokama ko'proq suhabat shaklidida o'tkaziladi. Dastlab, dars ishlanmasi muallifi (amaliyotchi) fikrlari tinglandi, keyin esa – muhokama ishtirokchilari o'z fikrlarini bildirishlari mumkin, bunda ushbu fikr-mulohazalar amaliyotchi tomonidan hisobga olinishi, rad etilishi mumkin, biroq dars ishlanmasiga o'zgartirishlar kiritilishi asoslatab berilishi talab qilinadi, maktabning biologiya o'qituvchisi yoki amaliyotning metodist rahbari tomonidan dars ishlanmasi tasdiqlanadi.

Amaliyotchilarga bizning mulohazali va ezgu maslahatimiz shundan iboratki, ya'ni – o'zingiz tomoningizdan ishlab chiqilgan muvzuli reja va dars ishlanmasining rad etilishiga qarshi to'g'ri-dun-to'g'ri qarshiliik ko'rsatish kerak emas, shuningdek siz uchun nisoslanmagan debo hisoblangan takliflarni qabul qilmasligingiz ham mumkin, axir mashg'ulotni siz amalga oshirasiz va uning sifati uchun aynan, siz javobgar hisoblanasiz! Biroq, qarshiliik ko'rsatmasdan, quyidagi holatlarni qabul qilish o'rinni hisoblanadi:

- Oldindida turgan biologiyadan dars ishlanmasi tarkibida fanga oid qayd qilinagan xato va kamchiliklar (ya'ni, biologiya nuqtai nazaridan yo'l qo'yilgan xatolar va kamchiliklar);
- Biologik tajribani takomillashtirish bo'yicha ko'rsatmalar;
- Nisbatan muvafaqqiyatlari va biologik vazifalarni hal qilishga qaratilgan qarorlar bo'yicha takliflar;

- Berilgan mavzu bo'yicha nisbatan samarali qo'llanilishi qayd qilinuvchi metodlar, o'quv mashg'ulotini tashkil qilish metodlari va ushktlik shakllari.

2.7. Biologiya fani bo'yicha anjumanlar tashkil etish va o'tkazish

Anjumanlar – bu tayyorgarlikning birinchi bosqichi hisoblanadi. Har bir dars qismlar bo'yicha rejalashtiriladi, ushbu ko'rnishda darsga tayyorgarlik ko'rildi. Amaliyotchi-talabalarining umumiyo hotadagi tayyorgarligi davomida o'quv materialiga aniqlik kiritiladi, uni qanday o'tish va mo'ljal olishning qanday amalga oshirilishiga oydinlik kiritiladi. Bunda anjumanning muhim jihatni – bu talabalar va pedagogik amaliyot rahbarlarning ushbu holatarni ko'ra olishlari bilan bog'iqliq hisoblanadi.

Anjumanda amaliyotchi-talabalar va o'qituvchilar tomonidan o'quv masalalari muhokama qilinadi, ularga uslubiy jihatdan tayyor-garlik ko'rish va biologiya bo'yicha mustaqil holatda mashg'ulotlarni o'tishga tayyorgarlik ko'rishda talabalarning bilim darajasiga aniqlik kiritiladi. Anjumanda talabalarning baholanishi amalga oshirilmaydi, biroq ularning umumiy bilimlari darajasiga tavsif beriladi. Amaliyotchi asosiy ishga tayyorgarlik ko'rish bilan parallel holatda anjumanga ham tayyorgarlik ko'radi. U maktabda belgilangan aniq sinfling biologiya o'qituvchisi bilan birgalikda o'zining qanday aniq materialni o'tishi va unga qancha saat ajratilganligiga aniqlik kiritib oladi, o'z navbatida o'zining bilimlarini ushbu mavzulami o'rganishga yo'naltiradi.

Anjuman qanday o'tkaziladi?

Bu savol metodist o'qituvchi tomonidan hal qilinadi, biroq quyidagi asosiy holatlarni ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

- Maktabda 5 – 11 sinflarda ta'lif oluvchi o'quvchilar sinflari bilan ish olib boruvchchi talabalar sinflarga ajratib chiqiladi;
- Yuqorida keltirilgan tegishli sinflarda o'rganiluvchi materiallar muhokama qilinadi, bunda nisbatan o'quv materialining murakkab tafsifga ega masalalari qarab chiqiladi.

Anjumanni o'tkazish vaqt 2 soatni tashkil qiladi. Anjumanni o'tkazish shakli – rahbarning amaliyotchi-talabalar bilan suhbatidan tashkil topadi. Anjuman davomida amaliyotchilardan kim yaxshi-roq tayyorgarlik ko'rganligiga aniqlik kiritiladi. Anjuman davomida suh-bilim darajasi yetarlicha bo'limgan talabalar bilan qo'shimcha suh-batlar o'tkaziladi.

Pedagogik amaliyotga bag'ishlangan anjumandan keyin faol holtdagi pedagogik amaliyotga o'tiladi, ya'ni dasturda belgilangan tartibda, biologiya bo'yicha barcha mashg'ulotlarni amalga oshirishga kirishladi, navbatdagi qismida har bir o'tilgan mashg'ulotning metodik jihatdan tahlil qilinishi amalga oshiriladi va yakuniy natijalar bayonnomma tarkibida qayd qilinadi. Biologiyani o'qitish metodikasi kursining umumiy masalalari bo'yicha anjuman talabalarda bilimlarning mustahkamlanishi va ularning maktabda biologiyani o'qitishga tayyorgarlik darajasini tekshirish maqsadida amalga oshiriladi. Bu anjuman davomida pedagogik amaliyot rahbari tomonidan talabalarga tegishi yordam berilishi amalga oshiriladi.

Anjuman oldidan talabalarga namunaviy savollar beriladi, jumladan:

- Umumiy o'rta ta'lif maktablarida biologiya fanini o'qitishda qanday metodlar va texnologiyalardan foydalaniлади?
- Biologiya o'qitish metodikasi, umumiy didaktika va psixologiya kurslari o'rasisidagi o'zaro aloqadorlik;
- Maktabda biologiya fanining maqsad va vazifalari;
- Biologik tushunchalar, maktabda biologiyani o'qitish jarayonida ushbu tushunchalarini shakllantirish uslubiyati;
- Maktab va maktablarda biologiyani o'qitish metodikasi (so'zlar vostitasida, ko'rgazmali, amaliy tavsifa);
- Biologiyani og'zaki o'qitish metodikasi (subhat, tushintirib berish, hikoya, ma'ruza), ularning o'ziga xos xususiyatlari;
- Biologiyani o'qitish jarayonida o'quvchilarda tafakkurlashni shakllantirish va rivojlantirish uslubiy usullari (induksiya, deduksiya, analogiya, model va boshqalar);
- Maktabda biologiyani o'qitish jarayonida muammoli o'qitish uslubi;
- Maktabda biologiya xonasi, biologiyani o'qitishda biologiya xonasiidan oqitona tarzda foydalanish imkoniyatlari;
- Biologiya fani bo'yicha ko'rgazmali taqdimotlarga tayyorgarlik ko'rish va ularni amalga oshirish texnikasi va metodikasi;
- Biologiya fani bo'yicha laboratoriya mashg'ulotlari, biologik amaliyot, frontal tafsifga ega laboratoriya mashg'ulotlari, biologik amaliyot,

uy kuzatishlari, tajribalar, ularni amalga oshirishni tashkil qilish va ushubiyati;

12. Darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'tkaziladigan tajribalar va kuzatishlar, ularning biologiyani o'rganishdagi ahamiyati;

13. Rasmilar, sxemalar, jadvallar, plakatlar – ulardan o'quv tarbiyaviy jarayonlarda foydalananish metodikasi;

14. Biologiyada o'qtishning o'quv vositalari;

15. Biologiya fani bo'yicha vazifalar, ularning o'quv jarayonidagi roli va o'mni, biologik vazifalarning tasniflanishi, biologik vazifalarni hal qilish usublari va ularni yechish usullari;

16. Biologiya o'qituvchisining ish rejasi;

17. Biologiya fani bo'yicha o'quvchisining darsga tayyoragarligi;

18. Biologiya fani bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini tashkil qilish, biologiya darsiga o'qtuvuchining tayyorgarligi;

19. Biologiya fani bo'yicha o'quv mashg'ulotlarining tashkil qilinishi; biologiya bo'yicha darslarning tiplari va tuzilishi;

20. Biologiya fani bo'yicha darsdan tashqari va sinfdan tashqari mashg'ulotlarga tayyorgartlik ko'rish va o'tkazish metodikasi;

21. Biologiya fani bo'yicha o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish va baholash;

22. Biologiya fani bo'yicha o'quvchilarning mustaqil ishlashini tashkil qilish;

23. Biologiyani o'qitishda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantrish.

Albatta, anjuman davomida keltirilgan ushbu masalalarning bar-chasini muhokama qilish mumkin emas, biroq ularga tayyorlanish talab qilinadi! Agar, ulardan bir qismimi muhokama qilish amalga oshirilsa, u holda bu juda yaxshi holat hisoblanadi. Muhokama qilish jarayoni davomida amaliyotchi-talabalar ularning maktabga qanday maqsad va vazifalar bilan kelganligiga oydinlik kiritib olishlari his qilinishi, anglab yetiliishi zatur hisoblanadi.

Anjuman ko'ngilli tarzda amalg'a osdirilishi va hech qanday holatda *imitixon* shakliida o'tkazilishi kerak emas! Uning asosiy vazifasi – bu talabalarga biologiyani o'qitish metodikasi kursini eslatib o'tish, ularni faol tarza ishlashtirish, rublantirishdan tashkil topadi.

Anjuman davomida turli xil dars turlari muhokama qilinishi

mumkin. Biologiyada darslarning tasniflanishi turli xilda amalga oshirilishi mumkin, ushbu holatga bog'liq ravishda ayrim ma'lumotlarni kettirib o'tamiz.

1. Didaktik maqsadlarga bog'liq holatda darslar quyidagi turlarga ajratiladi:

a) Yangi materialni o'rganish;

b) Ko'nikma va malakalarni shaklantirish;

v) O'quv materialini takrorlash va mustahkamlashi;

g) Bilimlarni tizimga solish va umumlashtirish. Bu dars turi mavzu bo'yicha kirish, yakunlovchi xulosalar chiqarish, oraliq tavsifa bo'lishi mumkin;

d) Bilimlarning nazorat qilinishi.

2. O'qtuvchi va o'quvchilarning o'zaro munosabatlariiga bog'liq holatda darslar quyidagi turlarga ajratiladi:

a) Ma'ruzalar;

b) Seminarlar;

v) Anjumanlar;

g) Sinov-imtihonlari;

d) Nazorat ishlari;

e) Laboratoriya ishlari;

j) Turli xildagi vazifalarini yechishga qaratilgan, jumladan – eksperimental vazifalar echimiga yo'naltirilgan darslar;

z) O'yin-darslar (QVZ, viktorinalar, onlayn o'yin darslar va boshqalar);

d) Onlayn darslar;

k) Turli xi dars shakllarini o'z ichiga qamrab oluvchi kombinatsion dars shakllari.

Amaliyot ishlari davomida bir nechta dars turlari o'zaro birlashtirilishi mumkin, bu holatga siz pedagogik amaliyot davomida guvoh bo'llishingiz mumkin, biroq asosiy dars shakli sifatida siz – *kombinatsion* darsni tanlashingiz mumkin.

So'nggi vaqtarda o'quv adabiyottarda va maktab amaliyotida o'qituvchilar tomonidan dars o'tishda zamonaeviy, noan'anaviy dars o'tish turidan foydalananish qayd qilinadi, bunda quyidagi keltirilgan ikkita tarkibiy qismilarning qamrab olinishi talab qilinadi:

a) Axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanan (video texnikalar, komp'yuterlar, onlayn darslar);

b) O'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro munosabatlarda alohida tavsifga ega holatlar qayd qilinishi, bunda *monolog* emas, balki *dialog* ustuvorligi, o'qituvchining dars davomida o'quvchilarida bilish faoliyatining tashkilchisi sifatida o'rın tutishi qayd qilinadi.


Anjuman yakunida amaliyotchilar biologiya o'qituvchisi sifatida o'zlarining qanday tayyorgarlikka egaligini his qilishlari talab qilinadi.

2.8. Umumiy o'rta ta'lím maktablarida biologiya xonasini o'rganish

Maktabda biologiya xonasi bilan tanishib chiqish davomida amaliyotchi aniqlik kiritishi talab qilinuvchi masalalarini ajratib ko'rsatamiz.

Biologiya xonasi – bu maktabning alohida ajratilgan bolimasi bo'lib, unga alohida maxsus xona ajratilgan va bu xona ko'rgazmali qurollar, o'qitishning texnik vositalari va boshqa vositalar bilan jirozlangan, shuningdek tirik tabiat burchagi (o'simliklar va hayvonlar bilan birgalikda) tashkil qilingan xona hisoblanadi.

Biologiya xonasida mashg'ulotlar, simidan tashqari va fakultativ mashg'ulotlar o'tiladi, ayrim holatlarda esa – tarbiyaviy ishlar ham o'tiishi nazarda tutilgan.



I-rasm. Maktab biologiya o'quv xonasi.

Xona – bu biologiya o'qituvchisi uchun uning kasbiy mahoratini oshirish maqsadi amalga oshiriluvchi laboratoriya ham hisoblanadi.

Quyida talabalar tomonidan pedagogik amaliyotning muvafaqqiyatli amalga oshirilishi uchun ayrim tavsiflarni keltiramiz.

1. *Maktabda biologiyaxonasining tuzilishi.* O'quv fani predmetlari xonalarini turli xil tuzilishga ega hisoblanadi. Bu shart-sharoitlar, bu xonada ishlarni tashkil qilish, jihozlar va qurilmalarning mayjudligi va boshqa holatlar bilan belgilanadi.

Biologiya xonasining tuzilishi – biologiya kursining turkibi bilan belgilanadi, ikkinchidan – texnika havfsizligi qoidalari va mehnati ilmiy tashkil qilish talablari asosidan kelib chiqib belgilanadi, uchinchidan esa – qarab chiqilayotgan maktabning o'ziga xos tarkibiy tuzilishi asosida belgilanadi: ya'ni, maktabda umumta ta'lím tavsifidagi yoki differentsial (ma'lum bir fan sohasi predmeti bo'yicha chuquq bilim beruvchi) ta'lím berilishiga bog'liq hisoblanadi. Bundan tashqari, bizning Respublikamizda akademik maktablar va kasb-hunar kollejları, xususiy maktablar va boshqa turdagı ta'lím muassasaları tashkil qilingan.

Barcha tipdagı maktablarda biologiya xonasi o'ziga xos tavsiflauga ega hisoblanadi. Biroq, talabalarning ko'p qismi maktablarda pedagogik amaliyotni amalga oshirishlaridan kelib chiqib, aynan ushbu turdagı ta'lím muassasalarida biologiya xonasining tuzilishining o'ziga xos jihatlarini qarab chiqamiz.

So'nggi vaqtarda ko'pincha holatlarda biologiya xonasining 2 ta xonadan tashkil topganligi qayd qilinadi: jumladan – xususiy biologiya xonasi (laboratoriya-sinf) va laborantlar uchun xona tashkil qilinadi. Laboratoriya-sinfda o'quv mashg'ulotlari amalga oshiriladi (80 minut davomida), tajribalar ko'rsatiladi, laboratoriya mashg'ulotlari o'tkaziladi, laborantlar xonasida esa – mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'riladi, bu yerda turli xil asboblar, mashg'ulotlarni o'tkazish uchun kerakli boshqa materiallar saqlanadi.


Amaliyotchilar biologiya xonasini qarab chiqishlari va o'zlarini uchun xonaming tuzilishiga aniqlik kiritib olishlari talab qilinadi, ya'ni bu holat biologiya o'qituvchisi yoki pedagogik amaliyot rahbariga yordam beradi.

2. *Biologiyaxonasidagi jihozlar.* Eslatib o'tamizki, xona maktabda biologiya kursini o'tish dasturiga mos keluvchi tarzda jihozlanadi va biologiya bo'yicha zamonaviy darslarning barcha tiplarini o'tish, barcha turdagı biologik tajribalar va ko'rsatib berishlarni amalga oshirish uchun to'liq imkoniyatga ega bo'lishi talab qilinadi.



Amaliyotchi biologiya xonasining jihozlarini o'rganishi asosida, birinchi navbatda – o'qituvchi, laborant, o'quvchilarining xonada «*harakatlanish zonasi*» deb nomlanuvchi sohalarga e'tibor qaratishi talab qilinadi.

Qarab chiqishni xonada joylashgan mebellarni dan boshlaymiz. O'qituvchining harakatlannish zo-nasida joylashgan asosiy mebel' – **taqdimat stoli** hisoblanadi. Unga elektr tarmog'i, gaz tarmog'i, oqib chiqib ketishi ta'minlangan suv oqimi ulanadi. Bu stolning yaqinida boshqariluvchi (qo'lda yoki avtomatik tarzda) taqdimat ekranini (*proektor*) o'matiladi, bunda taqdimat tasviri yaxshi ko'rinishi uchun soya (qorong'u) sharoitni yuzaga keltirish uchun derazalarning to'silishi, proektor qurimalari, o'quvchilar stoliga elektr kuchlanish tarmog'ining uzatilishi ta'minlangan shakaflar o'matiladi.



3-rasm. Laboratoriya jihozlari.

Amaliyotchi-talaba o'qituvchining ish joyida elektr, gaz va suv ta'minoti tarmoqlarining o'matilishi holatini o'rganib chiqishi talab qilinadi, ularni boshqarishni o'zlashtirish, shuningdek elektr kuchlanishini taqsimlovchi to'siq yoki quvvat manbai qarda joylashganligiga aniqlik kiritishi, xonada elektr ta'minotini o'chirish va yoqishni o'rganishi, audio va video texnikalarni ishga tushirish va o'chir-

ishni o'rganishi, sinf xonasida o'matilgan doskadan foydalanishni sinovdan o'tkazishi, unga bo'r bilan yozib ko'rishi, proektor ekranini ko'zdan kechirishi, uni yuqorida va pastga tomon yo'nalishda harakatlantirishni o'rganib olishi, derazalarning to'silishini o'rganib chiqishi, uni boshqarishni o'zlashtirishi, xonada qanday proektion qurilmalar mayjudligini tekshirib chiqishi, ulardan qanday foydalanish kerakligini bilishi va hakozo holatlar talab qilinadi.


Shuningdek, bevosita tezda laboratoriya ishlari uchun kerakli qurilmalar bilan tanishib chiqishni *maslahat* beramiz. Agar, siz ushbu jihozlardan foydalanishni to'liq o'zlashtirmaagan bo'lsangiz, u holda dars davomida ularidan ishonchszilik bilan foydalanayotganligingizni o'quvchilar tezda ilg'ab olishadi.

Amaliyotchiga barcha narsalarni diqqat-e'tibor bilan o'rganib chiqish tavsija qilinadi, tajribalarini o'tkazish uchun mayjud bo'lgan barcha narsalarni bir qarashdayoq tafakkur yuritgan holda o'rganib chiqish, jumladan – qurilmalar, asbob-uskunalar, moslamalar, nashr qilingan, audio ko'rgazmali qo'llannalar, elektron hisoblash texnikasida taqdirm etiluvchi qo'llannalar va biologiya bo'limlari bo'yicha o'zi darsda o'tishi talab qilingan, o'tiluvchi mavzuga oid boshqa jihozlarni diqqat bilan o'rganib chiqishi zarur hisoblanadi.

Sizga *mashhat* beramizki: biologiya xonasida laboratoriyyada laborantiga barcha ishlarda yordamlashing. Bu holat amaliyotchi harta faol bo'lishga va shunchaki kuzatuwchi *spozasi*da turib qolmaslikni ta'minkaydi.

Ushbu o'rinda qo'shimcha qilish mumkinki, har bir o'qituvchining har doim o'ziga xos farqlanuvchi nimasidir mayjud bo'lishi kuzzatiladi, masalan – didaktika usubi, kodogramma, qandaydir qurilmalari, Shuningdek tajribalarini amalga oshirishda o'ziga xos takrorlarni uslubiyati mayjud bo'llib, ularning barchasini o'zlashtirish va o'zingizning shaxsiy tajribangizni boyitishda foydalanishga harakat qilish.

- o'quvchilarning joyiga o'tirib ko'ring;
- o'qituvchi stoliga o'tiring va xonaga nazar soling. Agar, o'qituvchi stoli mavjud bo'lmasa, u holda taqdimot stoliga o'tiring;
- taqdimot stoliga qandaydir qurilmani joylashtirin, qandaydir boshqa qurilma bilan uni boshqarib ko'ring.



2.9. Amaliyotchilar tomonidan o'quv faoliyatini tashkil qilishda biologiya xonasining imkoniyatlaridan foydalanish

4-rasm. Biologiya o'quv laboratoriya xonasi.

Laborantning harakatlanish zonasini albatta, laborant xonasini bo'lib, bu erda barcha ko'rgazmali, taqdimot anjomlari joylashdirilgan va o'qituvchining hamda laborantning ish joyi jihozlanganligi qayd qilinadi.

Laboratoriya-sinfda o'quv jarayonida o'quvchilarning *harakatlanish zonasini* sifatida elektr kuchlanish ta'minotiga ega bo'lgan stolar o'rnatilgan. Bunda ushbu stollarda o'tirgan holatda, xonaning o'quvchilar joylashgan joydan turib ko'rinishini qarab chiqishi maslahat beramiz. Xonada ko'proq vaqt davomida bo'ling va xona bo'ylab yuring, uni qarab chiqing, ya'ni – agar, ushbu xonada siz o'qituvchi sifatida faoliyat olib borsangiz o'zingizni qanday tutishin-gizni his qiling. Taqdimot stoli joylashgan sahna sohasiga chiqing va o'qituvchining stoliga o'ting. Siz harakatlanayotgan xonaning poliga e'tibor qaratting. Tagida sim tarmoqlari o'rnatilgan, shuning-dek zinalar joylashtirilganligiga diqqat-e'tibor qiling, mashg'ulotni amalga oshirish vaqtida ularga tegib ketmang.

Yakuniy holatda xona bilan tanishishda quyidagi maslahatlarga amal qilishni tavsiya qilamiz:

- unga apparat xonasidan kirib keling;
- elektr tarmog'ini yoqing;
- ekran, qorong'u sharoitini xosil qilish, proeksiyon adabiyotlar bilan ishlashni o'rgaming;
- doskadan foydalananish, unga yozish va yozuvlarni o'chirishni mashq qiling;
- laboratoriya jihozlari joylashgan shkafni o'rganib chiqing;

Amaliyot tajribalari ko'rsatischicha, o'qituvchilar tomonidan amalga oshiriluvchi ayrim mashg'ulotlarda o'quvchilar shunchaki nofaol holatdagagi tinglovchilar va kuzatuvchilar rolini bajarishlari qayd qilinadi, turli xil bilimlar manbalari, jumladan biologiya xonasida mayjud bo'lgan o'qitish vosittalaridan foydalangan holatda, mustaqil faoliyat asosida mashg'ulotlarning tashkil qilinishida esa – albatta, o'qitishning samaradorligi sezilarli darajada yuqori bo'ishi kuzatiladi.

Jihozlangan biologiya xonasida o'quvchilarning o'quv faoliyatini tashkil qilish haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz. O'qituvchilar va

amaliyotchilarning bajaruvchi ishi asosini yoppasiga (frontal), sinf holida va yakka tartibdagi uslublarda turli xil turda tashkil qilinuvchi o'quv faoliyat davomida o'quvchilar tomonidan bosqichmabosqich bilim va ko'nikmalarining o'zlashtirilishi tashkil qildi va bunda biologiya xonasida mayjud bo'lgan barcha jihozlar, qurilmalar, didaktik vositalardan foydalaniildi.

Biologiya xonasida yaratilgan o'quv-uslubiy majmua quyidagi keltirilgan to'rtta asosiy vazifalarini hal qilishga yo'naltiriladi:

- Nazariy bilimlarning etakchi rol o'ynashi va o'quvchilar tomonidan o'zlarining o'quv jarayonida ishtirok etishlarini anglab etishlari asosida, o'rnatiluvchi materiallarning yuqori darajada marakkablikda va tezkor tempda, ilgarilab ketuvchi va rivojlantriluvchi tavsifda o'qitilishi tamoyillarini ro'yobga oshirish;
- Tarkibida yang materiallarning o'rganilishi, mustahkamlanishi va takrorlanishini qamrab oluvchi topshiriqlar mavjud bo'lgan ko'rsatmali kartochkalar bilan mustaqil ishlash asosida, o'quvchilarning butun o'quv faoliyatini aniq rejalashtirish va tashkil qilish;

v) Nazariy masalalarini o'rganishda o'quvjarayonining ko'rgazmali tarzda olib borilishi uchun, tabiiy, audiovizual va tasviriy vositalar assosida o'quvchilarning faol tarzda ishga jalg qilinishini maksimal darajada to'liq ta'minlash;

g) O'quvchilarga yomon baholarni tuzatish imkoniyatini berish orqali, har bir o'quvchining o'quv faoliyatini doimiy ravishda va ko'p tomonlama nazorat qilishni analga oshirish; o'quvchilarda o'quv jarayoni davomida bir-biriga ko'maklashishni rivojlantrish, o'zi bajargan mehnatning javobgarlik va ma'suliyatini his qilishni o'rnatish.

Biologiya xonasida mavjud bo'lgan o'quv-uslubiy majmua o'ztarkibiga tipga oid o'quv vositalari, jumladan tabiiy obektlar, model-lar, proektor, noutbuk, o'quv qo'llanmalar, shuningdek o'quvchilar tomonidan ishlab chiqilgan yoki metodik adabiyotlar bilan muvoqilidagi materiallar: jumladan – didaktik kartochkalar, planshetlar; so'rovnomalar, biologik masalalar va testlar to'plamlari; biologik trenajorlar va boshqalarni qamrab oladi.

Biz biologiya xonasi asosida pedagogik amaliyot davri davomida o'quv jarayonini qanday tashkil qilish haqida qisqacha to'xtolib

o'tamiz.

Dastlab, maktabda o'qitiluvchi biologiya fani mavzularining biologiya o'quvchisi (yoki amaliyotchi) tomonidan o'qitilishida sinfd a o'quvchilar o'rganishi talab qilinuvchi nazariy masalalar to'yxati bilan tanishtilridi. Shuningdek, nazariy materialni yaxshiroq o'zlashtirish va olingan bilimlarni mustahkamlashda o'quvchilarga yordam beruvchi, bajarish talab qilinuvchi – amaliyot ishlari va nazorat topshiriqlari, bundan tashqari o'rganiluvchi mavzu bo'yicha belgilangan topshiriqlarning bajarilish muddatlariga aniqlik kiritiladi.

O'quvchilarning yangi mavzuning nazariy materiallari bilan tanishishidan keyin amaliy mashq'ulotlarga o'tiladi. Bu mashq'ulot asosan, ma'ruza, suhbat, o'quvchining hikoyasi orqali analga oshiriladi va turli xil ko'rgazmali q'llammalar va ekranga olib chiqiluvchi vositalar (kinofilmlar) ko'rsatilishi bilan birgalikda olib boriladi, bunda o'quvchilar va amaliyotchi-talabalari o'zlarining tushintirib berishlari davomida ushbu vositalardan nafaqat tasvirlar sifatida foydalananishadi, balki o'quvchilarning mustaqil holatda bilim olish mambalari sifatida foydalananishlari qayd qilinadi.

Mavzuga oid nazariy masalalarining alohida qismlar bo'yicha o'rganib chiqilishidan keyin, o'quvchilar darsliklar, qo'shimcha adabiyotlar, tabiiy obektlar va boshqalar bilan mustaqil ishslash jarayonida o'z bilimlarini qo'shimcha kengaytiradi. O'quvchilarning mavzuga oid alohida masalalar ustida ishlashlari davomida o'quvchilarning tomonidan og'zaki yoki yozma shaklda, sinf holida yoki yakka tartibda o'quvchilarning bilimlarini tekshirish amalga oshiriladi.

Bu ko'rnishdagi tekshirish davomida boshqa o'quvchilarning topshiriqlari to'g'ri bajarganliklarini tekshirib ko'rishlari uchun, «*a'llo»* baho olgan o'quvchilarga o'quvchichi tomonidan boshqa sinfdoshlarining e'tiborini jalg qilish amalga oshiriladi.

Mavzubo'yicha yakunlovchi tavsifga ega bilimlarning tekshirilishi dasturlashtirilgan topshiriqlar, testlar, trenajorlar, yozma diktant, savollarga kengaytirilgan tarzda javob berish va boshqa tipdagi topshiriqlar yordamida yoppasiga (frontal) amalga oshiriladi. Ushbu o'quv faoliyatining turlarini turli xilda ko'paytirish mumkin. Masalan, katta sinf o'quvchilari (akademik maktablarda kurslar sinflar deb nomlanadi) uchun maktab biologiya kursi bo'yicha o'qitiluvchi va nazorat qiluvchi kompyuter dasturlari majmualarini

tuzib chiqish mumkin.

Misol sifatida, o'quvchilarining ayrim faoliyat turlari uchun biologiya xonasasi jihozlari tarkibiy elementlari va alohida ko'rgazmali visitalardan foydalananisini qarab chiqqaniz.

1. Jadvallar, tayanch ishlammalar bilan ishlash. O'qituvchi tomonidan yangi materialning tushintirilishiha, shuningdek o'quvchilar bilan materiallarni mustahkamlash va takrorlash ishlari bajarilishi davomida ko'pgina holatlarda, bordaniga bir nechta jadvalni ko'rsatish zaruriyati yuzaga keladi. Bu maqsadda biologiya xonasida doskaning yon tomoni bo'yab, proektorlar o'matilgan bo'lib, ular orqali prezentsatsion materiallarni, sxemalarni, video lavhalarni va jadvalarni ko'rish mumkin. O'quvchilar tomonidan turli xil obektlarni o'zaro solishtirish topshiriqlarining bajarilishi uchun, masalan – umurtqali hayvonlarning skletini solishtirish uchun jadvallarning sinf xonasida bu tartibda joylashtirilishi shunchaki zaruriy holat hisoblanadi.

O'quvchilar tomonidan o'rganilayotgan mavzu bo'yicha asosiy nazariy bilimlarning eslab qolinishini osonlashtirish uchun, ishlab chiqilgan va tayyorlangan ishlammalardan foydalaniлади.

2. Tabiiy obektlar bilan ishlash. Biologiya mashg'ulotlarda o'quvchilarining bu turdag'i o'quv faoliyati bizning fikrimizcha, nisbatan muhim ahamiyatga ega hisoblanib, bunda biologiyani o'rganish obektlar tasvirlarini jadvallar tarkibida qarab chiqisiga va se-miotik tavsiifa ega simvollar orqali eslab qolishga asoslanmasligi kerak. O'quvchilarining tabiiy, tirik va qotirilgan materiallar bilan ishlashini 4–6 kishidan tashkil topgan sinflar shaklida tashkil qilish tavsuya qilinadi. Bu ko'rinishda ishlashni amalga oshirishni ta'minlash uchun amaliyotchi-o'qituvchi organizmning tashqi va ichki tuzilishini o'rganish, o'simliklar va hayvonlarni aniqlash bo'yicha, mikropreparatlar bilan ishlash bo'yicha va boshqa holatlар bo'yicha bir nechta kompekslardan taskkil topgan ko'rsatmali topshiriq kartochkalarini tayyorlashi talab qilinadi.

Bunda amaliyotchilar tomonidan o'quvchilarining biologiya xonasida mayjud bo'lgan xona o'simliklari bilan ishlashlariga katta e'tibor qaratish talab qilinadi, bunda o'simliklar sistematikasi bo'yicha o'quv ishlarini olib borishda isjni tashkil qilish uchun zaruriy holat sifatida xona o'simliklari «pasport» deb nomlanuvchi

yordiqlar bilan ta'minlangan tartibda tizimlashtirilishi talab qilinadi.

3. Darsliklar, qo'shimcha adabiyotlar va biologiya o'quv xonasida mavjud bo'lgan stendlar bilan ishlash. O'quvchilarining darslik matni va rasmlari, ma'lumotnomalar va ilmiy-ommabop adabiyotlar mustaqil holatda ish olib borishlari dars davomida va darsdan tashqari vaqtida amalga oshirilishi mumkin. O'quvchilarining ushbu ma'lumotlarni tayyorlashda olinuvchi axborotlar dars uchun xabarnoma-ma'lumotlarni tayyorlashda foydalaniлади. Keyin esa – ushbu ma'lumotlarni komp'yuterda matn ko'rinishida terib chiqiladi va alohida rasmlar bilan birgalikda yopishtiriladi. Mavzular turli xilda bo'lishi mumkin, masalan – «Biotexnologiya qishloq xo'jaligida», «Kasal okean», «O'simliklarning gerbetsidalar yordamida muhofaza qilinishi foydalimi yoki zararlimi?», «Xotiraning siri», «Uzoq umr ko'rish masalasi», «Biosfera havf ostida» va boshqa shu kabi mavzularda tashkil qilinishi mumkin. Stendlar o'matilgan, maxsus oyina rusumidan (organik shisha) ishlangan cho'ntakcha sohalariga joylashtiriladi. Shuningdek, organik olanning evolyutsiyasiga huq'ishlangan – «Asrlar qa'ridan sado» mavzusi ostida materiallar to'plamini tayyorlash mumkin. «Tabiat va resurslary», «Ularni saqlab qolish mumkin» kabi nomlangan stendlarda tabiyu jamoalarning muhofaza qilinishi va ulardan odam tomonidan oqilona foydalanimusalarini haqida gap ketadi.

Bayon qilingan ma'lumotlarga qo'shimcha tarzda qayd qilish numukinki, darsni qiziqarli tashkil qilish uchun ayrim «*kitilmagam*» holatlар ham yordam beradi. Masalan, «Hasharotlar turkumi» mavzusini o'rganish davomida o'qituvchi mavzuning an'anaviy turzda boshlanishi bilan birgalikda, kutilmaganda quyidagi holatlarni so'zlab berishi amalga oshirilishi mumkin: «Darslarda, ayniqsa ekskursiyalarda ismi nomalam o'qituvchining (IKS) she'r o'qishni hush ko'rishi qayd qilinadi. U o'quvchining tangachaqanotlilar haqidagi savolga bergen javobini tinglab, unga jurnalga besh baho qo'yadi va kutilmaganda A.Fetning «Kapalak» deb nomlangan she'rini yoddan o'qib beradi:

«*Sen haqsan. Bitta havoda chizilgan chizigilar orqali men shunday yoqimiliman. Mening butun borig'im – uchganimda bahmaldek ovlamovchi juft qanotimdan iborat. Sen so'rama: qayerdan paydo bo'ldim va qayverga shoshilaman?* Bu erda men gulga engil qo'nib,

nafas olaman. Men ham maqsadsiz, zo'r berishlarsiz, uzoq nafas olishni istaymayman-mi? Mana hozir tong yorishadi va qanotlarini yoyib, uchib ketaman!»

Albatta, o'qituvchi tomonidan she'r o'qib berilganidan keyin, sinfda o'quvchilar orasida haqiqatan ham kapalaklar shirin gul sharbati bilan oziqlansada, biroq ularning hayoti havas qilgulik darajada ajoyib kechmasligi, uning guldan-gulga uchib-qo'nishining o'zi katta mehnat talab qilishi haqidagi baxs-munozaralar qiziydi. Kutilmaga, *IKS* qat'iy tarzda baxslashayotgan o'quvchilarni to'xtatadi va ulardan so'raydi: «Siz haqiqatdan kapalakning qanoti *bir usfligiga ishonasizmi?*». Shunda o'quvchilar birdaniga keltirilgan jadvaldagi kapalak tasviriga nazar solishadi va bu yerda kapalakning qanotlari ikki juft – ya'ni, to'rttani tashkil qilishiغا guvoh bo'lishadi, bunda qanotlarning bir jufti tasanining oldingi va yana bir jufti – tasanining orqa tomonida joylasganligi qayd qilinadi. O'qituvchi jadvalga yaqin keladi, kapalakning ikkita qanotini ko'rsatadi va quyidagi fikrlarni ta'kidladi: «Haqiqatdan ham, bir qarasha kapalakning qanotlari bir juft bo'lib ko'rinadi, biroq bir juft qanotlar faqt passhalar va chivinlarda mavjud hisoblanadi va shu sababli, ularni bish qo'shqanotilar deb nomlaymiz».

III BOB. BIOLOGIYA FANI BO'YICHA SINFDAN TASHQARI MASHG'ULOTLAR

Garchi, pedagogik amaliyot davomida asosiy diqqat-e'tibor biologiya bo'yicha darslarga qaratilissa, biologiya bo'yicha darsdan tashqari tashkil qilinuvchi tadbirlarda faol ishtirot etishni *maslahat beramiz*.

Siz (amaliyotchilar) uchun amaliyot davrida biologiya o'qituvchisi tomonidan rejalashtirilgan barcha tadbirlar *zaruriy* hisoblanadi. Bir vaqning o'zida, siz o'zingiz uchun bu ko'rinishdag'i tadbirlarni rejalashtirasiz. Bu erda gap biologiya kechalar, ko'riklar, tanlovlari (viktorma), maktabda biologiya haftaligi, o'quvchilar bilan yakka turibda ish olib borish, biologik obektlar bilan sinfdan tashqarida va uyda tajribalar o'tkazish, biologiya bo'yicha mashg'ulotlar uchun ko'rgazmali qo'llanmalarni tayyorlash, biologik ekskursiyalarни (shahar, qishloq obektlariga) tashkil qilish kabi tadbirlar haqida boradi.

O'z navbatida, ushuu keltirilgan tadbirlarni tashkil qilish va o'tkazish uchun batafsil dars ishlamalari ixtiyoriy shaklda tayyorlash talab qilinadi.

3.1. Yosh gulchilar to'garagida ishlarni tashkil qilishning uslubiyati

Mavzu: «Gullardan qanday qilib gulda tuzib chiqiladi»
Maqsad: To'garak a'zolariga tarikibiy qismilarni bir-biriga uyg'un holatda moslashtirish sa'nati (*aranjirovka*) haqidagi bilimlar va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, go'zallikni his qilishni tarbiyalash, go'zallikni tabiatda odam hayotida ko'ra olishni o'rgatishdan tashkil topadi.

Mashg'ulotda foydalanilochi ijozlar: Turli xil navga mansub jonli gullar to'plami, gultuvaklar kolleksiysi, turli xil o'lchamdag'i va shakldagi o'rma materiallar (kashpo), qo'lda ishlanuvchi asboblar (gulqaychi, oddiy qaychi, pichoq, qurigan novdalar, sim, kley va boshqalar).

Ushublar: To'garak rahbarining so'zlab berishi, harakatlarni ko'rsatib berish, to'garak a'zolarining amaliy ishlari.

Mashg'ulotning borishi.

I. Mashg'ulot mavzusi bo'yicha to'garak a'zolarining oldida turgan ishga maqsadli kirishishi.

II. To'garak rahbarining kirish so'zi, aranjirovkaning mohiyati haqidagi ma'lumot berish.

Aranjirovka – guldasta tuzib chiqish, gullardan kompozitsiya yaratish jarayoni hisoblanadi. Ayrim holatlarda aranjirovka tayyor kompozitsiya yoki uning tarkibiga ayrim qo'shimchalar kiritishni ham anglatadi. Guldastadan farq qilib, *kompozitsiya* nisbatan murakkab tavsifga ega bo'lib, ko'pincha holatlarda faqat gullardan tashkil topmasdan, balki novdalar, ayrim holatlarda iidiz, mevalarning gultuvak yoki boshqa turdag'i idishga manzarali tarzda joylashtirilishi dan tashkil topadi.

Guldasta tuzi chiqishida dunyoning turli xil mamlakatlari, jumladan bizning mamlakatimizda ham nisbatan qadimdan rivojlangan, Yaponiyaga xos aranjirovka sanati o'z ta'sirini ko'rsatgan. Bu sa'nat turi Yaponiyada tahminan XII–XIII asrlarda paydo bo'lgan bo'lib, «ikebana» deb nomlangan. Ushbu sanat turining asosiy tamoyillari – ginoan, guldasta tarkibida birorta gul umumiyo go'zallikni yo'qotmasligi talab qilinadi, shu sababli gullarni uncha ko'p bo'lmagan miqdorda tanlab olish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Har bir gul yoki o'simlik guldonga joylashtirilishidan oldin ishlov beriladi, ortiqcha qismlari kesib tashlanadi, novdalariga ma'lum bir yo'nalishda shakl beriladi, gullari asimmetrik shaklda joylashtiriladi, bunda poyaning uzunligi guldonning kengligi va chuqurligiga mos ravishda belgilanadi. Guldasta asosini 3 ta gul tashkil qiladi, ular vertikal o'q bo'ylab ma'lum bir burchak ostida joylashtiriladi. Qo'shimcha gullar guldastaning quyi qismida joylashtagan taglikni bekkitib turish asosida joylashtiriladi.

III. Mashg'ulotning asosiy qismi.

1. *Aranjirovkaning tamoyili, to'garak rahbari tomonidan tushintirish va ko'rsatib berish.*

Zamonaviy aranjirovka sa'natida qat'iy qoidalar mavjud emas, biroq ayrim umumiy tamoyillar mavjud bo'lib, sizga chiroyligul dasta yoki kompozitsiya yaratishda yordam berishi mumkin:

a) Oddiylik, mantiqiy tugallanganlik, o'simlik materialidan temjankorlik asosida foydalanish va rang, shakli bo'yicha ularni sin-

chiklab tanlab olish;

b) Guldonga turli xil balandlikdagi o'simliklarning erkin holatlarda joylashtirilishi;

v) Tabiiylikni saqlash va o'simliklarning tabiiy joylashish holatida foydalanish;

g) Guldonga, ayniqsa pastki qism bo'ylab o'simliklarning assimetrik tarzda joylashtirilishi ustuvorligiga e'tibor qaratish;

d) Anqlik, chiziqlarning go'zalligi va bejirimliliqi;

e) Nafaqat gullardan foydalanish, balki boshqa tarkibiy qismlardan: masalan – novdalar, o'tlar, toshlar, mevalar va boshqalardan ham foydalanish mumkinligi;

j) Guldon va gullarning rangi, shakli, o'chamlari bo'yicha o'zaro uyg'un tarzda bir-biriga mosligini ta'minlash;

z) Kompozitsiyaning atrof-muhit holatlarga mosligi.

– Mashg'ulot rahbari tomonidan ushbu keitirilgan ma'lumotlarga muvofiq, aranjirovka jarayonini ko'rsatib berishi tavsiya qilinadi.

2. *Guldastani tuzib chiqish qoidalari:* Rahbarning harakatlarni ko'rsatib berish bilan birgalikda ma'lumotlarni berishi.

1) Gullar pojani ezib tashlovchi qaychida emas, balki o'tkir pichoqda kesiladi. Gullar erta tongda yoki kechqurun kesib olinadi,

ya'ni hujaytarning *turgor* holati unchalik yuqori bo'lmagan vaqtida kesib olinadi. Daraxtsimon poya oxirgi qismidan, masalan – siren, jasmin gullarini kesib olishda uzunasiga yorildi. Poyaming quyi qismidagi barglari olib tashlanadi, atirgulning esa – tikonlari olib tashlanadi. Shundan keyin, boshlang'ich ishlarni analga oshirish siyatida, gullar ichiga suv to'ldirilgan kengroq idishga joylashtiriladi, bunda gul moyasi suvga botib turgan holatda joylashtiriladi va sovuq sharoitda 2–6 soat davomida saqlanadi.

– Harakatlarning ketma-ketlikda ko'rsatib berilishi analga oshiriladi.

2) Guldastani tuzib chiqishdan oldin, kesilgan sohalar o'tkir quychi bilan *qiyalatib* yana kesiladi. Chinnigul, sikamen, qo'qongul moyasining quyi qismidan 2–3 sm chuqurlikda *kevimir* ochiladi (harakat ko'rsatib beriladi).

3) Gullarning moyasining oxirida sutli sharbat qismi alangada kuydiriladi yoki ushbu qismini qaynoq suvga botiriladi, keyin esa –

tezda sovuq suvgaga botiriladi (harakat ko'rsatib beriladi).

4) Liliya, lola va boshqa gullarning changchi-changdonlari olib tashlanadi: bu holat gullarning saqlanish muddatini uzaytiradi va ularning chang donachalaridan toza holatda saqlanishini ta'minlaydi (harakat ko'rsatib beriladi).

5) Guldastaning shakli va o'chamiga aniqlik kiritib olinadi, turli xil uzuunlikdagi gul poyalarida toq sondagi gullar olib tashlanadi. Gul poyasida eng quyida joylashgan gul o'rtacha poya uzuunligining $\frac{3}{4}$ qismida joylashishi talab qilinadi, o'rtada joylashgan gul yuqorida $\frac{1}{4}$ qismida joylashishi talab qilinadi (harakat ko'rsatib beriladi). Shuningdek, guldasta uchun guli tushib ketgan yoki g'uncha shaklidagi gul novdalardan ham foydalananish mumkin.

6) Gullar guldonga erkin holatda joylashtiriladi, bunda ular turli xil burchak ostida, turli xil yo'naliishlar bo'ylab joylashtiriladi, ularning tabiiy holatda turishi ushlab turiladi. Nisbatan yirik va to'q rangdagi gullar guldondoning quyi qismiga, markazga yaqin sohaga joylashtiriladi, mayda o'chamli, jimmimador gullar va rangi nisbatan oqish tusdagagi gullar guldastaning chekka qismiga joylashtiriladi. Past bo'ylab guldonga gullar bir-biriga yaqin holatda joylashtiriladi (huddi, bitta nuqtada joylashtigan kabbi), biroq bunda favqulotda darajada zinch joylashtirilmaydi va poya va gullar oralig'idagi barcha bo'sh joylar to'ldirib tashlanmaydi.

— «Gulda va guldona o'chamlarining nisbatlari» jadvali namoyish bo'sh joylar to'ldirib tashlanmaydi;

— «Harakatlarni ko'rsatib berish amalga oshiriladi;

3. *Guldastaning o'chhami va shakli ga aniqlik kiritish*: O'qituvchi tegishli ma'lumotlarni berish bilan birgalikda harakatlarni ko'rsatib beradi.

Guldastaning shakli va o'chammlari uning nima uchun mo'ljallanganligidan kelib chiqib belgilanadi, shuningdek gullarning o'ziga xos tavsliflari, guldondoning shakli, aranjirokalovchi mualifining fikrlari asosida ish tutildi. Uncha baland bo'imagan, asosan aylana shakldagi guldastalar uncha katta o'chamda bo'imagan, past bo'ylab guldondonlarga joylashtiriladi va odatda, tushlik stoliga qo'yish uchun mo'jallaniladi. Tantanali marosim stolini rasmiy lashtirish sharoitida 1-3 ta gacha past bo'yli guldastalar qo'yib chiqiladi va bunda guldastalarning prezidium ish olib borishiga halaqit bermasiliga

e'tibor qaratiladi. Nisbatan uzun va yirik o'chamli kompozitsiyalar polga qo'yishga mo'jallanadi.

Uzun poyali o'simliklardan yig'ilgan, baland bo'yli guldastalar ham polga o'matiluvchi guldonlarda chiroyli ko'rindi. Ko'pgina holatlarda, bir tomonlama guldastalar ko'rgazmalarde devorlar yoni bo'ylab joylashtirib chiqiladi.

Baland bo'yli guldonlar uchun uzun gullar tanlab olinadi, ular guldondan 1,5-2 marotaba uzunroq bo'iishi talab qilinadi. Baland va ingichka, bo'yin qismi ingichkalashgan va uzun shakkagi guldonga dumaloq shaklga ega, alohida gul poyalari va gullar pastga osilib turuvchi guldasta joylashtirilsa, chiroyli ko'rindi. Past bo'yli guldon odatda, turli xildagi shaklga ega, jumladan asimetrik kompozitsiyalar uchun foydalaniadi. Past bo'yli guldonda eng uzun gulning uzunligi uning diametr o'chamidan 1,5-2 martadan ortiq bo'imasligi talab qilinadi.

— «Gulda va guldona o'chamlarining nisbatlari» jadvali namoyish qilinadi va shuningdek, tuzib chiqilgan guldastalar ko'rsatiladi.

4. *Gullar uchun idishlar*: O'qituvchi tomonidan tegishli ma'lumotlar berilishi bilan birligida, gullar uchun mo'jallangan maxsus idishlar ko'rsatiladi.

Quyidagilar talab qilinadi: Gullar uchun idishlarni tanlab olish yoki gullarni o'rash uchun materiallar (vazon) ton fakturasini, guldasta gullarning rangini va kontrastligini tanlab olishda eng yaxshisi – yorqin rangli, dag'al ishlangan fakturaga ega guldonlardan guldasta tuzib chiqishda foydalananish tavsija qilinmaydi. Bu ko'rinishdagi guldonlar shunchaki o'zi o'matilgan holatda chiroyli ko'rindi va ularga guldasta solingan holatda esa – o'zining jozibadorligini yo'qotadi, sezilmay qoladi.

Guldon, tuvaklar va kashpo yengil, neytral yoki kam seziluvchi rang tonida bo'iishi (kulrang, oqish, tabiiy kuydirilgan loy rangi) maqsadga muvofiq hisoblanadi; Shuningdek ayrim turdag'i gul novdalari va guldastalar uchun qora rang ko'proq mos kelishi qayd qilinadi. Ko'pgina holatlarda, guldastalar uchun ustı rang bilan ishlovi berilmagan, loydan ishlangan guldonlardan foydalaniadi, ularning yuzasi mayin tonning baxmalsimon tovlanshi bilan o'ziga xos farqlanib turadi. Bu ko'rinishdagi idishlarning devori havo o'tkaza-

di, shu sababli uning ichiga quyilgan suv uzoq vaqt buzilmaydi va o'z navbatida, gullarning saqlanish muddati ham uzayadi. Biroq, bu ko'rinishdagi idishlarning devori suv o'tkazuvchanlik xosasiga ega bo'lil, shu sababli ularning tag qismiga taglik qo'yilishi talab qilinadi (harakatlar orqali ko'rsatib beriladi).

5. *Gullarning ranglari uyg'unligi*: O'qituvchi tomonidan tegishli ma'lumotlar keltirib o'tilishi, tushintirish, «Kolorimetrik (rangli) olita sektorli doira» jadvali namoyish qilinadi.

Guldstanining go'zalligini belgilab beruvchi asosiy shartlardan biri – gullarning o'zaro uyg'unligini yuzaga keltiruvchi, gullar to'plamini to'g'ri tanlash bilan bog'liq hisoblanadi.

Tabiatda mayjud bo'lgan ranglar asosan uchta – qizil, sariq, ko'k ranglar aralashmasidan tashkil topadi. Turli gullar ranglarining o'zaro uyg'unligini aniqlash uchun calorimetrik doiradan foydalanish mumkin (jadvalga qarang), uning tarkibida 6, 12 yoki 24 ta sektor mavjud hisoblanadi. Bunda kontrastlik bo'yicha o'zaro bir-biriga mos keluvchi uyg'unlikni xosil qiluvchi ranglar sifatida rang sektorlarida o'zaro bir-biriga qarama-qarshi joylashtirilgan ranglar tanlab olinadi: masalan – qizil va yashil, sariq va binafsharang, ko'k va pushti.

Shuningdek, bitta sektordan keyin joylashgan ranglarning o'zaro bir-biriga mosligi, o'zaro qo'shami sektorlardagi ranglar bir-biriga mosligi (olti sektori rang doirasi tarkibida) amalga oshirilishi maqsadga muvofiq hisoblanmaydi. Agar, ular oralig'iga neytral tavsiiga ega rangli oq gullarni joylashtirisa, u holda ayrim ranglarning o'zaro bir-biriga uyg'unlikda mos kelmasligini sillqlash mumkin, bunda oq rang barcha rangdagi gullar bilan o'zaro mos tushadi.

Bitta tonga ega bo'lgan va monoxromatik tonga ega ranglarning o'zaro bir-biriga uyg'unligi bitta rangning turli xil intensivlikda aks etishi orqali namoyon bo'ladi, masalan – oqish-pushti, pushti va qizil va hakozo. Bunda qizil va pushti rang, shuningdek boshqa ranglar turli xildagi intensivlikka ega hisoblanadi va o'zaro bir-biriga uyg'unlikda mos kelmaydi, masalan – karmin va losos' rangi o'zaro mos tushmaydi.

Har doim eng chiroqli guldastalar bitta nav yoki gul turidan tayyorlangan guldastalar hisoblanadi. Quyida turli xil gullarning o'zaro uyg'unlikda mos tushishi qayd qiluvchi ayrim guldastalar

tarkibini keltiramiz: ko'k rangli del'finium va to'q sariq tusli liliya yoki krem – oqish tusdagi jasmin, sariq tusli iris va binafsharang lyupin, qizil va oq chinnigullar o'zaro bir-biriga mos tushadi.

6. *Guldonda gullarni mahkamlash usullari*: O'qituvchi tomonidan tegishli ma'lumotlar berilishi bilan birgalikda, amalga oshiriluvchi harakatlar ko'rsatib beriladi va jadvallar namoyish qilinadi.

Guldstanani tuzib chiqishda guldstanining kutilgan shaklda chiqishini ta'minlovchi turli xil moslamalardan foydalaniladi. Bunda nisbatan muvafaqiyatlari tarzda foydalaniluvchi moslamalar sifatida diametr o'ichami 6–8 sm ga teng bo'lgan, aylana shaklidag'i kenzalar (jadvalga qarang) qayd qilinadi. Bu ko'rinishdagi moslamalar yordamida turli xildagi kompozitsiyalarni yaratish mumkin, jumladan bunda jonli o'simliklar (gullar, barglar, novdalar), qurigan gullar, patlar, poyadagi g'uddalar va boshqalardan foydalanish mumkin. Gullarning poyasi vertikal yoki burchak ostida ilmoqchala sanchiladi. Moslama yassi guldonga joylashtiriladi yoki boshqacha idishga o'matilib, idishga gulning poyasining asos qismi botib turishi ta'minlovchi suv quyiladi.

Gullarni guldasta tarkibida metaldan yasalgan moslamalarsiz ham yig'ib chiqish mumkin, masalan – yumshoq simming guldonga o'rab chiqilishi asosida joylashtirish mumkin. Gullarning ma'lum bir aniq joylashtish holatida o'matilishi uchun, shuningdek toza qum yoki mayda toshlardan foydalanish ham mumkin.

Ko'pgina holatlarda gul sotuvchi do'konlarda guldonlar bilan birgalikda gullar uchun plastmassadan yoki sopoldan yasalgan jalalar va tutqichilar ham sotiladi (namoyish qiluvchi jadvalga qarang).

Guldstanining tuzib chiqishda, mahkamlash moslamalari qandaydir o'simlik materiallari (barg va boshqalar) bilan bekitiladi, bunda ulardan birortasi ko'zga tashlanmasligi kerak. Past bo'yli, keng guldondorda quyilgan suv sathining bir qismini ochiq qoldirish mumkin, unda gullarning aksi ko'rniyo turadi.

7. *Kesib olingan gullarning hayoti davomiyligini uzaytirish usullari*: O'qituvchi tomonidan tegishli ma'lumotlarning berilishi bilan birgalikda, to'garak a'zolari bilan subbat olib boriladi.

Kesib olingan gullarning yangi holatda saqlanishi davomiyligi ularning genetik jihadidan o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq

bo'lib, shuningdek bir qator shart – sharoitlar oqrali ta'minlanishi ham mumkin, ular orasida quyidagilarni qayd qilib o'tishimiz mumkin:

1. Kesib olinuvchi gullarning yoshi – ya'ni, gullash davri boshlanishida qancha erta muddatlarda kesib olinsa, gul shunchalik ko'proq vaqt davomida yangi holatda saqlanadi;

2. Xonadagi harorat va namlik – ya'ni, harorat qanchalik past bo'lsa (biroq, 0°C dan past emas) va havoning namligi qanchalik yuqori bo'lsa, demak gullar shunchalik uzoq vaqt davomida yangi holatda saqlanadi. Gullarni uzoz q vaqt saqlash uchun sovuq joyga qo'yiladi, bunda ularni oldindan gazetaga yoki plynkaga o'ragan holatda joylashtiriladi, qisqa vaqt davomida saqlashda – gullarni yaxshisi sovuqroq joyga, suvli idishga joylashtirgan maqsadga muvofiq hisoblanadi, bunda uning ustini plynka qalpoq bilan o'rab qo'yib maqsadga muvofiq hisoblanadi;

3. Idish va suvning tozaligi. Gul solishga mo'ljallangan idishni yaxshilab yuvish tavsiya qilinadi. Dezinfektsiyalash maqsadida suvga bakteritsid modda solinishi tavsiya qilinadi: jumladan – 0,003%li kumush nitrat tuzi, 0,3%li gidrazimmalein kislota eritmasi yoki bir nechta kaly permanganat kristalidan foydalanish mumkin. Idishga quyilgan suv muntazam ravishda almashtirib turilishi, bunda poyanan uchlari kesib turilishi tavsiya qilinadi.

4. Quyidagi keltiligan jadvalda qayd qilingan ozuqa moddalari dan foydalanimish tavsiya qilinadi.

Gullarning yangi holatda saqlanishi uchun tavsiya etiladigan eritma.

Modda	Miqdori (1 litr suvga nisbatan gramm hisobida)	Qanday gullar uchun tavsiya qilinadi
Shakar Alyuminiy-kaliyli kvastalar Natriy xlor (osh tuzi)	20-30 2 0,2 0,3	Ko'pgina o'simliklar uchun
Kaliy xlor Shakar Kaliy permanganat Bor kislotasi Shakar Limon kislota	20-50 0,3 0,2 20-30 1,5	Piongul, atirgul Siren

Shakar 8-oksixonolin	30-40 0,2	Aturgul Qo'qongul Gladiotus
Shakar Kal'tsiy nitrat Kumush nitrat	60 0,1 0,003	Chinnigul

Keltirilgan jadvaldan ko'rish mumkinki, ko'pincha holatlarda gullar joylashtirilgan guldonga 2–5% li shakar eritmasi bilan birgalikda, suvning kislotaliiji oshiruvchi va bakteritsid (patogen bakterialarni yo'qotuvchi) xossaga ega eritmalar qo'shiladi. Shuningdek, siklamen, boychechak, amarallis, lomonos gullari uchun shakar eritmasidean foydalanish tavsiya qilinmaydi.

Esda saqlash kerakki, pishgan mevalar, ayniqsa olma ajratib chiqaruvchi etilen moddasi gullarning tez qarishi va hayoti qisqari shiga olib keladi.

Bundan tashqari, ayrim gullar (guldasta yoki kompozitsiyalar tarkibida) bir-biri bilan mos kelmaydi. Masalan, atirgul va chinigul boshqa gullar bilan birgalikda saqlanganda tezda so'lib qoladi. Boychechak, nartsiss, rezeda, chinnigul, hushboy' y no'xotguli va naychasimon lijya gullari ta'sirida boshqa gullarning so'lib qolishi tezlashadi. Tui va geran novdalari esa – guldasta tarkibida gullarning yangi holatda uzoq saqlanishiga yordam beradi.

TV. Bajarilgan ishning yakuniy xulosalarini chiqarish va to'garak a'zolariga topshiriq berish

1. Amalga oshirilgan mashg'ulot davomida olingen ma'lumotlarni tahlil qiling va siz va sizning oilangiz a'zolari tomonidan siz bayram va boshqa tantanali marosimlarda sovg'a qilgan gullarga to'g'ri munosabatda bo'lishlari qayd qilinishiga e'tibor qaratting va ularga tushintiring.

2. Mashg'ulot davomida olingen bilimlarni mustahkamlash maqsadida biz mashg'ulot davomida tuzib chiqqanga o'xshash tartibda, gullardan guldasta tuzishni mashq qilib ko'ring, kompozitsiya tuzib chiqing.

3. Kutubxonadan gullar, guldasta tuzish haqidagi adabiyotlarni oling, bizning to'garagimizning navbatdagi mashg'ulotigacha ikебана sa'ati haqida uncha katta bo'Imagan habarmona tayyorlang.

4. To'garak mashg'uloti davomida olingen bilimlar va ko'nikmalar bilan kursdoshlariningiz, o'rtoqlaringiz va do'stlariningiz bilan

o'rtoqlashing.

5. «Guldasta tuzib chiqish sa'nati» deb nomlangan, umummaktab doirasida o'tkaziluvchi tanlovdan ishtirok eting.

Biologik to'garak a'zolari hisoblanagan o'quvchilarning tadqiqot ishining obekti – tirik tabiat burchagida mavjud bo'lgan hayvonlar, jumladan akvarium baliqlari bo'lishi mumkin. Misol sifatida, to'garak a'zolarning akvarium baliqlari ustida amalga oshirilgan tadqiqotlar keltirib o'tildi, bunda bizning fikrimizcha, bu misol amaliyotchitabalar tomonidan matabning biologik to'garagi bilan ish olib borishni tashkil qilishda as qotishi mumkin.

3.2. Yosh zoologlar to'garagining mashg'ulotlari va uslubiy ishlari

Mavzu: Tadqiqotchi o'quvchilarning obekti sifatidagi ishlari akvarium baliqchalarini

Baliqlar – tirik tabiat burchagida nisbatan keng tarqalgan tirik jonzotlar hisoblanadi va o'quvchilarning tadqiqotchilik ishlari uchun qulay va qiziqarli obekt bo'la oladi. O'quvchilarning biologiyani o'rganish bo'yicha akvarium baliqlari bilan qanday ishlashlari mumkinligi ko'rsatib beramiz.

Maktabda mayjud bo'lgan akvariumda baliqlarning tur tarkibini shunday tanlab olish kerakki, bunda turlar nuqtai nazaridan bu jonzotlar turli xilda bo'lishi talab qilinadi. Shunday qilib, masalan agar, akvariumda danio–rerio, sumatra barbusi va holdor laqqa baliq turlari mavjud bo'lsa, u holda ushbhu baliq turlarining har birining morfologik va hulq–atvordagi yashash muhitiga moslashishlarini belgilab beruvchi o'zaro farqlanishlarni, ularning turli xil suv qatlamlarida yashashi va har biri uchun xos bo'lgan oziqlanish tiplarini o'quvchilarga ko'rsatib berish mumkin.

1. Tadqiqotlarning birinchi bosqichida (tanimish bosqichi) kutuvchi har bir tur uchun o'ziga xos bo'lgan tashqi tuzilish belgilarini qayd qiladi: jumladan, laqqa baliq – suvning tag qatlami da yashashga moslashganligi, og'iz organi tanasining tag qismida joylashganagini, shuningdek sunnata barbusi suvning o'rta qavatida yashashga moslashganligi va tanasining yon tomonlardan siqilgan

shaklga egaligi, og'iz tanauning o'rta qismida joylashganligi, suzgich qanotlari harakatchan bo'lib, yaxshi rivojlanganligini, danio–rerio baliq turi esa – suvning yuqorigi qavatida yashashga moslashganligi, og'zing tanasining tepe qismida joylashganligi, bo'ylama chiziqlarga ega bo'lgan tanasi cho'zinchoq shaklga egaligini qayd qilishi mumkin.

Amaliyotchi–o'quvchilarning diqqat–e'tiborini har bir baliq turining suzishidagi o'ziga xos farqlanishlarga qaratadi, shuningdek bu jarayonda turli xil tipdag'i suzgich qanotlarning ishtirokini tavsiflaydi, baliqlarning suvda harakattanish tezligini kuzatish, har bir baliq turining oziqlanishidagi o'ziga xosliklarga e'tibor qaratishni tavsiva qiladi. Yanada muvafaqiyatli kartochkalarni tarzda ish olib mumkin, bu kartochkalarda kuzatish davomida bajariluvchi ishlarning ketma–ketlik tartibi bayon qilingan bo'lib, shuningdek kuzatish natijalarini qayd qilish tartibi keltiriladi.

II. Tadqiqotlarning ikkinchi bosqichida (sifatga oid bosqich)

zatish olib borilayotgan sharoitning nisbatan batafsil holatda tavsiflanishi talab qilinadi. Buning uchun kuzatishlar kundaligiga tashqi atrof–muhitning harorati, akvariumdagi suv sathi va harorati, suv tag qismining o'chamlari, yoritilish rejimi va intensivligi, suniy havo bilan ta'minlanish rejimining mavjudligi, suvning qattiqligi yoki kislotaligi (agar, imkoniyati mayjud bo'lsa), suv tarkibida kislород miqdori kabi ko'rsatkichlar qiymatlarini qayd qilish amalga oshiriladi. Keltirilgan har bir ko'rsatkichlarning har biri turga oid baliqlarning o'sish–riyojanishi, hulq–atvoriga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Tajriba davomida keltirilgan ko'rsatkichlardan biriming qiymati o'zgartirilishi asosida o'quvchilar kuzatishlar kundaligiga baliqlarga tashqi omillarning ta'sirini qayd qilib borishadi.

Shunday qilib, asta – sekun o'quvchilarning «*tajribaning so'figi*» mazmun–mohiyatini tushintirish amalga oshiriladi, bu holat o'quvchilarda zoologik tajribalarni amalga oshirish uslubiyati haqidagi g'ri tasavvurlar shakkantirilishini ta'minlaydi.

III. Tadqiqotlarning uchinchi bosqichida o'quvchilarga har bir baliq turining (danio–rerio, sumatra barbusi, holdor laqqa) qanday aniq ekologik sinflarga mansubligiga aniqlik kiritish topshirig'i beriladi, bunda ularning yashash muhiti, suvning aniq qatlamlarida ha-

yot kechirishi tavsiflari hisobga olinadi.

Kuzatishlar oldidan akvariumda suv sathi 3 ta teng qismlarga ajratib olinadi, ya'ni – yuqorigi, o'rta va quyi qavatlarga ajratiladi. Ushbu qavatlar o'rtasidagi chegaralar gorizontal yo'nalishda tortilgan iplar yordamida belgilab olinadi, bunda iplar akvarium chekka sinchida joylashgan oynaga plastilin yordamida mahkamlanadi.

Agar, akvariumda beringan turga mansub bir nechta baliq mavjud bo'lsa, u holda tadqiqotlar miqdoriy natijalarini qayd qilib uchun quiyidagi ketirilgan jadvaldan foydalananish mumkin. Bunda juft holatda ish olib borish qulay hisoblanadi: ya'ni, o'quvchilardan biri vaqtini hisobga olib boradi va har 15 sekund davomida har bir suv qavatlarida mavjud bo'lgan baliqlarning sonini aniq hisobga olib boradi, ikkinchi o'quvchi esa – natijalarini yozib boradi.

Suvning turli qavatlarida danio–erio baliq turining qayd qilinishi

Kuzatish sanasi, vaqt	Qayd qilishlar oralig'i idagi vaqt	Suv sahflarida mavjud bo'lgan baliqlarning soni		
		Bir vaqtning o'zida kuzatiluvchi baliqlarning soni	Yuqorigi	O'rta

Baliq turi, akvariumdagi soni (dona)	Kuzatish sanasi vaqt	Hisoblash davri davomiyligi (sek.)	Hisoblash davri davomida jabra qopqog'ining harakatlansh soni	1 minut davomida jabra qopqog'ining harakatlansh soni

Kuzatishlar oldidan o'quvchilarga savollarga savollarga javobni ular ishni bajarish jarayoni davomida olishadi:

1. Bitta turga mansub baliqlarda turli xil yosh davrlarida jabra orqali nafas olish chastotasi qiymati o'zaro farqlanadimi?
2. Kislorod etishmovchiligi va turli xil kasalliklar sharoitida baliqlarda jabra orqali nafas olish chastotasi qanday o'zgaradi?
3. Baliqlarning yakka holatda va to'da shaklida yashash sharoitlarida jabra orqali nafas olish chastotasi qanday tafsida o'zgaradi?

Ish tugaganidan keyin, akvariumda har bir suv qavatidagi qayd qilingan baliqlarning son miqdori hisoblab chiqiladi. Shunga o'xshash, holdor laqqo baliq turi bo'yicha kuzatish olib borgan o'quvchilarda umuman boshqacha natijalar qayd qilinadi. Ushbu olingan natijalar asosida, to'liq ishonch bilan bu ikkita turga mansub baliqlarning turli xil ekologik turlarga (simflarga) kiritilishini qayd qilish mumkin. Tirk tabiat burchagida saqlanuvchi akvariumda boqish uchun odatda, kichik o'lchamli baliqlar tavsiya qilinadi va ularda jabra orqali nafas olish jarayonini o'rganish, baliqlarning o'lchami kichikligi sababli qiyin hisoblanadi. Nisbatan o'lchami kattaroq bo'lgan baliq turlarida (masalan, tila baliq) ma'lum bir vaqt oralig'i davomida jabra qopqog'ining harakatlansh sonini hisoblash imkoniyati mavjud hisoblanadi, bu holat jabra orqali nafas olish jadalligi qiymatini aniqlash imkonini beradi. Ko'pgina holatlarda, jabra qopqog'ining harakatlanshi yetarlichha darajada aniq ko'rinnmaydi, biroq baliqning jag'larining harakatlanshi yaxshi sezildi. Odatda, baliqlarning jabra

qopqog'i bir marta harakatlanshi davomida baliqning og'zi bir marta ochilib yopiladi, bu holatda jabra orqali nafas olish jadalligini o'rganish natijalarini ushbu keltirilgan harakatlanshlarining hoxlagan biri bo'yicha amalga oshirish mumkin. Kuzatishlar natijalarini jadval tarkibida qayd qilib boriladi.

2-jadval

Baliqlarning jabra orqali nafas olish chastotasi

Ko'payish mawsumida makropod baliq turi erkagining hulq-atvori

3-jadval

Kuzatish sanasi va vaqt	Qayd qilişlar oraliq vaqt	Ko'payish davrida faoliyning turari				
		Hinoya lanish	Oziqlanish	Uyaning tozalanishi	Uyani ta mirlash	Faolilik mavjud emas

Yakuniy xulosa o'mida qayd qilish mumkinki, aksarium baliglari ustida kuzatishlar olib borishda miqdoriy natijalarini qayd qilib borish juda muhim hisoblanib, bu holat o'quvchilarда tadqiqot ishini olib borishda nisbatan qiziqarli hisoblanadi.

3.3. Maktab joylashgan tuman hududida va maktablar o'quvchilaristi istiqomat qiluvchi hududda ekologik monitoringni tashkil qilish va o'tkazish metodikasi

Bu pedagogik faoliyat uchun yangi holat bo'lib, o'quvchilar bilan sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilishda juda samarali hisoblanadi va amaliyotchi-talabalarga tavsiya qiliш maqsadga muvofq hisoblanadi. Ushbu o'rinda, «*ekologik monitoring*» tushunchasi haqida biroz to'xtalib o'tamiz.

Monitoring – bu atrof-muhit holatining antropogen omil ta'siri da o'zgarishini tizimli tavsifa kuzatish, baholash va oldindan avtib berishdan tashkil topgan majmuaviy ishlar yig'indisidan iborat hisoblanadi. Bu faoliyat turi ekologik bilimlar, ko'nikmalar va malakalarning shakllantirilishiga yo'naltirilgan ekologik ta'limning tarhibiy qismalaridan biri bo'lib, shuningdek o'quvchilarda atrof-muhitning holatini dastur asosida kuzatishni qamrab oluvchi amaliy faoliyat asosida dunyoqarashni shakllantirishga yo'naltiriladi.

O'quvchilarning monitoringni amalga oshirishga yo'naltirilgan faoliyati ularda ekologik va valeologik savodxonlik darajasini oshiradi, ekologik madaniyat va sog'lom turmush tarzi madaniyatning rivojlanтиrlishiha olib keladi, o'z atrofida sog'lom ekologik yashash multini yaratish nuqtai nazaridan faol holatdagi pozitsiyaga ega bo'lishni shakllantiradi.

Bizning fikrimizcha, V.M.Shushkin nomidagi Biy davlat universitetida bizning hamkaslarimiz tomonidan V-XI sinflarda ta'lim oluvchi o'quvchilar uchun ekologik-valeologik monitoringni amalga oshirish uchun ishlab chiqilgan topshiriqlar majmuasi mavjudligini qayd qilib o'tish amaliyotchilarga qiziqarli bo'lishi tabiy holat hisoblanadi. Bu topshiriqlarning maqsadi quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

a) Bolalarning yaqin atrof-muhit (maktab hududi, maktab joylashgan tuman hududi) holatini ekspert sifatida baholashi va vaqt davomida o'zgarishlar dinamikasini o'rganish (ijobiy va salbiy yo'nalishda);

b) Yaqin joylashgan atrof-muhitning o'quvchilar, o'qituvchilar va ushbu hudud doirasida istiqomat qiluvchi abolining salomatligiga to'sirini o'rganish;

v) O'quvchilarning ekologik va sog'lom ijodiy faoliyatga jalb qilinishi;

g) Tadqiqotchilik loyihalarni ro'yobga oshirish bo'yicha ko'nikmalarni, amalga oshirilgan ishlar natijalarini umumlashtirish va grafik sharhlash malakalarini rivojlantrish va takomillashtirish;

d) Dizaynerlik loyihalarni (ishlamma tarkibida dizaynerlik loyihalarning namunaviy misollari keltirilgan) tuzib chiqish va joriy qilishda o'quvchilarida ijodiy qobiliyatlarning rivojlantrilishi.

Berilgan topshiriqlarni bajarish uchun o'quvchilarga butun ishlarni amalga oshirish davri davomida olib borilgan kuzatishlar ni umumlashtirish uchun alohida daftар tutish, ko'rsatmali kartochkalarni tuzib chiqish tavsiya qilinadi. O'quvchilarga bajarilishi yuklatilgan topshiriqlar biologiya bo'yicha dastur materiallarining o'tishini davomida murakkablashtirib borilishi talab qilinadi. O'quvchilar tomonidan topshiriqlarning bajarilishi yakka tartibda yoki kichik sinflar tarkibida amalga oshirilishi mumkin.

Tadqiqotarning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan tashkil topgan:

- 1) O'simliklarning atrof-muhitda ekologik-valeologik roli;
- 2) Maktab atrofidagi hudud sharoitiда ekologik-valeologik ekspertizani amalga oshirish;
- 3) Maktab atrofidagi hududda yashil ekinzorlar pasportini tuzib chiqish;

4) Maktabning 1–3 kurslari o'quvchilari tomonidan bajarilgan ishlarni solishtrish va qiyoslash.

Pedagogik amaliyot davri davomida o'quvchilar bilan qarab chiqilayotgan yo'nalisida ish olib borishning tarkibini amaliyot-chilarining mактабда 1 va 3 – kurslar o'quvchilari bilan olib borgan ishlari misollarida ko'rsatib o'tamiz.

1–kursda ta'lim oluvchi o'quvchilar bilan unchalik murakkab

bo'lmagan ishlarni bajarishdan boshlashni tavsija qilamiz, bunda mактаб sinfida mavjud bo'ган o'simliklar ustida bevosita uzoq vaqt davomida kuzatishlar olib borish belgilanadi, shuningdek mактаб atrofdagi hudduda, mактаб joylashgan tuman hududida kuzatishlar ni olib borish, o'quvchilar o'zlarini amalga oshirgan kuzatishlar natijalarini umumlashtiruvchi jadvallar tarkibida qayd qilish ko'nik-malarini shakllantirish amalga oshiriladi.

XONA O'SIMLIKLARI

1. Biologiya xonasida mavjud bo'ган xona o'simliklari haqida qo'shimcha adabiyotlarni o'rganib chiqish;

2. Har bir o'simlik uchun tavsiiflar kartochkasini tuzib chiqing: jumladan – uning kelib chiqish Vatani, parvarishlashga qo'yiluvchi talablar, atrof–muhitiga va odamning salomatligiga ta'siri (zaharli, dorivor, fitontsid moddalar ajratishi va hakozo xossalari) qayd qilinadi.

3. Xona o'simliklarini hisobga olish asosida, mактаб (mактаб) xonalari ko'kalamzorlashtirish bo'yicha dizayn–loyihha haqida o'ylab ko'ring va uni ro'yobga oshirish haqida fikrlaringizni bayon qiling.

O'simliklar – «mikroiqlim yaratuvchilari sifatida»

1. Kech bahor va yoz fasilda qanday o'simliklar ko'proq soya xosil qilishi, qanday o'simliklar tagida quyoshli kunlarda eng past harorat saqlanishini, qanday o'simliklar «*jonti devor*» xosil qilishini, qanday o'simliklar nisbatan shovqimni yaxshi pasaytirishini, qanday daraxtlar va butalar xiyobonlarda va bog'larda havonining tarkibini tozalashi va jazirama quyoshli kunlarda havoning tarkibini hush-bo'yashtirishini kuzating.

2. Qanday o'simliklar havoning tarkibiga fitonsid moddalar ajratib chiqarishini qo'shimcha adabiyottardan bilib oling.

3. Maktab atrofdagi hudduda (tuman hududida) o'suvchi o'simliklarning tur tarkibini aniqlang va mikroiqlim xosil qiluvchi o'simliklarni ajratib ko'rsating.

4. Umumlashtiruvchi jadval tuzib chiqing.

Tur	Havoni sovutadi	Havoni tozalaydi	Shovqinni pasaytiradi	Fitonitsidai ajratadi
-----	-----------------	------------------	-----------------------	-----------------------

5. Mikroiqlimi sog'lomlashtirish uchun, mакtab atrofdagi hududni ko'kalamzorlashtirish bo'yicha o'zingizning dizaynerlik loyhangizni ishlab chiqing va uni ro'yobga oshiring.

O'SIMLIKLAR – «QUSHHLAR UCHUN OSHXONA»

1. Mакtab hududida (mакtab joylashgan tuman hududida) qanday o'simliklar urug'lari va mevalari bilan yoz fasilda qushlar oziqlanishiga aniqlik kiriting.

2. Kuz va qish fasillarida qanday o'simlik turлari bilan oziqlanotgan qushlarni uchratish mumkin?

3. Mакtab atrofdagi hudduda, sizning hovlingizda qushlar uchun «*oshxona*» vazifasida xizmat qiluvchi o'simliklarning son miqdorini aniqlang. Ushbu o'simliklarda bahorgacha urug'lar ko'p miqdorda qoladi yoki yo'qmi?

4. Umumlashtiruvchi jadval tarkibini to'ldiring.

O'simlik	Vozda kuzatiluvchi qushlar	Kuz va qishda kuzatiluvchi qushlar	Bahorgacha qolgan urug'lar
----------	----------------------------	------------------------------------	----------------------------

5. Mакtab atrofdagi hudduda (mакtab joylashgan tuman hududida) qushlarni jab qilish uchun, «*oziqlanish*» amalga oshiriluvchi o'simliklarni ekishni tashkil qilish imkoniyatlari mavjudligi masala-si haqida xulosalar chiqaring.

6. Mакtab atrofdagi hudduda (mакtab joylashgan tuman hududida) «*qushlar shaharchasi*»ni tashkil qilish bo'yicha o'zingizning dizaynerlik loyhangizni taqdim eting, uni ro'yobga oshiring.

O'SIMLILKAR – «VAQT KORSATKICHLAR»

1. Kuzatishlarni amalga oshirish uchun mabkab atrofidagi hududda manzarali-gulli o'simliklarni tanlab oling.

2. O'simliklarda gullarning erta tongdan kun o'rtasigacha qanday asta-sekin «o'yg'omishini» kuzating.

3. Siz kuzatish olib borayotgan o'simliklarda qaysi vaqtidan qaysi vadtgacha to'pgul va gullarning ochilishini aniqlang.

4. Gultoj va to'pgulning yopilish vaqtini aniqlang.

5. Kuzatishlarni bir necha marta takrorlang va olingan ma'lumotlarni yozib oling.

6. Jadvalni to'ldiring.

T/ (№)	O'simlik	Ochilish vaqtி	Yopilish vaqtὶ	Ilovalar	Xulosalar

7. «Vaqt ko'rsatichlari» hisoblangan o'simliklarning fototaviri, gerbariyalarini tayyordang.

8. Maktab atrofidagi hududda «Gul soatlari»ni tashkil qilish bo'yicha o'zingizning dizaynerlik loyihangizni ishlab chiqing va taqdim eting.

9. O'simliklarning urug'larini yig'ib oling yoki vegetativ usulda ko'paytirish asosida o'z loyihangizni ro'yobga oshiring.

O'SIMLIKAR – «OB-HAVONI OLDINDAN AYTIB BERUVCHI BASHORATCHILAR»

1. Kuzatishlarni olib borish uchun, maktab atrofida joylashgan hududda o'suvchi manzarali-gulli o'simliklarni tanlab oling.

2. Chaqmoq chaqishi oldidan, havo haroratinning keskin pasayishi yoki ko'tarilishi oldidan, havoning ochilib ketishi yoki havoni bulut qoplab olishi oldidan ularning holatini kuzatish ishlarini tanlab oling.

3. Quyidagi holatami kuzating:

a) To'pgulning (alohida gullarning) ochilibi va yopilishi vaqtி; b) Yomg'ir yoqqan vaqtda to'pgulning holati, yomg'ir yog'ishidan oldin va yomg'irdan keyingi holati;

v) Haroratning keskin tebranishlari sharoitida o'simlikda to'pgulning holati;

g) Havoning ochilib ketishi yoki havoni bulut qoplab olishi oldidan

to'pgulning ochilibishi yoki yopilishi amalga oshishi;

d) Qanday atmosfera omillari ta'sirida gullar hidining kuchayishi yoki susayishi;

e) Yomg'ir yog'ishi oldidan gullar va barglarda tomchilarning paydo bo'yishi.

4. Quyidagi jadvalni to'ldiring.

O'simlik	To'pgulning tavsifi			Atmosfera omillari
	Vaqt	Holati	Holati	

5. Maktab atrofi hududida «Oldindan bashorat qilish gullar byurosini»ni tashkil qilish bo'yicha o'zingizning dizaynerlik loyihangizni ishlab chiqing va uni ro'yobga oshiring.

O'SIMLIKAR – «CHANG YIG'UVCHILAR»

1. Maktab atrofida, turli hil hududlarda: jumladan – yo'l chetida, maktab hududining ichki qismida, maktab hududining chekka qismida, hovlida, yo'llar atrofida, do'konlar yonida, ravvoqlar hududida, ya'ni maktab joylashgan hududning turli qismlarida o'suvchi har xil daraxt va buta turlarini tanlab oling (qayrag'och, terak, siren', eman).

2. Uzib qo'ymasdan, suv purkang va yumshoq to'qima yordamida bir nechta barg yuzasini artib chiqing. Bir haftadan keyin ushbu barglarni kesib oling va torozida torting. Suv purkang va uning yuzasini arting, keyin yana takroran torozida torting.

3. Har 10 gramm bargda qancha chang o'tirib qolishini hisoblab chiqing.

4. Quyidagi umumlashiruvchi jadvalni to'ldiring.

O'simlik turi	Joylashgan hududi	Har 10 gramm bargdagi chang miqdori
Qayrag'och	Maktab hovlisi ichida	Maktab atrofidagi hududda

5. Hisoblashlar natijalari bo'yicha maktab atrofidagi (maktab joylashgan hududda) eng ko'p chang to'planuvchi sohani aniqlang. Chang miqdori tarqalishi bo'yicha o'zingizning shkalangizni tuzib

chiqing (toza havo, kuchsiz ifloslangan, o'racha ifloslangan, kuchli ifloslangan).

6. Maktab atrofidagi hududning (maktab joylashgan tuman, shahar hududi) chang bilan ifloslanishi xarita sxemasini tuzib chiqing.

7. Maktab atrofi hududida katta miqdorda changni ushlab qoluvchi daraxt va buta turlari asosida ko'kalamzorlashtirish bo'yicha dizaynerlik loyihasini tuzib chiqing va uni ro'yobga oshiring.

Katta sinfda ta'lif oluvchi o'quvchilar uchun maktab atrofi hududida ekologik-valeologik sharoitlarni ekspert sifatida baholashni amalga oshirish tavsya qilinishi mumkin, bunda ishlarni maktab atrofi hududining chang bilan ifloslanshi darajasini va avtotransport vositalarining ta'sirda zo'riqish holatini o'rganishdan boshlash, shuningdek yig'ilgan materiallarni grafik jihatdan sharhlash, kelgusidagi analga oshirilishi nazarda tutiladi.

Biologiya o'quvvachisi (biz qarab chiqayotgan vaziyatda – amaliyotchi) o'quvchilarida ekologik-valeologik monitoring bo'yicha biimlarni chuqurlashtirish va amaliy ko'nikmalarini kengaytirish uchun, adabiyotlarni tavsif qilishi mumkin, jumladan – N.Nechaev tomonidan yozilgan «Mamlakatimizning birinchi ekologi». – «Pirorda», 1999, №12 maqolasi, V.Boreyko tomonidan yozilgan – «Don Kixotlar. Tarix. Odamlar. Qo'riqxonalar. – Moskva, 2002 kitoblarini tavsya qilish mumkin.

IV BOB. BIOLOGIYA KURSI BO'YICHA O'QUVCHILARNING BILIM VA KO'NIKMALARINI NAZORAT QILISH TIZIMI

4.1. Pisa tadqiqotlari haqida umumiy ma'lumotlar:

So'nggi yillarda mamlakatimizda amalgaga oshirilayotgan islohotlar nafijasida ulkan iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga erishilayotganligi barcha sohalarda malakali kadrlar va yetuk mutaxassilarga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Bu o'z-o'zidan o'quvchilarining darslarga qiziqish xususiyatini oshirish va o'quvvachilarning har tomonlama ta'lif tarbiyaga e'tiborini kuchaytirishni talab etadi. Yuqoridagi talablarning ta'lif tizimi uchun juda muhim ekanligi, aksariyat xorijiy davlatlardagi kabi ta'lif va fan sohalari rivojanishini baholash va monitoring qilish orqali ta'lif sifatini oshirishga qaratilgan ilg'or tajribalarni sohaga jaib qilish kerakligini anglatadi.

Xalqaro standartlar darajasida Yuqori iqtisodiy samaraga asoslangan milliy baholash tizimini yaratish imkonini beradi. O'zbekiston-dan turli tashkilotlarning yetakchi mutaxassislarini jaib qilgan holda xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish orqali mahalliy mutaxassislarimizda monitoring tadqiqotlarni o'tkazish madaniyati rivojlanadi, ta'lif sifatini baholashning xalqaro standartlarga moslashuviga olib keladi. Milliy ta'lif sifatini baholashdagi nazorat materiallari sifati da-rajasida ishlab chiqish imkonini beradi.

PISA testlari xuddi Shu o'zgarishlarni ta'lif tizimida aks ettiresh, makab o'quvcilarning haqiqiy hayotda kerak bo'ladigan hodisalarni tahlii qilish, ulardan xulosa chiqarish va muloqotga kirishish ko'nikmalarini qay darajada egallayotgannini, ta'lif tiziminining bu o'zgarishlarga qanchalik moslashayotganini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

PISA – o'quvchilarning ta'lifi yutuqlarini baholash bo'yicha xalqaro dastur:

PISA (inglizcha - Programme for International Student Assessment) – turli davlatlarda 15 yoshi o'quvchilarning savodxonligini (o'qish, matematika, tabiy fanlar) hamda bilimlarni amaliyotda qo'llash qobiliyatini baholovchi dastur. Bu dastur 3 yilda bir mar-

4.2. Testlar va nazorat testlari

taba o'tkazildi. Dastlab 1997-yilda ishlab chiqilgan va 2000-yilda birinchi marta qo'llanilgan. PISA bo'yicha bahoning 50 ballga oshishi har yillik yalpi ichki mahsulot (YaIM) ning 1% ga o'sishini ta'minlaydi.

Xalqaro baholash dasturlari tadqiqotlari tayyorlarlik ko'rish yuzasidan kelgusi vazifalari.

Tabiyy fanlarni (fizika, kimyo, biologiya, geografiya) va o'qish (onatili), matematika o'qitishda zamonaivy pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlardan samarali foydalanish Tabiy fanlarni (fizika, kimyo, biologiya, geografiya) o'qitish jarayonida fanlararo integratsiyani kuchaytirish, fanni turli sohalarga va hayotiy jarayonlarga bog'lab o'qitish fizika, kimyo va biologiya fanlaridan amaliy mashg'ulotlarni (laboratoriya, masalalar yechish) yanada samarali tashkil etish Sinfdan tashqari fan to'garaklarida o'quvchilarning kognitivlik va kreativlik xususiyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan mavzularda mashg'ulotlar olib borish kabi vazifalarni belgilab olgan.

Xalqaro baholash dasturlari tadqiqotlari tayyorgarlik ko'rish yuzasidan kelgusi vazifalar.

O'quvchilarning kognitivlik va kreativlik xususiyatlarini aniqlashga yo'naltirilgan o'quv topshiriqlarini yaratish va joriy, oraliq, yakuniy nazoratlarda muntazam ravishda qo'llash;

Aniq tabiyi va filologiya yo'nalishdagi tayanch maktablari seminarlariida xalqaro baholash dasturlari, ularda foydalanadigan topshiriqlar bo'yicha mashg'ulotlar olib borish;

Umumta'lim maktablarini zamonaviy axborot kommunikatsiya vositalari, internetdan foydalanan imkoniyatini va sifatini yaxshilash;

Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning amaliy ko'nikmalarini shakllantirilishini baholashga qaratilgan sinovlarni tizimli ravishda o'tkazib borish;

Umumta'lim maktablari direktorlari mas'ul hisoblanadi. VXTB, TXTB Ta'lim sifati monitoringi inspektor-metodistlari mas'ul hisoblanadi.

«TEST» – bu ingiz tilidan olingen so'z bo'lib, tarjima qilinganda – «sinov namunasi», «sinab ko'rish» degan ma'noni anglatadi. Bu atama fiziologiya va tibbiyotda, psixologiya (ruhshunoslik) va pedagogikada «test» atamasini orqli organizmida amalga fiziologiya va tibbiyotda «test» atamasini orqli organizmida amalga oshuvchi, turli xil fiziologik jarayonlarni o'rganish maqsadida organizmga ko'rsatiluvchi sinov ta'sirlari ifodalanadi. Psixologiya va pedagogikada «test» tushunchasi orqali bajarilishi natijalari assida sinovdan o'tkazilayotgan shaxsning bilimi, ko'nikma va malakalari haqida xulosalar chiqarish imkonini beruvchi, standart topshiriqlar ifodalandadi.

Biz qarab chiqayotgan vaziyatda esa – aymen, pedagogik testlar haqida gap ketadi, ya'ni bu testlar yordamida o'quvchilarning o'zlashtirishi darajasi tekshiriladi.

Test topshiriqlari ochiq va yopiq tavsiyadagi turlarga ajratiladi. Ochiq topshiriqlarda o'quvchilarning o'zi qisqa shakldagi javobni o'zları yozishadi, yopiq topshiriqlarda esa – o'quvchi unga taqdim etilgan javob variantlari orasidan faqat bitta to'g'ri javobni tanlashi taklif qilinadi. Ayrim vaziyatlarda, albatta bir nechta alohida qismlardan bir butun yaxlitlikni shakllantirish maqsadida, bir nechta to'g'ri javoblar variantlarini tanlasnga ham to'g'ri keladi. Biroq, bu ko'rinishdagi testlar yetarii darajada kam uchraydi, ya'ni bu shakldagi testlarni statistik qayta ishlash qiyin hisoblanadi.

Test topshiriqlarining turlari.

Nisbatan keng tarqalgan, ochiq testlarga misollar keltiramiz: 1-misol. Keltirilgan testni o'qib chiqing, uning tarkibida qoldirilgan joyni to'ldiring:

«Yashil o'simliklarning xloroplastlarida ... yutiladi, ... ajariladi va ... faqat yorug'lik sharoitida ... xosil bo'ladi».

2-misol. «Siyidik ayirish tizimi organlarining tuzilish sxemasi» rasmini qarab chiqing, uning tarkibida keltirilgan matnda sanab o'tilgan organlar va qismlarni toping: ularga mos keluvchi rasmdagi ifodalarni yozing:

- A. Aorta...
- B. Siyidik yo'lli...

C. Siyidik pufagi...

D. Buyrak usti bezi...

E. Quyi kovak vena...

J. Buyrak...

Atamalarni alifbo tartibida yozish (bizdag'i kabi) maqsadga muvoqiq hisoblanadi, ya'ni bunda ishlash osonlashadi. Topilgan harflar ketma-ketlig'i bitta qatorga yozildi. Bu holat tekshiruvchiga testni qayta ishslashda kam vaqt sarflash imkonini beradi.

3-misol. «Siyidik ayirish tizimi organlarining tuzilish sxemasi» rasmini qarab chiqing, siyidik xosil bo'lishi..., uning tashiiishi..., organizmzndan chiqarib yuborilishigacha siydikning vaqtinchcha ushlab turilishi... amalg'a oshuvchi organlarning tartib raqamini ko'rsating.

Kopig testlar – nisbatan juda turli xilda bo'lishi mumkin. Ullardan birida o'quvchillardan faqat o'tilgan materialni esga tushirish talab qilinsa, boshq'a birida esa – tushunchalarni tekshirish va hatto, masalalarni echish topshirig'i beriladi.

Shuningdek, javobning tanlanishi, umumlashtirish, hodisalar va jarayonlar ketma-ketligini topish, bo'yicha testlar o'zaro farqlanadi. Umumlashtiruvchi (birlashtiruvchi) testlarga masalan – tuzilish va funksiya o'rtaсидаги о'заро bog'liqlikni aniqlashga yo'nalturilgan testlarni misol qilib keltirish mumkin, ketma-ketlikni topishga qaratilgan testlarga esa – yurak qisqarish sikllari, jarohat olgan vaqtda birinchi tibby yordam berish ketma-ketlig'i va hakozolar bo'yicha tuzilgan testlarni misol sifatida keltirib o'tish mumkin. Ayrim holatlarda, topshiriqda to'g'ri javobni tanlashda qarama-qarshi harakatharni bajarishga ham to'g'ri keladi – ya'ni, to'g'ri javoblar qatoridan noto'g'risini chiqarib tashlash talab qilinishi mumkin.

Turli xil testlar tiplari haqidagi tasavvurlarni xosil qiliш uchun quyidagi misollar yordamida ko'maklashishimiz mungkin:

1-misol. Fagotsitozni kashf qilgan olimming familiyasini toping.

A.Pavlov I.P.

B. Paster L.

C. Mechnikov I.I.

D. Timiryazev K.A.

Ko'rishimiz mumkinki, bu test qiyin test bo'lib, o'quvchidan faqat kerakli familiyanı esga tushirish va tegishli to'g'ri javob berilgan harfini belgilash talab qilinadi.

Noto'g'ri javoblar berilgan testlar odatta – «*distraktor*» deb nomlanadi. Bunda ushbu testlar o'quvchilarining noto'g'ri javoblarini birdaniga ajratib olmasligi tavsifida tuzib chiqiladi.

Bu yerda distraktor sifatida biologiya bilan bog'liq bo'lmagan nomlanishlardan foydalanimish mumkin emas. Testlarning sifatini tekshirishda distraktorlar ham tekshiriladi.

2-misol. Quyidagi keltirilgan matnlardan «*refleks*» tushunchasi to'g'ri keltirilgan variantni tanlang:

A. Qo'zg'alishga nisbatan ko'rsatiluvchi javob.

B. Markaziy asab tizimi ishtirokida va boshqaruv sharoitida, retseptorlarning qo'zg'alishga nisbatan ko'rsatuvchi javobi.

V. Gormonlar yordamida organlar ishining boshqarilishi xossasi.

G. Organizmnинг ichki muhit doimiligini saqlash xossasi.

Ushbu testda distraktor sifatida A, V va G javoblar taqdim etilgan. Qayd qilish kerakki, distraktorlar orasida refleksning to'liq bo'lmagan holatdagi ta'riflanishi qayd qilingan bo'lib, ko'pagina holatlarda o'quvchilar tomonidan xato variant (A) tanlanadi.

3-misol. Samab o'tilgan qaysi omillar reflekslarga tegishli hisoblanadi?

A. Poyaning yorug'lik tomonga yo'naliishiда egilishi.

B. Asab tołasi bilan bog'langan holatdagi muskularning qisqarishi.

V. Burun shilliq qavatining qo'zg'alishi natijasida aksa urish.

G. Buyrak usti bezining adrenalin gormoni ta'sirida yurak faoliyatining tezlashishi.

4-misol. Sanab o'tilgan organlardan qaysilari ayiruv organicini tashkil qiladi?

A. To'g'ri ichak.

B. Siyidik kanali.

V. Siyidik pufagi.

G. Buyraklar.

Biologiya kursida ko'pgina holatlarda qandaydir nisbatan keng ko'lamdag'i tushuncha yoki harakatlar doirasining tarkibiy qismi hisoblangan bir nechta dalillar yoki hodisalar, belgililar, jarayonlar, operatsiyalarning umumiylashtirilishi qayd qilinadi. Har qanday organlar tizimi o'z tarkibiga bir nechta organlarni qamrab oladi va ularni bitta to'g'ri javob doirasida sanab o'tish qiyin masala hisoblanadi. Ushbu qiyin vaziyatdan chiqib ketish uchun, ushbu

qator tarkibidan tashqarida joylashgan tushunchani mustasno qilish usulidan foydalaniladi. Bunda ushbu qator tarkibiga kiritiluvchi barcha xalqalarni sanab o'tish talab qilinmaydi, shu sababi odatda, distraktorlar son miqdori uchta yoki to'rtta bandlar bilan cheklaniladi.

Amaliyotchi bilishi kerakki, ya'ni biologik testlar orasida rasmlardagi xatolarni topish bo'yicha testlar alohida o'rinn tutadi.

Ushbu usul yordamida o'quvchilarining funksional bog'lanishlar haqidagi bilimlarini tekshirib ko'rish mumkin, shuningdek turli xildagi noto'g'ri ko'rsatilgan holatlar asosida birinchini yordam ko'rsatish usulining to'g'riligini bilishga aniqlik kiritish mumkin. 5-misol. Keltirilgan yurakning rasmiga qarang va unda muhim hisoblangan bitta belgi mavjud emas. Sanab o'tilganlar orasidan ushbu belgini toping.

A. Yarim oysimon klapanlar yo'q.

B. Tavaqali klapanlar yo'q.

C. Klapanlarning yurak bo'machasi tomonga ochilishiga qarshilik ko'rsatuvchi, paysimon tolalar va so'rg'ichsimon muskullar yo'q.

D. Aorta va o'pka arteriyasi yo'q.

Testlar topshiriqlar (masalalar) ko'rinishida ham tuzib chiqilishi mumkin. Buholatda masala shartlariga savollar shakkantiriladi. Keyin esa, ichida bittasi to'g'ri hisoblangan, entimolligi mayjud javoblar variantlari keltiriladi. Aynan, ushbu to'g'ri javobni o'quvchilar topishlari talab qilinadi. Albatta, o'quvchilarining testni ishlashi davomida mulohaza yuritishini tekshirishning iloji mavjud emas, shu sababli testlarning kamchilik jihatini ham shunda hisoblanadi. Biroq, o'quvchini tomonidan qo'shimcha topshiriqlar va savollar berish yo'li bilan tegishi oydinliklarni kiritish amalga oshirilishi mumkin. 6-misol. Masalani yeching: sichqon issiq xonadan sovuq xonaga o'tkazildi. Uning organizmida moddalar almashinuv qanday o'zgaradi?

A. Issiqlik xosil bo'iishiga sarflanuvchi energiya sarfi qiymati ortishi hisobiga kuchayadi.

B. Tashqi muhitning havo harorati pastligi ta'siri hisobiga sekinlashadi.

C. O'zgarishsiz qoladi.

D. Uzlusiz tebranishda bo'lishi qayd qilinadi.

7-misol. Masalani eching: Baqa issiq xonadan sovuq xonaga

o'tkazildi. Bu holat uning tanasida moddalar almashinuvda qanday ifodalandadi?

A. Issiqlik xosil bo'iishiga sarflanuvchi energiya sarfi qiymati ortishi hisobiga kuchayadi.

B. Tashqi muhitning havo harorati pastligi ta'siri hisobiga sekinalashadi.

C. O'zgarishsiz qoladi.

D. Uzlusiz tebranishda bo'lishi qayd qilinadi.

Issiqxonilarvasovuqqonlilarning tanasida moddalar almashinuvini solishtirish asosida, o'quvchilarining ushbu hayvonlarda tashqi muhit haroratiga bog'liq holatda, moddalar almashinuv haqidagi bilimlarni qanchalik darajada to'g'ri bilishlariga aniqlik kiritish imkoniyati tug'iladi.

Bu ko'rinishdagi usullardan o'quvchilarining amalga oshiruvchi tajribalar, jumladan fiziologik tajribalar haqidagi tushunchalarini tekshurishda ham foydalanish mumkin. Bu maqsadda biz to'g'ri javobni tanlash taklif qilinuvchi, eksperimental topshiriq ko'rinishi dagi testlarni taqdim etamiz.

8-misol. O'ng qo'lingizning oldinga ko'taring. Ushbu qo'lingizning ko'rsatkich barmog'ini burningizning uchiga tegizing. Ushbu harakatni amalga oshirishda bosh miyaning qaysi bo'limi ishtirot etadi?

A. Orqa miya.

B. Uzunchoq miya.

C. Miyacha.

D. Katta yarim sharlar po'stlog'i.

Testlar yordamida o'quvchilarida konservativ tafakkurlash darajasi haqida xulosa chiqarish mumkin, shuningdek ularning topshiriq matnini o'qib chiqishi va an'anaviy qaror topishlarga mos kelmaydigan to'g'ri javobni topa olish ko'nikmalar haqida fikr yuritish mumkin. Bu ko'rinishdagi testlarga misol keltiramiz. 9-misol. Agar, odam kuchsiz yoritilgan joyda (xonada) turgan bo'lsa, u holda ko'zning qorachig'i kengligi qanday o'zgaradi?

A. Ko'z qorachig'i torayadi.

B. Ko'z qorachig'i o'zi kengayadi.

C. Agar, xona to'liq qorong'i sharoida bo'lsa, u hola qorachiq kengayadi, agar odam oldin yorqin yoritilgan sharoida bo'lgan

bo'lsa, u holda qorachiq torayadi.

D. Agar, odam oldin to'liq qorong'i sharoitda bo'lgan bo'lsa, qorachiq kengayadi, agar odam oldin yorqin yoritilgan xona sharoitda bo'lgan bo'lsa, u holda qorachiq torayadi.

O'quvchilar odatda, kuchsiz yoritilgan sharoitda ko'z qorachig'i kengayishi haqidagi fikrga ko'nikiq qolishgan, axir ko'z qorachig'i yoritilish darajasi o'zgartirilishiha javoban reaksiya ko'rsatadi va shu sababli, biilish kerakki, odam oldin qanday sharoitda bo'lganligiga bog'liq qorachiq o'zgarishi amalgga oshadi.

Testlardan foydalanish samaradorligi ularni qayta ishlash tezkorigiga bog'liq hisoblanadi. Umumlashiruvchi (birlashtiruvchi) yopiq testlarni rasmiylashtirish turli xilda amalga oshirilishi mumkin, biroq uning odatdagagi tanlov testiga o'tkazilishi nisbatan foydali bo'lib, topshiriqlarning bir xil tipda tuzib chiqilishini ta'minlaydi.

10–misol. Quyidagi organellalar qanday funksiyalarini bajaradi?

1. Ribosomlar.

2. Mitoxondriyalar.

3. Xromosomalar.

A. Hujayrani energiya bilan ta'minlaydi.

B. Irsiy axborotni uzatadi.

C. Oqsil sintezini amalga oshiradi.

Keltirilgan raqam va harflarni organellalarning funksiyalariga mos keluvchi tarzda birlashtiring.

a) 1A, 2C, 3C;

b) 1C, 2A, 3B;

v) 1B, 2C, 3A;

g) 1A, 2C, 3B.

Keltirilgan misoldan ko'rishimiz mumkin, ushbu usulning mohiyati – struktura raqamlar bilan ifodalanadi, funksiyalar esa – bosh harflar bilan ifodalanadi, ehtimolligi mayjud bo'lgan javoblar esa – raqamlar va bosh harflar birligidan tashkil topadi.

Bu tamoyildan birinchi yordam ko'rsatishdagi amalga oshiriluvchi hodisalar, jarayonlar yoki usullar ketma-ketligiga aniqlik kiritishda foydalanish mumkin. Bu yerda hodisalar, usullarning o'zi katta harflar bilan ifodalanadi, javoblarda esa – ushbu harflar asosida u yoki bu ketma-ketlikni tanlash taklif qilinadi. Axir, o'quvchi 11–misol. Qo'ning ochiq sinishida va arteriyadan qon ketishi

sharoitida shifokor yordamiga birinchi yordam berish ishlari ketma-ketligi qanday?

A. Shina qo'yish.

B. Siqib bog'lash yordamida qon ketishini to'xtatish.

C. Jarohatni dezinfektsiyalovchi vosita bilan ishlov berish.

D. Bog'lash.

Birinchi yordam ko'rsatishda bajariluvchi ishlar ketma-ketligini to'g'ri ifodalovchi harflar tartibini ko'rsating.

a) B, V, G, A.

b) A, B, V, G.

v) G, A, B, V.

g) G, V, B, A.

Yopiq testlarni nisbatan tezkorlikda qayta ishlash uchun, odatda test oxirida javoblarning umumiyligini jadvali keltiriladi, bunda shaffof traferat yordamida javoblarni tekshirib chiqish mumkin. To'g'ri javoblar jadvali «*katali*» deb nomланади. Shunday qilib, biz amalga oshirgan topshiriqlarda (1–11) kaltitar quyidagi ko'rinishdagi ega hisoblanadi: 1V, 2B, 3V, 4A, 5V, 6A, 7B, 8V, D, G, 10B, 11A. Bunda raqamlar bilan topshiriqlar tartib raqami va harf bilan esa – to'g'ri javoblar ko'rsatilgan.

4.3. Biologiyadan o'quvchilar bilimini baholashning me'yorlari

Bizning tahminimizcha, bo'lajak o'quvchi hisoblangan amaliyot-chiga quyidagi keltirilgan ma'lumotlar va tavsiyalar qiziqarli hisoblanadi:

a) *Ball shaklidagi baholash* – bu ekspert baholash hisoblanadi. Bunda ekspert sifatida o'quvchi, uslubiyatchi, inspektor yoki oliv o'quv yurtining o'quvchisi o'rin tutishi mumkin. Ball shaklidagi baholashning afzalligi shundaki, – ya'ni ushbu baholash yordamida har qanday hoxlagan ishlari baholash mumkin, bunda nafaqat ishlab chiqarishga oid tavsiyar, shuningdek ijodiy yondoshuvlar shunchaki alohida ko'rsatkichlar bo'yicha emas, balki umumiy holatda, bir butunlikda baholash amalga oshirilishi qayd qilinadi. Axir, o'quvchi yozma yoki og'zaki javoblarni baholashda material bo'yicha o'zlashtirilgan bilimi, berilgan javobning mantiqiy muvofiqligini,

o'quvchining isbot-dalilalar va rad etishlarni to'g'ri tuzib chiq olishini, tahminlarni ayta oishi va to'g'ri yo'ni aniqlay olishini hisobga oladi. Bunda ana'naviy baholash usullari, masalan-o'g'zaki so'rash davomida har doim aks teskari aloqa ta'sir ko'rsatishi qayd qilinadi. O'qituvchi o'quvchining fikrashlarini nafaqat boshidan oxirigacha kuzatib borishi, balki kekarli lahzada unga yordam berishi mumkin. U o'quvchining qanday yangi materialni o'zlashtiriganligiga aniqlik kiritishi, qaysi tushunchalarini qo'shimcha tushintirishlar orqali o'zlashtirishi kerakligini aniqlab oishi, qaysi material esa unga hali etib bormaganligini bila oishi mumkin, ya'ni o'quvchining rivojlanotirilishiya yaqin zonani (L.S. Vigotskiy) aniqlay olish imkoniga ega hisoblanadi. Testlar yordamida bulami amalga oshirish mumkin emas.

Ball shakkidagi baholashning kamchiliqi – bu uning subektiv tavsifga egaligi, ya'ni har doim qandaydir ekspertrning fikrlari yoki eng yaxshisi bir nechta mustaqil ekspertrarning fikrlari e'tiborga olinishi bilan bog'liq hisoblanadi. Bunday holatda, o'z-o'zidan turli xil ekspertrlar bitta holatni turli xilda baholashlari ham mumkin.

b) O'quvchilarida bilimlarning obektiiv tarzda baholanish usulularning qidirilishi Amerikalik olim J.M.Rays tomonidan analoga oshirilgan bo'lib, u tomonidan 1894-yilda testlarga murojaat qilingan. Qayd qilib o'tish kerakki, bu yo'nalihsdag'i fikrlar biroz oldinroq, ya'ni 1864-yilda Angliyalik olim Jon Fisher tomonidan ilgari surilgan. Test amaliyoti 1914-yildan boslangan bo'lib, ayrim man'lakatlarda, jumladan AQSHda testlar keng ommalashgan.

Odatda, testlarda faqat biiimlar, ko'nikma va malakalarning alohida tarkibiy elementlarigina hisobga olinadi, biroq albatta testlar ushu elementlarning obektiiv o'ichovi hisoblanadi, ushu asosda o'quvchilarining bilimlari haqida umumiy xulosalar chiqarish mumkin hisoblanadi. Bundan tashqari, testlar sinovdan o'tkaziluvchilarini tekshirib chiqishda ko'p vaqt sarfini talab qilmaydi va qisqa vaqt davomida katta hajmdagi materiallar bo'yicha o'quvchilarining biiimlarini tekshirib chiqish imkonini beradi.

Test o'tkazish statistik tadqiqot usulublaridan foydalanish imkonini beradi, shuningdek olingan natijalarining ishonchliigini aniqlash, hatto ma'lum darajada o'quvchilarining tayyorlarlik darajasini baholash imkonini tug'iladi, biroq testlar shaxsning ijodiy potentsialini

hisobga olishni ta'minlab bermaydi.

Axir, barcha savollarga beriladigan javoblar oldindan ekspert tomonidan dasturlashtirib chiqiladi, shu sababli sinovdan o'tkaziluvchining yangilikka intiluvchanlik, ijodkorlik (*novator*) qobiliyatlar natijalari haqida xulosaga kelish imkonini beradi, biroq testlar odamning ushbu yechimlarga qanday kelganligi haqida bilish imkonini bermaydi. Testlar yordamida o'quvchilarining erkin so'zlay olishi (nutqi), «*fanni til bilan ifodalay olishin*», masalan – obektning anatomik (fiziologik va hakozo) tuzilishini savodxonlik bilan tafsifay olishini tekshirish mumkin emas. Shu sababli, shahodatdan o'tkazish (attestatsiya) texnologiyalari u qanchalik yangi, ilg'or bo'lishiga qaramasdan, faqt qandaydir bitta uslubga asoslanishi mumkin emas. Bunda o'ylangan tarzdag'i sintez zarur hisoblanadi, Shu sababli har bir o'qituvchi (jumladan, amaliyotchi ham) bir qator texnologiyalarni o'zgartirishi talab qilinib, kerak bo'lgan vaziyatlarda ulardan belgilangan pedagogik vazifani hal qilish uchun eng yuqori darajada mos keluvchi o'ichov variantini tanlab olishi mumkin, o'z navbatida belgilangan vazifaning nisbatan aniq hal qilinishi va o'zi tarbiyalayotgan o'quvchilarining to'g'ri attestatsiyadan o'tkazilishiga erishiladi.

4.4. Biologiya bo'yicha məktabda bitiruv imthoni

Bu nazorat shakli o'z tarkibiga nazariy va shuningdek, amaliy tavsifga ega topshiriqlarni qamrab oladi. Aniq biologik o'quv kursini o'qitishning tugallanishi bo'yicha amalgga oshiriladi. Keltirilgan nazorat shakli o'qituvchiga biologiya bo'yicha nazariy bilimlarning va shuningdek, o'quvchilarining biologik obektlar bilan ishlash amaliy ko'nikmalarni darajasiga aniqlik kiritish imkonini beradi. Intihon maxsus tuzib chiqilgan bilet savolari bo'yicha amalgga oshiriladi. Har bir bilet tarkibida uchtadan savol bo'lib, ulardan ikkitasi nazariy va bittasi amaliy tavsifga ega hisoblanadi. Quyida «BIOLOGIYA» maktab kursi bo'yicha o'quvchilarida nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarning nazorat qilinishi uchun bir necha bilet variantlarini keltiramiz:

1–bilet.
1. Hujayra – barcha tirk tabiat olamlariga mansub organizmlarning tuzilishi va funksiya birligi sifatida.

2. Organk olamning paleontologik, solishtirma-anatomik, embriologik isbot-dalillari.

3. Hasharotlar yordamida changlanuvchi o'simliklar gullarining tashqi tuzilishini qarab chiqish va hasharotlar yordamida changlanishga moslashishlarni aniqlash. Bu molashishlarning qanday paydo bo'lganligini tushintirib berish.

2–bilet.

1. O'simlik hujayrasining tuzilishi va hayot faoliyati.

2. Aromorfoz – bu evolyutsiyaning asosiy yo'naliishi. Umurtqali hayvonlarning evolyutsiyasida asosiy aromorozlar.

3. Xona o'simliklarda barglarning joylashishini qarab chiqish va ularning yorug'lik nurini yutishga molashishi.

3–bilet.

1. Hayvon hujayrasining tuzilishi va hayot faoliyati.

2. Tur va uning mezonlari.

3. Tahliiy chatishtrishning vazifalari.

4–bilet.

1. Hujayra nazariyasining asosiy qoidalari, uning ahamiyati.

2. Organizmlarning jinsiy ko'payishi. Urug'lanish va uning ahamiyati.

3. Bitta avlodga mansub o'simlik turlarining gerbariy namunalarini qarab chiqish va ularga solishtirma tavsif berish.

5–bilet.

1. Hujayraning kimyoviy tarkibi. Uning hayot faoliyatida organik moddalarning ahamiyati.

2. Modifikatsion o'zgaruvchanlik, uning organizmlar hayot faoliyatidagi ahamiyati.

3. Gemofiliyaning (qonning ivimasligi) irlylanishi masalasini hal qilish.

6–bilet.

1. Viruslar, ularning tuzilishi va funksiyasi. Viruslar – havfi kasalliklar qo'zg'atuvcisi sifatida.

2. O'simliklar evolyutsiyasida asosiy aromorozlar.

3. Kaktusning tashqi tuzilishini qarab chiqish va uning hayotini

qurq'oqchilik sharoitiga moslashish belgilarin topish. Ushbu moslashishlarning evolyutsiya jarayonida paydo bo'lishini tushintirish.

7–bilet.

1. Moddalar almashinuvi va hujayrada energiyaning o'zgarishlari. Fermentlar va ularning moddalar almashinuvidagi roli.

2. *Idioadaptatsiya* – bu organic olamning evolyutsiyasi yo'naliishlaridan biri sifatida. Qusharda va yopiq urug'li o'simliklarda idioadaptatsiyaning ahamiyati.

3. Digibrid chatishtrishda mustaqil irsiylanishning vazifalari va ahamiyati.

8–bilet.

1. O'simlik va hayvon hujayralarida energiya almashinuvi va uning ahamiyati. Mitokondriyalarning roli.

2. Evolyutsiyaning harakatlantiruvchi kuchlari, ularning yangi turlar xosil bo'lishidagi ahamiyati.

3. Akvariumda yashovchi jonzotlarni qarab chiqish va ozuqa zanjirini tavsiflash. Nima uchun akvariumda ozuqa zanjiri qisqaliqini tushintirib berish.

9–bilet.

1. Plastik almashinuv. Oqsillar biosintezi. Biosintez reaksiyalarining matritsa tavsifi.

2. Irsiy o'zgaruvchanlik va uning turlari. Mutatsiyalarning turlari va ularning sabablari. Mutatsiyalarning organic olam evolyutsiyasida va selektsiyadagi ahamiyati.

3. Akvariumda yashovchi jonzotlarni qarab chiqish va uning tarkibida uglerod almashinuvi sxemasini tuzib chiqish. Nima uchun baliqlarni tizimli tarzda oziqlantirib turish talab qilinishini tushintirib berish.

10–bilet.

1. O'simliklarda plastik almashinuvning o'ziga xos xususiyatlari, fotosintez. Xloroplastlarning tuzilishi va roli.

2. Odam evolyutsiyasi. Odamning sut emizuvchilardan kelib chiqqanligining isbot-dalillari.

3. Akvariumda yashovchi jonzotlarni qarab chiqish va uning tarkibida kislород almashinuvi sxemasini tuzib chiqish. Nima uchun akvariumga davriy ravishda kislород haydar turish kerakligini tushintirib berish.

11–bilet.

1. Hujayraning bo‘linishi – organizmlarning ko‘payishi, o‘sish va rivojlanishining asosi sifatida. Yadro va xromosomalarining hujayra bo‘linishidagi roli. Mitoz va uning ahamiyati.
2. Harakatlantiruvchi kuchlar va odam evolyutsiyasining asosiy bosqichlari. Antropogenezin biologik va ijtimoiy omillari.
3. Bug‘doy yoki so‘lining ikkita navining (yoki xona o‘simliklarining ikkita turini) boshhoqlarini o‘zar solishtirish va ular o‘rtasidagi fenotip bo‘yicha farqlanishlarni aniqlash. Bu farqlanishlarning sababini tushintirib berish.

12–bilet.

1. Meyoz, uning ahamiyati va mitozdan farqlanishi. Gametalarda va somatik hujayralarda xromosomalar to‘plami.
2. Populyatsiya – turning tuzilish birligi sifatida. Populyatsiya son midori. Populyatsiya son miqdorining tebranishlarining sababları. Populyatsiya tarkibida individularning o‘zar munosabatlari, bitta va har xil tur populyatsiyalari o‘rtasidagi o‘zar munosabatlari.
3. Loviya urug‘ining yoki bitta yosh davriga oid qandaydir o‘simlikning barglaridagi o‘zgaruvchanlik belgilari qatorini tuzib chiqish. Belgining o‘zgaruvchanlik qonuniyalarni aniqlash.

13–bilet.

1. Organizmlarning jinsiy ko‘payishi. Urug‘lanish va uning ahamiyati.
2. Irsiyat, uning moddiy asoslari. Irsiyani o‘rganishning gibridologik usulublari.
3. O‘simlik hujayrasining tayyor mikropreparatini qarab chiqish. Uning asosiy qismlari va fuknsiyalarini aytilib berish.

14–bilet.

1. Organizmlarning yakka tartibdagi rivojlanishi. Hayvonlarning embrional rivojlanishi (lantsetnik misolda).
2. Birinchi avlod gibrildarining bir xilligi qoidasi. Dominant va retsessiv belgilarning irsiylanishi.
3. Tajriba yordamida kartoshka tugenagida fermentlarning mayjudligini aniqlash.

15–bilet.

1. Murtakkadan keyingi rivojlanish: bevosita va bilvosita.
2. Ikkinchisi avlodda belgilarning ajralishi qonuni.

3. Ma’lum bo‘igan DNA ketma–ketligi asosida iRNK tuzilishini aniqlash bo‘yicha masalanı yechish.

16–bilet.

1. Genlar va xromosomalar – irsiyatning moddiy asosları sifatida. Ularning tuzilishi va funksiyasi.
2. Biogeotsenozi – ekologik tizim sifatida, uning tarkibiy xalqalari, ular o‘rtasidagi o‘zar bog‘lanishlar.
3. Jins bilan bog‘liqlikda irsiylanish bo‘yicha masalanı yechish.

17–bilet.

1. Belgilarning mustaqil holatda irsiylanish qonuni. Geterozigotalarda belgilarning tarqalishi sababları.
2. Emanzor biogeotsenozlari, ularning organizmlar hayotidagi ahamiyati.

3. Piyoz po‘sti uchki qismi hujayralari mikropreparati yordamida mitoz jarayonini mikroskop ostida qarab chiqish va interfaza holatidagi hujayralarni topish, ularni chizib olish, profaza belgilarinini nomlab chiqish.

18–bilet.

1. Bingalikda irsiylanish qonuni, uning moddiy asosları. Krossинг governing ahamiyati.
2. Ninabargli o‘rnmonlar biogeotsenozi. Ozuqa zanjiri.

3. Piyoz po‘sti uchki qismi hujayralari mikropreparati yordamida mitoz jarayonini mikroskop ostida qarab chiqish va protaza holatidagi hujayralarni topish, ularni chizib olish, profaza belgilarinini nomlab chiqish.

19–bilet.

1. Jinsiy xromosomalar va autosomalar. Jinsiy tipda bingalikda irsiylanish.
2. Suv havzasi biogeotsenozi, ozuqa zanjiri.
3. Piyoz po‘sti uchki qismi hujayralari mikropreparati yordamida mitoz jarayonini mikroskop ostida qarab chiqish va metafaza holatidagi hujayralarni topish, ularni chizib olish, metafaza belgilarinini nomlab chiqish.

20–bilet.

1. Genlarning o‘zar ta’siri va ko‘plikdag‘i ta’siri – genotipning bir butunligi asosi sifatida.
2. Ekotizimda produtsent, konsument, redutsent organizmlarning o‘zar nisbati.

3. Tajriba yordamida kartoshka tuginagida mavjud bo'lgan, vodorod peroksidini parchalovchi fermentning oqsil tabiatga egaligini isbotlash. Barcha fermentlarning kimyoviy tabiat qanday?

21–bilet.

1. Odam genetikasi. Odam irsiyatini o'rganish uslublari. Irsiy kasalliklar va ularning oldini olish.

2. Biogeotsenoza o'z-o'zini boshqarish. Turlarning xilma xilligi, ularning birgalikda yashash muhitiga moslashishi.

3. Akvariumda balqlarni qarab chiqish va xilma xil turlarni aniqlash, nima uchun xilma xil turlar individuarining o'zaro chatishmasligini tushintirib berish.

22–bilet.

1. Genotip va tashqi muhitning qishloq xo'jaligi ekinlari va chorvachilik hayvonlarining maxsuldorigi oshirilishidagi roli.

2. Biogeotsenozdargi o'zgaruvchanlik. Biogeotsenozlarning o'rin almashinishing sabablari. Biogeotsenozlarni muhofaza qilish.

3. Dukkakli ekintarning ildiz tugunaklarini yangi holatda preparattayyorlab qarab chiqish. Tugunak bakteriyalarining dukkakli o'simliklar bilan o'zaro munosabatini tafsiflash. Ushbu organizmlar ham tarkibiga kiruvchi ozuqa zanjirini tuzib chiqish.

23–bilet.

1. O'simliklarning navlari va hayvonlar zotlarning xilma xilligi – olimlar tomonidan amalga oshiriluvchi seleksion ishlari natijasi sifatida.

N.I.Vavilovning irlsy o'zgaruvchanlikda gomologik qatorlar qonuni.

2. Agrotsenoz (agroekotizm), uning biotsenozdan farqlanish jihatlari. Agrotsenozar maxsuldotligini oshirish yo'llari.

3. O'z organizmning fenotipini tafsiflang va masalan, soch rangi, ko'z rangi, bo'yabi bir qator belgilar bo'yicha genotip tarkibi haqidagi fikrlaringizni bayon qiling.

24–bilet.

1. O'simliklar va hayvonlar seleksiyaning asosiy uslublari: gibridizatsiya va su'niy tanlash.

2. Ekotizimda moddalarining aylanishi, moddalar aylanishini ta'minlovchi energiyaning asosiy manbai.

3. Genetik kod jadvalidan foydalaniib, oqsil molekulasi tarkibida aminoksitolalar ketma-ketligini aniqlash masalasini yechish.

25–bilet.

1. Geterozis, poliploidiya, mutagenez va ulardan selektsiyada foydalanimish.

2. Odam faliyati ta'sirida biogeotsenozlarning o'zgarishi (o'rmonlar, botqoqliklar yoki suv havzalari misolida).

3. Bargning qoplovchi to'qimasi mikropreparatini mikroskop ostida qarab chiqish va uning karbonat angidrid gazining kirishi, suvning bug'lanishini ta'minlovchi tuzilishining o'ziga xos jihatlariga oydinlik kiritish.

26–bilet.

1. Tabiiy va su'niy tanlanish, ularning o'zaro o'xshashligi va farqlanishlari, ularning organik olamda turlarning turli xilligi yuzaga kelishidagi roli.

2. Biosfera va uning chegaralarini. Dengiz tubida, litosferada va atmosferaning yuqori qatlamaida hayat tarkibining kambag'alligi sabablarini.

3. Bargning ko'ndalang kesimi mikropreparatini mikroskop ostida qarab chiqish va asosiy to'qimani aniqlash, uning tuzilishi, fotosintezeiga moslashish belgilariiga aniqlik kiritish.

27–bilet.

1. O'simliklarning navlari va hayvon zotlari su'niy populyatsiyalar sifatida, ularning tabiiy populatsiyalarga o'xshashligi va o'zaro farqlanishlari.

2. Biosferada biomassa yoki tirik modda. Biosferada biomassaning taqsimlanish qonuniyatları.

3. Taqdim etilgan gerbariy materiallari, kolleksiyalar, mulyajlar, tuluplar asosida oziqlanish zanjirini tuzib chiqish, uning tarkibida modda va energiyaming harakat yo'nalishiga aniqlik kiritish. Nima uchun ushbu ozuqa zanjiri tarkibida boshlang'ich xalqa o'simliklar hisoblanishini tushintirib berish.

28–bilet.

1. Tabiatda turlarning xilma xilligi va uning sabablari. Odamning faoliyatining turlarning xilma xilligiga ta'siri. Biologik progress va biologik regress.

2. Tirik modda, uning moddalar aylanishidagi va biosferada energiya o'zgarishlaridagi roli.

3. Mikroskop ostida elodeya bargini qarab chiqish. Hujayralarda

xloroplastlarni topish va uning fotosintezdagi rollini tushintirib berish.

29–bilet.

- Organizmlarning yashash multitiga moslashishlari, uning sababları. Organizmlarning moslashishining nisbiy tavsifga egaligi.
- Odam faoliyati ta'sirida biosferaning o'zgarishi. Biosferada muvozanatning saqlab qolinishi – uning bir butunligining asosi sifatida.
- Irsiyaning oraliq tavsifa egaligi masalasini yechish.

30–bilet.

- Ekologik va geografik tavsifa turlarning xosil bo'lishi, ularning o'xshashligi va o'zaro farqlanishi.
- V.I. Vernadskiyning biosfera haqidagi ta'limoti. Tirk moddaning biosferada o'zgarishlardagi etakchi roli.

3. Monogibrid chattshtirish masalasini echish.

Amaliyotchilarning diqqat-e'tiborini quyidagi holatga qararamiz: ya'ni, o'quvchilarning biliimini tekshirishda biologiya bo'yicha

yakuniy nazorat o'tkazish maqsadida tuzib chiqilgan, yuqorida keltirilan bilet variantlari – namuna hisoblanadi va amaliyotchi tomonidan test topshiriqlari va bilimlarni tekshirish hamda o'quvchilarning biologik obektlar bilan ishlash davomida amaliy ko'nikmalarini nazorat qilish maqsadida boshqa turdag'i topshiriqlarni ishlab chiqish uchun mo'jal olish sifatida xizmat qiladi.

Amaliyotchilarning o'quvchilar bilan «Odam va uning salomatligi» o'quv kursi bo'yicha ish olib borishlari davomida quyidagi tarkibga ega bo'lgan topshiriqlarni tuzib chiqish mumkin:

Masalan:

Keltirilgan matnda qavslarda to'g'ri javobning tagiga chizing: «Gripp – bu faqat (havoda, tirik organizmlar tankibida) faol holada bo'ishi qayd qilinuvchi (viruslar, bakteriyalar) ta'sirida qo'zg' atiluvchi yuqumli kasallik hisoblanadi. Gripp qo'zg' atuvchisi odam organizmiga tushadi va uni (antitelo, antigen) zararsizlantirishga kirishadi. Agar, gripp qo'zg' atuvchisi zararsizlantirilmasa, hujayra uni tutib oladi va (to'liq yo'q qiladi, zararsizlantirmaydi). Virusning genetik tuzilishi hujayraning (membranası, yadrosi) tarkibiga kirib boradi. Hujayra virusga (qarshilik ko'rsatadi, bo'yasinadi) va virus qismi ishlab chiqariladi, o'z navbatida hujayra (saqlanib qoladi, buziladi). Virus qismi boshqa hujayralarni zararlantiradi va

ularning ham buzilishiga olib keladi».

ILovalar

Sinfidan tashqari mashg'ulot o'tkazish. Anjuman - dars

Mavzu: «QON – HAYOT MANBAI»

Vazifalar: Qonning asosiy elementlarning tarkibi va funksiyalari haqidagi bilimlarni tizinga solish va umumlashtirish, mavzu bo'yicha tushunchalar va atamalarning o'zlashtirilishi tekshirish, barcha turdag'i qon ketishlarda birinchi tibbiy yordam ko'rsatishni bilishni shakllantirish, bilishga oid biologik masalalarni hal qilish.

Jihozlar: televizor, videomagnitofon, «Qon – hayot manbai» fil'midan ayrim qismlar, «Qon quyish sxemasi», «Qonning shaklli elementlari» jadvali, siqish uchun rezina shlanglar, bint, dor prepatrari qadog'i.

Tashkiliy qism guruhiга:

- O'quvchilar ikkita sinfga ajratiladi.
- Chiqish qiluvchilar bir-birini ko'rib turishlari uchun, xonada partalar ikki qator qilib joylashtiriladi.
- Barcha o'quvchilar oq xalat kiyishadi, ularga kasblar: ya'ni, kardiolog-shifokor, gematolog-shifokor, kriminalist, Novosibirsk tibbiyot akademiyasi o'qituvchisi, Peterburg tibbiyot akademiyasining Gematologiya kafedrasi mudiri, zoolog, botanik, Tibbiyot Oliy o'quv yurti talabasi va hakozo yozuvlar qayd qilingan beyjiklar taqiladi.
- Ishtirot etuvchi mehmonlarga simpoziumni o'tkazish bo'yicha kitobcha tarqatiladi.

DARSNING BORISHI

- Simpozium rahbari:** Bugun biz «Qon – hayat manbai» mavzusida simpozium o'tkazamiz. Majlisda talabalar, shifokorlar, Novosibirsk, Moskva va Sankt-Peterburgdan tashrif buyurgan, Rossiya Tibbiyot Oliy o'quv yurtlari o'qituvchilar, Shuningdek tarkibi-da Germaniya, Fransiya va AQSH Tibbiyot Oliy o'quv yurtlaridan tashrif buyurgan talabalar, o'qituvchilar ishtirot etuvchi mehmonlar qatnashmoqda.
 - Simpozium uchun epigraf sifatida Xitoylik donishmandning quyidagi jumlahalaridan foydalaniлади:
- «Menga so'zlab ber va men esdan chiqaraman, menga ko'rsatib ber va men esdan saqlab qolaman. Mening o'zimga harakat qilishga

qo'yib ber va men o'rganib olaman».

Bugun biz so'zlab beramiz, ko'rsatamiz va o'zimiz harakatni amalga oshiramiz.

II. (O'ritani olib boruvchi so'zni ishtirokchilardan biri – «Moskva Tibbiyot universitetining rektori» ga beradi).

Moskva Tibbiyot universitetining rektori: «Qonning shaklli elementlari» mavzusida ma'ruza qiladi (chiqish davomida «Qonning shaklli elementlari» jadvalini namoyish qiladi, Shuningdek Rossiya olimlarining immunitet sohasida amalga oshirgan ishlari haqidagi videolavhalar ko'rsatiladi).

Qonning shaklli elementlari

Nomlanishi	Eritrotsitlar	Leykotsitlar	Trombotsitlar
Tuzilishi	Yadrosov hujayra, membrana bilan qoplangan, tarkibida gemoglobin mavjud	Rangsiz hujayra, tarkibida yadro mayjud	Yadrosov qizil qon hujayralari
1 mm ³ hajmdagi miqdori	5000 000 tagacha	4000–9000	180 000–32 000
Hayot davomiyigi	120 kun	1 kundan bir necha kungacha	5–8 kun
Funksiyalari	O ₂ va SO ₂ tashiydi	Himoya (fagotsitoz, immunite)	Qonning ivishi, qon tomirlarning qayta tiklaniishi

1. *Qoming tarkibi.* Sentrifugalash davomida qon ikkita qavatga ajraladi: ya'ni, yuqorigi qavat – *plazma* deb nomlanuvchi kuchsiz sarg'ish tusli suyuqlig va pastki qavat – *eritrotsitlar* tashkil qiluvchi, qizil tusli cho'kma qavati. Plazma va eritrotsitlar qavati oraliq'i chegarasida yupqa, yorqin tusli qavat joylashtigan bo'lib, uning tarkibi leykotsitlar va trombotsitlardan tashkil topadi. Plazma va qonning shaklli elementlari o'rasisida oddiy nisbat *gematokrit* deb nomlanadi. Periferik (isirkulyatsiyalanuvchi) qon tarkibida plazma qon hajmining 55–60% qismini tashkil qiladi, shaklli elementlar esa – 40–45%oni tashkil qiladi, zahira holida yig'iluvchi qon tarkibida aksinchcha qiymatdagi nisbat qayd qilinadi.
2. *Eritrotsitlar.* Ularning xossalari va bajaruvchi funksiyalari.
3. *Leykotsitlar.* Leykotsitlarning assosan ikkita sinfi mavjud hisoblanadi: granulotsitlar (donador leykotsitlar) va agranulotsitlar

(donador bo'lgan leykotsitlar).

Granulotsitlar neytrofillarga (70% qismi) – ya'ni, kasallik qo'zg'atuvchi bakteriyalarni yutuvchi va qayta ishlovchi faol fagotsitlarga, allergiya sharoitida miqdori ortuvchi – eozinofilarga (1%), geparin va gistantin ishlab chiqaruvchi – bazofillarga (0,5%) ajratiladi. Barcha granulotsitlar tarkibida qislarga ajralgan yadro va donador tsitoplazma majud bo'lib, amyobasimon harakatlanadi. Agranulotsitlar tarkibida ovalsimon shakldagi yadro va donador bo'magan sitoplazma mavjud bo'lib, ular bakteriyalar va boshqa yirik o'schamli zarrachalarni faol tarzda yutuvchi – monotsitlar (4%) va dumaloq shaklga ega bo'lgan, himoya funksiyasini bajaruvchi (antitelo xosil qiluvchi), shuningdek o'sma hujayralari xosil bo'lishi yoki organ va to'qimalarning ko'chirib o'tkazilishida qarshilik holatini yuzaga keltiruvchi – limfotsitlar (24%) sinflariga ajratiladi.

4. *Trombotsitlar* – yadrosov, qonning shaklli elementlari bo'lib, qiyshiq shaklga ega va qonning ivishida muhim rol o'yaydi. (*Sidr tarkibidan* («Xalq ta'llimi uchun videoqomusnomasi», «Kvart» studiyasi tomonidan (Rossiya) ishlangan «Odam anatomiysi va fiziologiyasi» video lavhalarini namoyish qilinadi).

5. *Qonning shaklli elementlarning ahaniyati.*

III. Simpozium rahbari so'zni Drezden Tibbiyot akademiyasi rektori rolini o'ynayotgan o'quvchiga beradi.

Drezden Tibbiyot akademiyasi rektori qon quyish haqida ma'ruza qiladi.

1. *Qon sinflarining aniqlanishi tarixidan.* Qon quyilishida muvafaqiyatsizlik va og'ir oqibatlarga olib kelish holatharinig sababi 1901-yilda Avstriyalik olim Landshteyner tomonidan va 1903-yilda Chekxiyalik olim Yanskiy tomonidan qayd qilinadi. Karl Landshteyner tomonidan odam eritrotsitlarida *agglutinogen* (agglyutinatsiya reaksiyasi davomida ishtirot etuvchi antigen) mayjudligi aniqlangan va qon zardobi tarkibida tegishli *agglutinin* mayjudligi tahmin qilingan. Jumladan, «A» va «B» agglutininin va «O» va «AB» agglutininin aniqlangan.

Turli xil odamlarning qoni tarkibida ular bittadan bo'lishi yoki bo'lmasi ligi ham mumkin. Har bir odamning qoni tarkibida turli xil nomdagi agglutinogen va agglutininlar mavjud hisoblanadi. Odamlarda ular to'rtta kombinatsiyada bo'lib, qon sinflarini tashkil

qiladi. Qon sinflarini kashf qilganligi uchun K.Landshteyner Nobel mukofotini oлган.


I (O) sinf – eritrotsitlarda aglyutinin yo‘q, plazma tarkibida « α » va « β » aglyutinin mavjud;

II (A) – eritrotsitlarda aglyutinogen «A» va plazmada – aglyutinin « β » mavjud;

III (V) – eritrotsitlarda aglyutinogen «B» va plazmada – aglyutinin « α » mavjud;

IV (AV) – eritrotsitlarda aglyutinogen «A» va «B» mavjud va plazmada – aglyutinin mavjud emas;

Qon quyish sxemasi.



I qon sinfiga ega odamlarga faqat ushbu qon sinfini quyish mumkin. Shuningdek, I qon sinfiga ega odamlar qonini barcha sinfiga kiruvchi qonga ega odamlaiga quyish mumkin. Shu sababli, I qon sinfiga ega odamlar – *universal donorlar* deb nomlanadi. IV qon sinfiga ega odamlarga esa – barcha sinfdagi qonni quyish mumkin va shu sababli bu odamlar – *universal' recipientlar* deb nomlanadi. Hozirgi vaqtida keltirilgan to‘rtta qon sinfigidan tashqari ko‘p sondagi boshqqa qon sinflari ham mavjudligi aniqlangan. Ulardan ayrimlari juda kam uchraydi va bor-yo‘g‘i butun dunyoda 1–2 ta odanda qayd qilingan.

3. *Rh-omil*. Hozirgi vaqtga qadar ABO tizimiga kiritilmagan 200 dan ortiq turli xil aglyutinogenlar aniqlangan. Ulardan biri rezus omil (Rh) hisoblanadi va bu omil 1940-yilda Landshteyn va Viner tomonidan oldindan tarkibiga rezus makaka eritrotsitlari kiritilgan quyonlardan olingan qon zardobi yordamida aniqlangan. Yangi aniqlangan omilning odam eritrotsiti va rezus-makaka eritrot-

sitlariда о‘xshashligi asosida – «*rezus – omil*» (Rh) deb nomlangan. 85% odamlar qoni tarkibida rezus-omil mavjud hisoblanadi va bu odamlar qoni *musbat-rezus* (Rh^+) deb nomlanadi. 15% odamlar qoni tarkibida rezus-omil mavjud emas va bu odamlar qoni *manfiy-rezus* (Rh^-) deb nomlanadi.

4. *Donorlikning tibbiyat uchun ahamiyati*. Qon topshirish bo‘yicha rekord Amerikalik Alen Doster tomonidan o‘rnatilgan bo‘lib, u 23 yil davomida 466 litt qon topshirgan.

IV. Simpozium rahbari qon quyish laboratoriysi laborantiga navbat beradi va talabalardan qon sinfini aniqlashni taklif qiladi.

Laborant qon sinflarini aniqlash uslubiyatini tushintirib beradi va talabalardan bir martalik foydalananish uchun mo‘ljallangan asboblar yordamida olingen qon asosida ushbu amaliyotni ko‘rsatib beradi.

V. Simpozium rahbari har bir delegatsiyaga bilishga oid vazifalarini hal qilishni tavsiya qiladi.

Namunaviy masalalar va javoblar variantlari
1-masala. Odam kasallikka chalindi. Oq‘riqning joylashish joyi va tavsifi bo‘yicha shifokor kasalda chuvalchangsimon o‘simtaning yallig‘lanishini tahmin qildi (appenditsit). Bemorda tezda qon tahili amalga oshirildi. Tahmin qilib ko‘ring, nima uchun shifokor bemorni tezda jarrohit amaliyoti bo‘yicha davolashga tavsiya qildi? («*Shifokor-tahab»*ning javobi: *qon tahili matjalari ko‘rsatishi cha, bemor qonida leykotsitlar miqdori ortib ketgan, bu holat jarohit amaliyoti o‘tkazilishi zarurligini belgilab beruvchi qo‘shimcha omil hisoblanadi*).

2-masala. Maktabda o‘quvchi esnik oynasini sindirib qo‘ydi. Uning qo‘li jarohatlandi. Jarohatdan dastlab qon favvara kabi otlib chiqdi, keyin esa – yorqin qizil rangli qon pul’s tavsifida oqib chiqsa boshladi. Qaysi tomir jarohatlangan? Jarohatlangan kishiga qanday tibbiy yordam ko‘rsatilishi talab qilinadi?

(«*Tez yordam*» shifokorining javobi: *O‘roming ogish tavsiflari bo‘yicha arteriya qon tomiri jarohatlanganligini tahmin qilish mumkin, bunda jarohat tepa qismidan siqib bog’lash tavsiya qilinadi, Shuningdek sterilangan bog’lam qo‘yiladi va «tez yordam» chiqriladi*).
3-masala. Jinoyatchi jinoyat izlarini yo‘qotish maqsadida jablanuvchining qoni tekkan kiyimlarini yoqib tashladi. Biroq, tib-

biy-sud ekspertiza tahlillari natijalari kul tarkibida qon mavjudligini aniqladi. Qanday qilib?

(«Kriminalist») javob beradi: *kul tarkibida yongan obekning kinyoviy tarkibiga kiruvchi kinyoviy elementlar mavjud hisoblanadi.*

Qon tarkibida gemoglobin tarkibiga kiruvchi temir moddasi ko'p bo'lsa, demak yondirilgan kryim qon dog'lariga ega hisoblanligini tahrin qilish mumkin.

4-masala. Bemorning gemoglobin miqori past hisoblanadi. Temir moddasi tanqisligi asosida kelib chiquvchi kamqonlik (*anemiya*) qayd qilindi. Siz unga dor sifatida nimani tavsija qilgan bo'lardingiz va shuningdek, stolda turgan qanday mevani tavsija qilgan bo'lardingiz? (stolda «Bronximkum» tabletkasi, «Anal'gin», «Fenyul's», «Revit» vitamini, gematogen, olma, anor va pomidor mavjud).

(«Shifokor-gematology») javob beradi: *har bir dor vositasiغا tafsif beradi: jumladan, «Bronximkum» tabletkasi – yo'talga qarshi dorি preparati, «Anal'gin» – og'riq goldiruvchi dori, «Revit» – vitaminlar to'plami hisoblanadi, gemoglobin oshirish uchun esa – gematogen, olma va anormi tavsija qilish mumkin. Javobga botanik qo'shimcha qildi: mevalar ichida temir moddasi ko'pligi bo'yicha rekordchi meva – bu xurmo hisoblanib, uning Vatani – Xitoy hisoblanadi va Evropaga XVI asrda keltirilgan.*

5-masala. Odamning qonining rangi qizil, boshoyoqli mollyus-kalarda qonning rangi – havorang. Qonning rangi shu darajada farqlanishini nima bilan izohlash mumkin?


(«Zoolog») javob beradi: *boshoyoqli molluskalarda qon tarkibida genotsiamin pigmenti mayjud hisoblanadi, ma'lumki genotsiamin pigmenti tarkibida mis moddasi ko'p bo'lib, bu modda qonga havo rang tus beradi.*

6-masala. Qonning ivishi – bu organizmning himoya reaksiyasi bo'lib, biroq qonning qon tomirlar ichida ivib qolishi kasalligi mavjud hisoblanadi. Nima uchun bu kasallik odam organizmi uchun havfli hisoblanadi.

(«Shifokor-talaba») javob beradi: *Qonning qon tomirlarda tiqilib qolishi bo'lib, ya'ni tromb – bu insul't – tromboz, miyada qon tomirlarning tiqilib qolishi, infarkt – yurak vena qon tomirlarda qoning tiqilib qolishi kasalliklariga olib keladi, bunda hayot uchun muhim ahamiyatga ega organlarda qon aylanishi buziladi.*

VI. Simpozium rahbari krossvord yechish bo'yicha Rossiya va horijiy delegatsiya vakillarini musobaqa chaqiradi.

KROSSWORD



Gorizontal yo'nalishda:

3. Qon quyiluvchi odam (*Retseptient*); 4. Eritrotsitarning bir-biriga yopishib qolish hodisasi (*Agglyutinatsiya*); 6. Immunitetning fagoitsitar nazariyasi muallifi hisoblangan rus olimi (*Mechnikov*); 8. Yurakning ishini kuchaytiruvchi gormon (*Adrenalin*). 10. Qonning ikkita yopiq tizim bo'ylab harakatlantishimi kashfi qilgan Angliyalik olim (*Garvey*). 11. Immun reaksiyani yuzaga keltiruvchi begona jism (*Antitel*); 12. eng yirik arteriya (*Aorta*). Vertikal yo'nalishda: 1. Yurakning tashqi qo'zg'atuvchilarsiz, uning o'zida xosil bo'luvchi impulslar ta'sirida ritm tafsifa qisqarishi xususiyati (*Avtomatism*). 2. Qon bosimining ko'tarilishi (*Giperitoniya*). 5. Organizmning o'zini kasallik keltirib chiqaruvchi mikroorganizmlar va viruslardan, Shuningdek begona jismlardan himoya qilish xossasi (*Immunitet*). 7. Qonni yurakka olib keluvchi qon tomirlar (*Venalar*). 9. Limfa kapillyarları devorini teshib o'tuvchi hujayralararo modda (*Limfa*). Ishtirokchilarga bir-biriga savollar bilan murojaat qilish tavsija qilinadi.

Savollarning namunaviy ro'yxati:

1. OITS nima va uning tarqalishiga qarshi qanday kurash uslubi nisbatan samarali hisoblanadi?
2. Retsepient kim?
3. Odam va baqa eritrotsitlari tuzilishga ko'ra qanday farqlanadi?
4. Nima uchun odam issiqda qizaradi, sovuqda esa – oqaradi?
5. Immunitet nima?

6. Qon qanday funksiya bajaradi?
7. Odamning salomatligi me'yordan chetga og'ishi haqida qon tahili qanday axborot beradi?
8. Nima uchun piyoda yurish oyoqlarda qon aylanishini yaxshilaydi?
9. Qanday immunitet turlari mavjud?
10. Limfa tizimi qanday funksiya bajaradi?
11. Katta qon aylanish dorasi orqali qon qanday yo'ini bosib o'tadi?
12. Yurak klapanlari qanday rol' bajaradi?
13. Arteriyalar va venalarning tuzilishidagi o'zaro farqlanish nimalarda o'z ifodasini topadi?
14. Agar, probirkaga qon bilan toza suv quyilsa, u holda qon hujayralari yoriladi, agar ularni kontsentrlangan tuz eritmasiga solinsa, u holda ular tirishib qoladi. Nima uchun bu hodisa amalga oshadi, agar odam ko'p suv ichsa va ovqat bilan birgalikda ko'p tuz iste'mol qilsa, nima uchun bu holat amalga oshmaydi?
15. Kishilik jamiyatining butun rivojlanish tarixi davrida unga ko'p sondagi epidemiyalarning eng kuchhaygan, avj qilinmagan davrlarda ham barcha odamlar birdekkasallanmagan. Nima olgan vaqtlarida ham barcha odamlar birdekkasallanmagan. Nima uchun?
16. Fiziologiya bo'yicha keng ommalashgan kitoblardan birida quyidagi holatlardan qayd qilingan: «*Har bir sekund davomida Qizil dengizda millionlab kemalar halokatga uchraydi va tengiz tubiga cho'kib ketadi. Biroq, millionlab yangi kemalar toshli gavanlardan yana yangidan tengizga tomon suzishni boshladiv.*» Bu erda gap qanday kemalar haqidabormoqda va nima haqidafikr yuritilgan?
- VII. Simpozium rahbari** «*shifokor-talabalar*» tomonidan yig'ilgan qiziqarli dalillar bilan tanishib taklif qiladi.
- Eritrotsitlar zanjirining uzunligi yer sharini uch marta aylanib chiqishi mumkin;
 - Odam organizmida barcha eritrotsitlarning umumiy yig'indi yuzasi 3400 m² ni tashkil qiladi;
 - Tibbyot tarixida butun umri davomida 624 marta qon topshirgan donor mavjud hisoblanadi;
 - Qon tomir kapillyarlarining qalinligi soch tolasi qalinligidan 10

marta ingichka hisoblanadi;

- Odam organizmida kapillyarlarning umumiy uzunligi 100 000 metrdan oshadi;

- Har bir sekund davomida odam organizmida 2–10 000 000 eritrotsitlar buzilishi amalga oshadi;
- Gemoliz hodisasi zaharli ilon chaqqanda, chayon chaqqanda, ko'p sonda asalari chaqqanda, bezgak kasalligida, bir-biriga to'g'ri kelmaydigan qon quyilganda amalga oshadi;
- Organizmida mavjud qonning 1/3 qismi yo'qotilganda o'lim holati qayd qilinishi mumkin;

- Qonning barcha ivish jarayoni fazalari amalga oshishida kalsiy ionlari talab qilinadi;
- K-vitaminini qonning ivishini yaxshilaydi. Bu vitamin salat bargida, karam, pomidor tarkibida mavjud hisoblanadi.

Yakuniy xulosalarini chiqaramiz:

Amalga oshirilgan simpoziumning yakuniy xulosalari chiqariladi va kamqonlikning (*anemija*) oldini olish sifatida barchaga gematogen tarqatiladi.

QON VA SUYAKLAR BIZ UCHUN MEHMON EMAS

Integratsion sinddan tashqari o'tkaziluvchi tadbir

Integration tadbir – bu turli xil fan sohalariga oid bilimlarning sintezi talab qilinuvchi masalalarni o'r ganishda predmetlararo aloqadorlikni ro'yobga oshirishning samarali shakli hisoblanadi. Tavsiya qilinuvchi sinddan tashqari mashq'utot – o'quvchilarida biologiya va jismoniy tarbiya bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish va umumlashtirishga qaratilgan bo'lib, shuningdek o'quvchilar tomonidan asosiy qonuniyatlar va tushunchalarning o'zlashtirishini tekshirishga yo'naltiriladi. Bu ko'rinishdagi viktorinalarda ishtirok etish o'quvchilarida bilsinga oid faoliik va qiziqishning rivojlantirilishiga olib keladi.

Viktorina qoidalari «Baxtli tasodif» teleo'yini qoidalariga o'xshash hisoblanadi. Bunda har birining tarkibi 6 tadan kishidan tashkil topgan 2 ta jamoa ishtirot etadi. Tayyorgarlik davomida jamoalarining nomi, shiori, emblemasi haqida o'ylab ko'riladi, shuningdek devoriy gazeta tashkil qilinadi. Qolgan ishtirotchilar zalni rasmiy-

lashtiradi. Jismoni y tarbiya o'qituvchisi «mehmon» rolini bajaradi.

Mashg'ulotni tashkil qilish uchun quyidagi tegishli jihozlar talab qiliadi:

- devoriy gazeta uchun 2 sahifa vatman karton qog'oz;
- Viktorina mavzusi yozilgan plakat (uni sinf doskasiga bo'r bilan yozib qo'yish ham mungkin);
- 6 ta toza qog'oz sahifasi;
- Olimlar ismlari yozilgan kartochkalar;
- 2 ta krassvord;
- Flomasterlar (markerlar);
- 12 ta olma, anor, pomidor, xurmo, 12 ta yogurt, gematogen, «Revit» vitaminini (yoki hoxlagan vitamin), dori preparatlari: «Bronxikum» (yoki «Bromgeksin»), «Validol», «Anal'gin»;
- Suv solingan tog'ora, sochiq, sekundomer, qum soat;
- Ikkinchchi geymni o'tkazishda qora rangli plastik haltacha (yoki paketi).

Birinchi bosqich: «YANA, YANA...»

(*Bir minut davomida har bir jamoa boshlovchi tomonidan beriluvchi, quyidagi savollarga iloji boricha ko'proq to'g'ri javob berishi talab qilinadi. Har bir to'g'ri javob 1 ball bilan baholanadi.*)

Birinchi jamoa uchun savollar:

1. Yurakning tashqi qavatining nomlanishi (*Epikard*).
2. Viruslarga qarshi hujayrada ishlab chiqariluvchi modda (*Interferon*).
3. Qonning yadrosiz hujayralari (*Eritrotsillar*).
4. Qonning ivishiga olib keluvchi modda (*K vitamin, kalsiy tuzlari*).
5. Nimaning hisobiga suyak eniga o'sadi? (*Suyuk ushti to'qimasi*).
6. Odam skleti tarkibida eng uchun suyak (*Son suyagi*).
7. ECHT nima? (*Eritrotsillarning cho'kish iezligi*).
8. Gemoglobininng kislorod bilan birikmasi (*Oksigemoglobin*).
9. Suyaklarda harakatchan birikish (*Bo'g'im*).
10. Qonni yurakka olib keluvchi qon tomirlari (*Venalar*).
11. Kislorod bilan to'yingan qon (*Arterial qon*).
12. Oq qon tanachalari (*Leykotsillar*).
13. Birinchi vaktsinani kim kashf qilgan? (*Edward Jenner*).

14. Yurak atrofini o'rabi turuvchi xaltacha (*Perikard*).
15. Qon qancha vaqtida har ikkala qon aylanish doirasini aylanib chiqadi (27 sekund).
16. Yurakning bo'shashish bosqichi nima deb nomlanadi? (*Diastola*).
17. Suyaklarga egiluvchanlik va taranglikni qanday modda beradi? (*Organik moddalar*).
18. Oddam 72 yoshga kirdi. Uning yuragi necha yil dam olgan (36 yil).
19. Qonning ivimasligi – odamning irsiy kasalligi nima deb nomlanadi (*Gemofiliya*).
20. Musbat va manfiy bo'ladi, bu nima? (*Rezus-omi*).
21. Tayor antitelodan ishlangan preparat (*Zardob*).

Ikkinchchi jamoa uchun savollar:

1. Qonni yurakdan olib ketuvchi qon tomirlari (*Arteriya*).
2. Qon beruvchi odam (*Donor*).
3. Karbonat angidridga to'yingan qon (*Venoz qon*).
4. Nimaning hisobida suyak uzunasiga o'sadi (*Tog'ay*).
5. Odamning skletidagi eng kichkina suyak (*Eshitish suyakchasi*).
6. Gemoglobinning karbonat angidrid bilan birikishi (*Karbonoglobin*).
7. Odamning skleti qancha suyukdan tashkil topgan (218).
8. Suyukchalarining harakatsiz holatda birikishi (*Chok*).
9. Qon plastinkalari nima deb nomlanadi? (*Trombotsillar*).
10. Anemiya yana qanday nomlanadi (*Kan qonlik*).
11. Kuchsizlantirilgan mikroorganizmlardan tayyorlangan preparat (*Vakcina*).
12. Organizmning ayrim tashqi muhit omillariga nisbatan sezgirligi ortishi (*Allergiya*).
13. Yurakning o'rita qavati (*Mokard*).
14. Yurakning qisqarish jarayoni (*Sistola*).
15. Yurakda va vena qon tomirlarida mayjud klapinlar qanday nomlanadi? (*Yarim oysimon klapinlar*).
16. Suyuklarga nima qatiqlik va mustahkamlilik beradi? (*Anorganiq moddalar*).
17. Mikroorganizmlarni qiruvchi hujayra nima deb nomlanadi? (*Fagotsillar*).

18. Infektsiya tushgan vaqtida organizmning mahalliy sohalarida yuzaga keluvchi reaksiya qanday nomlanadi? (*Yallig'lanish*).
 19. Yurakning ichki qavati qanday nomlanadi (*Endokard*).
 20. Qanday xaltachada hech narsa ko'tarib yurish mumkin emas? (*Bo'g'im holtachasi*).
 21. Qanday oqsil qonning ivishida ishtirok etadi? (*Fibrinogen*).

Ikkinchchi bosqich: «XALTACHADAGI O'LAT»

(jamoa kapitanlari tanlovi)

(Kapitanlar xaltachadan navbat bilan olimlar familiyalarini yozilgan karrochkalarni olishadi. Kapitan qayd qilingan olim nomi bilan bog'iq holatlarni varaq sahifasiga chizib ko'rsatishi talab qilinadi. Uning jamoasi chizilgan rasm bo'yicha kartochkadagi olimming ismi va familyiyasini topishadi. Har bir to'g'rijavob uchun jamoaga 3 ball dan qo'yiladi).
 Olimlarining ismlari (qavslarda ularning kashfiyotlari, ya'ni jamoa kapitani chizishi talab qilingan tasvir nomi ko'rsatilgan):

1. Karl Landshteyner. (*Qon sinflari*).
2. I.I.Mechnikov. (*Fagotsitor*).
3. Lui Paster. (*Vaktsina*).
4. Uil'yan Garvey. (*Qon aylanish doirasi*).

Uchinchi bosqich: «MEN SENGА, SEN MENГА». (Uyga vazifa)

(Jamoa vakillari navbat bilan o'z raqiblariga oldindan tayyorlangan savollarni berishadi – ya'ni, har bir jamoa 2 tadan savol beradi. Har bir to'g'rijavob uchun 5 balldan qo'yiladi).

Birinchi jamoaga savollar:

1. Aytaylik, tog'da yashovchi vohada odam aholi istiqomat qiluvechi joyga ko'chib keldi. Uning qoni tarkibida eritrotsitlar miqdorida qanday o'zgarish amalga oshadi. Nima uchun?
2. Aytaylik, odamning qoni tarkibida tibbiyot xodimlari tomonidan leykotsitlar miqdorining keskin ortib ketishi aniqlandi. Bu hodisaning sababi nimada? Bu hoat odamning bezovtalanishiha sabab bo'ishi mumkinni?

Ikkinchchi jamoaga savollar:

1. Yosh xo'roznинг son suyagini olib tashlashdi, bunda suyagining tag to'qimasi qoldirildi. Ma'lum vaqt o'tganidan keyin xo'roznинг son suyagi qayta tiklandi. Bu holat nimadan dalolat beradi?
2. Erta tongda odamning bo'yи qiymati bir xil bo'ladi, kechqurun esa bu qiymat kamayadi. Bu holatni tushintiring, nima uchun bu hodisa amalga oshadi?

To'rtinchi bosqich: «MEHMON»

(Mehmon navbat bilan jamoalarga o'z savollarini beradi. Har bir to'g'rijavob uchun 5 balldan qo'yiladi).

1. Amaliy yo'1 bilan yassioyoqlikning mavjudligini aniqlash mumkimi?
2. Odam tanasida qon tomirlarning urishini (*puls*) aniqlash mumkin bo'lgan sohalarini ko'rsating.
3. Jismoni yuqlama me'yori oshirilganda yurak qon-tomir tizimining javob reaksiyasi qanday amalga oshadi?

Beshinchi bosqich: «YETAKCHILIK UCHUN POYGA»

(Boshlovchi navbat bilan jamoalarga savollar beradi va har bir to'g'rijavob uchun 5 ball qo'yiladi).

1. Jinoyatchi jinoyat izlarini yo'qotish maqsadida jabrlanuvchining qon tekkan kiyimlarini yoqib tashladi. Biroq, tibbiy-sud ekspertiza tahillari natijalari kul tarkibida qon mavjudligini aniqladi. Qanday qilib?

(Kul tarkibida yongan obekting kimyoviy tarkibiga kiruvchi kimyoviy elementlar mayjud hisoblanadi. Qon tarkibida gemoglobin tarkibiga kiruvchi temir moddasi ko'p hisoblanadi, agar kul tarkibida temir moddasi ko'p bo'lsa, demak yondirilgan kiyim qon dog'lariga ega hisoblanligini tahmin qilish mumkin).

2. Bemorning gemoglobin miqdori past hisoblanadi. Temir moddasi tanqisligi asosida kelib chiquvechi kamqonlik (*anemiya*) qayd qilindi. Siz unga dori sifatida nimani tavsya qilgan bo'lardingiz va shuningdek, stolda turagan qanday mevani tavsya qilgan bo'lardingiz? (stolda «Bronximkum» tabletksi, «Analgin», «Validol», «Revit» vitamini, gemitogen, olma, anor va pomidor mavjud).

(Bronxikum – yo’alga qarshi dori preparati, Analgin – og’riq goldiruvchi dori, Revit – vitaminlar to’plami hisoblanadi, gemoglobini oshirish uchun esa – gematogen, olma va anorin tavsuya qilish mumkin).

3. Odamning qonning rangi qizil, boshoyoqli mollyuskalarida qonning rangi – havorang. Qonning rangi shu darajada farqlanishini nima bilan izohlash mumkin?

(Boshoyoqli mollyuskalarida qon tarkibida gemotsianin pigmenti mayjud hisoblanadi, ma ’lumki gemotsianin pigmenti tarkibida mis moddasi ko ’p bo ’lib, bu modda qonga havo rang tus beradi).

4. *Qonning ivishi* – bu organizmning himoya reaksiyasi bo’lib, biroq qonning qon tomirlar ichida ivib qolishi kasalligi mayjud hisoblanadi. Nima uchun bu kasallilik odam organizmi uchun havfi hisoblanadi.

(*Qonning qon tomirlarda tiqilib qolishi bo ’lib, ya’ni tromb – bu insult – tromboz, miyada qon tomirlarning tiqilib qolishi, infarkt – yurak vena qon tomirlarida qonning tiqilib qolishi kasalliklariga olib keladi, bunda hayot uchun muhim ahamiyatga ega organlarda qon aylanishi buziladi.*)

Umumiy muhokama qilish uchun qo’shimcha savollar.

Bolalarda bir yoshgacha bosuning tepe qismida liqaldoq soha mayjud bo’lib, nisbatan keyingi rivojlanish yosh davrlarida bu liqaldoq soha to’liq «o’sad». Bu ko’rinishdagи «liqidloq» o’zi nima? Bu liqaldoq sohaning o’sish tezligimi o’zgartirish uchun siz bolalarga qanday oziq-ovqat maxsulotlarini iste’mol qilishni tavsuya qilgan bo’lardingiz?

Yakuniy xulosalar chiqarish va g’oliblarni taqdirlash.

Barcha jamoalar yiqqan ballar maxsus blankada (varaq sahifasi) sayd qilinadi.

Viktorinaning (tanlov) har bir ishirokchisi olma (gemoglobin miqdorini oshirish uchun) va bir bankadan (suyaklarni mustahkamlash uchun) yogurt bilan taqdirlanadi. G’olib jamoa ishirokchilarini jurnalda biologiya va jismoniy tarbiya bo’yicha «a’lo» baholar bilan taqdirlanadi.

YAKUNIY QISM

Shunday qilib, biz yakuniy xulosalarga yetib keldik. Agar, biz ishlab chiqqan ushbu o’quv qo’llanna pedagogik amaliyotni o’tkazishda sizga yordam bersa, biz bundan minnatdormiz. Albatta, biz bilamizki, ishni amalga oshirishda eng asosiyi – bu sizning o’zingiz, sizning tayyorlarligingizdir. Burgina maslahat berish bilangina mayjud masalani hal qilish mumkin emas! Biroq, ayrim holatlarda maslahat ham foydali hisoblanadi! Sizing e’tiboringizga shunday dalilni havola qilamizki, ya’ni – matnlarda ayrim fikrlarda takrorlanishlar qayd qilinadi, bizning fikrimizcha agar, kitobxon qandaydir tavsiyalarni matnlarning bitta joyida ilg’ab olmagan bo’lsa, u holda

Javoblar blankasi									
1-jamoa				2-jamoa					
Jamoalarning tashrif qog’ozı (maksimum 5 ball)									
I bosqich (1 ta to’liq to’g’ri javob = 1 ball)									
1	2	3	4	5	6	7			
1	2	3	4	5	6	7			
8	9	10	11	12	13	14			
15	16	17	18	19	20	21			
Jami:									
II bosqich (1 ta to’liq to’g’ri javob = 3 ball)									
1		2			1	2			
1		2			1	2			
III bosqich (1 ta to’liq to’g’ri javob = 5 ball)									
1		2			1	2			
Jami:									
IV bosqich (1 ta to’liq to’g’ri javob = 5 ball)									
1		2			1	2			
Jami:									
V bosqich (1 ta to’liq to’g’ri javob = 5 ball)									
1		2			1	2			
Jami:									
Krossword uchun ballar miqdori									
Umumiy yig’indi									

bu tavsiyalar matning boshqa joyida ham yana uchraydi va ehti-
mol, bu holatda kitobxon uni e'tiborga olishi va albatta foydalanishi
ham mumkin!

Qayd qilib o'tishni istardikki, ushu o'quv qo'llanmada bayon
qilingan materiallar shunchaki o'qib chiqish uchun emas, balki
amaliyotchi-talabalar tomonidan amalga oshiriluvchi ishlarni bajar-
rishda foydalanilishi mumkin. Bu materiallarda amaliyotchilar pe-
dagog amaliyot davomida foydalanishlari maqsadga muvofiq hisob-
lanadi. Biz pedagogik amaliyotning u yoki bu lahzalarida sizning
faoliyattingizda as qotishi mumkin bo'lgan faoliyat algoritmini ish-
lab chiqishga harakat qildik.

Agar, siz pedagogik amaliyotni tugallagan bo'lsangiz, biz-
ning ushbu o'quv qo'llanmamizni saqlab qo'ying yoki uni peda-
gogik amaliyotni amalga oshirishni rejalashtirayotgan boshqa
hamkasblaringizga bering.

Bizning ushbu ishimizni saqlash orqali, siz kelgusida unda kelti-
rilgan nimalardandir foydalanishingiz mumkin.

Bizning o'quv qo'llanmamizning so'ngida bo'lajak biologik
o'qituvchilari bo'lgan talabalar uchun foydalanish maqsadida max-
sus adabiyotlar ro'yxati keltirilgan. Biz sizga quyidagi maslahatni
berishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: Siz o'zingizga tegish-
li adabiyotlarni tanlab o'rjanib chiqishning talab qilinadi. O'zin-
gizning yo'nalishningiz bo'yicha shaxsiy kutubxona tashkil qilishni
tavsiya qilamiz.

Hurmatli hamkasblar! Biz siz bilan hayrashamiz! Endi amali-
yotchi-talaba emas, balki bo'lajak biologiya o'qituvchisi sifatida
o'z faoliyatini boshlayotganlarga ish faoliyatlarida muvafaqiyatlar
tilaymiz! Maktablarda ishlash – bu mashhaqqatlari mehnat bo'ishi bi-
lan birgalikda, eng kerakli va sharafi kasblardan biri hisoblanadi!
Sizga omadlar tilaymiz!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevralda-
gi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish
strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun
hujjatlari to'plami, 2017 y., 6сон, 70-modda.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 2 martdagি
PF-5953-son «2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivoj-
lantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategi-
yasini «ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyoti rivojlantirish yili»da
amalga oshirishga oid davlat dasturi» to'g'risi»dagi Farmoni. Qonun
hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.03.2020 y.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgustda-
gi PF-5789-son «Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadra-
ning uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida»gi
Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 28.08.2019
y., 06/19/5789/3659-son.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagи
PQ-3151-sonli «Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini
oshirishda iqtisodiyot tarmoqlari va tarmoqlarning ishtirokini yana-
da kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni. O'zbekiston
Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 yil, 30-son, 729 b.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 08 oktyabr-
dagи PF-5847-son «O'zbekiston Respublikasining 2030 yilgacha oliy
ta'lim tizimini rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»
gi Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019
y., 06/19/5847/3887-son.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi
PQ-3775-son «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va
ularning mamlaka da amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohot-
larda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbir-
lar to'g'risida»gi Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy baza-
si, 06.06.2018 y., 07/18/3775/1313-son.

7. Andreev V.I. Pedagogika tvorcheskogo samorazvitiya: innova-
tioniy kurs. – Kn. 2. – Kazan': Izd-vo Kazan. un-ta, 1998. – 318s.

8. Arxangel'skiy S.I., Mixeev V.I., Perel'tsvayg YU.M. Voprosi
izmereniya, analiza i otsenki rezul'tatov v praktike pedagogicheskix

- issledovaniy. M., 1985.
9. Ahliddinov R.SH. Umumiy o'rta ta'llimi takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik asoslari (boshqaruv jihatlari). Pedagogika fan dokt.. diss. T.: 2002 y.
 10. Abdraimova B.B., B.Axmadalieva "Ispol'zovanie innovatsionix texnologiy pri provedenii laboratorniy zanyatiy po botanike". //Nauka 21 veka: voprosi, gipotezi, otveti /Moskva, Taganrog/ 2015 yil № 1.
 11. Abdraimova B.B. Biologiya darslarida o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish yo'llari //Biologiya fanning dolzarb muammolari va uni o'qitishda innovatsion texnologiyalar (Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallar to'plami) 2017 yil mart. 7-9 bet.
 12. Abdraimova B.B. Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik faoliyatini loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish // «Pedagogik ta'llim» jurnali. №4 iyul' 2014yil .
 13. Abdraimova B.B. Laboratoriya mashg'ulotlariga zamonaviy yondoshuv – samaradorlik omili sifatida. // «Uzluksiz ta'llim» jurnal №4 2013 yil.
 14. Abdraimova B.B. Ta'linda boshqaruvni takomillashtirishga ijtimoiy-pedagogik yondashuv //Mug'allim ham yuziksiz bilimlendirio (ilmiy-metodik jurnal). 2020 yil №1 / 22-24 bet.
 15. B.B.Abdraimova, A.T.G'ofurov «Zoologiya o'quv fanidan laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish metodikasi» "Maktabda biologiya" jurnal 2010 yil 5(17) - son 4-9 betlar
 16. Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta'linda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2007. – 160 b.
 17. Belkin E.L. Didakticheskie osnovi upravleniya poznatel'noy deyatel'nost'yu v usloviyakh primeneniya texnicheskix sredstv obucheniya. – Yaroslavl': Verx. - Volj. kn. izd-vo. 1982. – 107s.
 18. Bespal'ko V.P. Monitoring kachestva obucheniya - sredstvo upravleniya obrazovaniem. – M.: Mir obrazovaniya, 1996, № 2, S.31-36.
 19. G'afurov A., A. Abdukarimov, J. Tolipova, O. Ishankulov, M. Umaraliyeva, I. Abduraxmonova. "Biologiya". Darslik. –T: "SHarq" nashiriysi, 2017.
 20. G'ofurov A.T. va boshqalar. Biologiyani o'qitishning umumiy

- metodikasi. O'quv metodik qo'llanna. T., 2005 yil. 152 b.
21. G'ofurov A.T. va boshqalar. Genetik bilimlarni puxta o'zlashtirish va masalalar echish metodikasi. Metodik qo'llanna. T., 2000 yil 96 bet.
 22. Inoyatov U.I. Teoreticheskie i organizatsionno-metodicheskie osnovi upravleniya i kontrolya kachestva obrazovaniya v professional'nom kollejde. Diss. dokt. ped. nauk. T.: 2004, 578 s.
 23. Klarin M.V. Innovatsionnie modeli obucheniya v zarubejinx pedagogicheskix poiskax. – M.: Arena, 1994. – 224s.
 24. Klarina N.P. Otsenka effektivnosti podgotovki uchiteley. – M.: Znanie, 1985. – 23s.
 25. Konarievskiy Y.U.A. Pedagogicheskiy analiz uchebno-vospitatel'nogo protsessa i upravlenie shkoly. M.: 1997. CH.1 – S.80
 26. Qodirov A. Biologiyadan pedagogik praktika o'tkazish. – Toshkent: O'qituvchi, 1981.
 27. Ogorelkov V.I. Problemi izmereniya i otseonok kachestva znaniy uchashchixsa// Pedagogika – 1995. – № 12. –S.23-30.
 28. Osnovi pedagogicheskogo masterstva: Uchebnoe posobie dlya ped. spets. vissh. ucheb. zavedeniy /Pod red. I.A.Zazyuna. – M.: Pedagogika, 1989. – 30s.
 29. Raximov A.K. Talabalarning tabiiy –ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish metodlari. "Biologiya fanning dolzarb muammolari va uni o'qitishda innovatsion texnologiyalar". Respublika ilmiy – amaliy anjuman to'plami. – Toshkent, 2017. – B. 50 –53.
 30. Raximov A.K. Uzluksiz ta'llim jarayonida biologiya fanni o'qitishning o'ziga hos hususiyatlari. Uzluksiz ta'llim – Toshkent, 2018.-№1. – B. 30-35.
 31. Raximov A.K. Biologik fanlarni o'qitishda xususiy metodik texnologiyani qo'llash samaradorligi. Universitet abhorotnomasi. – Guliston, 2019 – № 2 – B.42-46.
 32. Raximov A.K. Sistema biologicheskix kompetentsiy formirovaniya estestvennoauchnoy gramotnosti uchashchixsa. Nauchnoe obozrenie. Pedagogicheskie nauki. g. Moskva. ISSN 2500-3402, № 2. 2020. S. 44-48.
 33. Raximov A.K. Uzluksiz ta'llim tizimida pedagogik ta'llim innovatsion klasterining roli. Academic Research in Educational Sciences (ARES) // Chirchiq, 2020, №1, b.48-53.

34. Raximov A.K. "Maktab labaratoriya" tajriba maydonchasi-pedagogik ta'linda innovatsion kластer loyihasini joriy etish. Academic Research in Educational Sciences (ARES) // Chirchiq, 2021, №01, b.59-64

35. Raximov A.K. evolyutsion ta'lilot faniidan pedagogik tajriba-sinov o'tkazish materiallari. O'quv qo'llanna. TDPU Toshkent:2019 y.

36. Raximov A.K. Talabalarda tabiiy-ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish nazariyasi va amaliyoti ("Evolyutsion ta'lilot" kursini o'qitish misolda). Monografiya. ISBN-978-9943-381-5-06. – Toshkent: «NAVRO'Z», 2018 y.

37. Tolipova J.O., B.B.Abdraimova va boshqalar. Biologiya o'qitish metodikasi (laboratoriya mashg'uloti) (darslik) TDPU Toshkent - 2018 y.

38. Tolipova J.O., B.B.Abdraimova va boshqalar. Odam va uning salomatligi (o'qituvchi kitobi) (o'quv qo'llanna) Tafakkur nashriyoti 2016 y.

39. Tolipov O.Q. Oliy pedagogik ta'lum tizimida umummexnat va kasbiy ko'nikma hamda malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari. Monografiya. T.: «Fan». 2004. – 168 s.

40. Tolipova J. O. "Biologiya o'qituvchisining ilmiy-metodik tayyorgartligi darajasini orttirish nazariyasi va amaliyoti". //monografiya. 114 b. 2006 y.

41. Xanova T.G. Kvalimetriceskaya texnologiya otsenki kachestva prepodavaniya metodom anketirovaniya. Dis. kand. ped. nauk. – Ijevsk.

42. Ergasheva G. S. "Biologiya ta'limida interaktiv dasturiy vositalardan samarali foydalanishi takomillashtirish". dis. pedagogika fanlari doktori. 2018 y.

43. Ergasheva G. S. "Umumiy o'rta ta'lum maktab biologiya darsliklari o'quv materiallarni loyihalashning didaktik asoslar". dis. pedagogika fanlari nomzodi. 2006 y.

44. https://kpfu.ru/staff_files

45. mmedia@rmnc.ru, <http://www.rmnc.ru>

46. <http://www.physicon.ru>

47. techsupport@cm.ru

48. <https://baxtiyor.uz/pisa-dasturi-haqida>

PEDAGOGIK AMALIYOTNI O'TKAZISH METODIKASI

Muharrir: X. Tahirov

Texnik muharrir: T. Raxmatullayev

Musahih: N. Ismatova

Sahifalovchi: A. Muhammad

— 13158 —

